

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2019 Vol.3

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

**MAS'UL KOTIB**

Ilyos Ismoilov

**TAHRIR HAY'ATI**

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Baxtiyor Nazarov

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Yusuf Chetindog' (Turkiya)

Nodirxon Hasanov (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Naim Karimov

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

To'ra Mirzayev

Boqijon To'xliyev

Qosimjon Sodiqov

G'aybulla Boboyorov

Onal Kaya (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Otabek Jo'raboyev

Baxtiyor Abdushukurov

Sarvinoz Sotiboldiyeva

Dilnavoz Yusupova

Elchin Ibrohimov

(Ozarbayjon)

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

**MUNDARIJA****MATNSHUNOSLIK****Nurboy JABBOROV**Ogahiy "Zubdatu-t-tavorix" asarining qo'lyozmalari  
va adabiy manba sifatidagi qimmatlari**3****Sohiba MADIRIMOVA**Mutrib Xonaxarobiy asarlari qo'lyozmalarining  
ilmiy tavsifi**27****ADABIYOTSHUNOSLIK****Dilnavoz YUSUPOVA**Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" risolasi  
uchun asos bo'lgan nazariy manbalarning  
komparativistik tahlili**60****TILSHUNOSLIK****G'aybulla BOBOYOROV**Turkiy tilning proto-turk davri: xun va o'g'ur-bulg'or  
tarmoqlari**81****To'lqin TOG'AYEV**Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek  
shevalarida qo'llanishi**107****Shuhrat SIROJIDDINOV,  
Sarvinoz SOTIBOLDIYEVA**

Taqriz

**128**

**EDITOR IN CHIEF**

Shuhrat Sirojiddinov

**DEPUTY EDITOR IN CHIEF**

Karomat Mullakhojaeva

**EXECUTIVE SECRETARY**

Ilyos Ismailov

**EDITORIAL BOARD**

Zaynabiddin Abdirashidov

Karl Rechl (Germany)

Bakhtiyor Nazarov

Kamol Abdulla (Azerbaijan)

Yusuf Cetindag (Turkey)

Nodirxon Khasanov (Turkey)

Isa Khabibeyli (Azerbaijan)

Naim Karimov

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Tura Mirzaev

Bakijan Tukhliev

Kasimjan Sadikov

Gaybullah Babayarov

Onal Kaya (Turkey)

Kimura Satoru (Japan)

Aftandil Erkinov

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bakhtiyar Abdushukurov

Sarvinoz Sotiboldieva

Yusupova Dilnavoz

Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)

Nodirbek Jurakuziev

**CONTENTS****TEXTOLOGY****Nurboy JABBOROV**

The Manuscripts Of Ogahiy's Work Titled  
 "Zubdatu-T- Tavarikh" And Its Value In The Capacity  
 Of A Literary Source **3**

**Sohiba MADIRIMOVA**

A Scientific Description Of The Manuscripts Of  
 Mutrib Khonakharobiy's Works **27**

**LITERARY STUDIES****Dilnavoz YUSUPOVA**

The Comparativistic Analysis Of The Theoretical  
 Sources Based On Alisher Navoi's Pamphlet  
 Titled "Mezon ul-Avzon" **60**

**LINGUISTICS****G'aybulla BOBOYOROV**

The Proto-Turkic Epoch Of The Turkic  
 Language: The Branches Of Xun And Ogur-Bulgar **81**

**To'lqin TOG'AYEV**

The Usage Of The Words Used In Turkic  
 Manuscripts In The Uzbek Dialects **107**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,  
Sarvinoz SOTIBOLDIYEVA**

Review **128**

**N. Jabborov**

*(Toshkent, O'zbekiston)*

jabborov\_n@navoiy-uni.uz

## **Ogahiy “Zubdatu-t-tavorix” asarining qo'lyozmalari va adabiy manba sifatidagi qimmatini**

### **Abstrakt**

Maqola o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” asari tadqiqiga bag'ishlangan. “Zubdatu-t-tavorix”ning Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida, S.Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida, O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan besh qo'lyozma nusxasi qiyosiy tahlil etilib, manbashunoslik nuqtayi nazaridan O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan 821 raqamli manba asar qo'lyozmalarining nisbatan mukammali ekanligi aniqlangan.

Maqolada, shuningdek, “Zubdatu-t-tavorix”ning yaratilish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”i bilan qiyosiy tadqiq qilish asosida asarning Xiva xonligi tarixiga oid ishonchli manba ekanligi isbotlangan.

Asarda keltirilgan she'rlar tahlili ham “Zubdatu-t-tavorix”ning adabiy manba ekanligini dalillashga xizmat qilgan. Jumladan, asarda qasida (6ta), masnaviy (70ta), g'azal (4ta), ruboiy (7ta), qit'a (10ta), ta'rix (4ta), fard (6ta) singari o'nga yaqin she'riy janr namunalari keltirilgani, she'rlar jami 1176 bayt (2352 misra)ni tashkil etishi aniqlangan. Ulardan eng ahamiyatlilari tahlil etilgan.

“Zubdatu-t-tavorix”da muallifning badiiy mahorati masalasi qasida va tarixlar tahlili asosida ko'rsatilgan. Mazkur she'riy janrlar namunalari, ularning poetikasi va vazn xususiyatlari tahlilida Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balag'a” asaridagi nazariy fikrlarga tayanilgan.

Maqolaning xulosa qismida “Zubdatu-t-tavorix”ning adabiyot, tarix, etnografiya, toponimiya singari fan sohalarini bo'yicha ham noyob ma'lumotlar jamlangan manba ekani qayd etilgan.

**Kalit soʻzlar:** *adabiy manba, qoʻlyozma, badiiy-tarixiy nasr, sheʼriyat, janr, qasida, vazn, sajʼ, qiyosiy tahlil, badiiy mahorat.*

**Muallif haqida:** *Nurboy Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.*

**Tavsiya etiladigan havola:** Jabborov, Nurboy. 2019. “Ogahiy “Zubdatu-t-tavorix” asarining qoʻlyozmalari va adabiy manba sifatidagi qimmatini”. *Oltin bitiglar* 3: 3—26.

## **Kirish**

Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy (1809-1874) “Taʼvizu-l-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nazmiy devoni bilan mumtoz sheʼriyatda Alisher Navoiyning munosib izdoshi ekanligi, oʻz taʼbiri bilan aytganda, “fasohat va balogʻat bobida nodir va soʻz rishtasigʻa maoniy javohirin nazm etarga qodir”ligini isbotladi. Kaykovus, Saʼdiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Vosifiy singari buyuk mutafakkirlarning fors-tojik tilida ijod etilgan yigirmadan ortiq nodir asarlari tarjimasi orqali ona tilimizning ifoda imkoniyati nechogʻlik boy ekanligini amalda namoyon etdi. Bu ulugʻ mutafakkir nomi nainki mumtoz shoir va mahoratli mutarjim, shuning barobarida, XIX asr Xorazm kechmishiga doir nodir manbalar hisoblanmish memuar-qissalar — badiiy-tarixiy asarlar muallifi sifatida ham mashhur.

U XIX asr xorazmshohlar saltanati davri voqealariga bagʻishlangan besh memuar qissa yozdi. Ollohqulixon hukmfarmoligi davri (1825–1843) toʻgʻrisidagi “Riyozi-d-davla”, Rahimqulixon saltanati voqealari (1843–1846) tasvirlangan “Zubdatu-t-tavorix”, Muhammad Aminxon (1846–1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlugʻmurodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi “Jomeʼu-l-voqeoti sultoniy”, Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856–1865) doir “Gulshani davlat” hamda Muhammad Rahimxon soniy — Feruz davri (1865–1910) vasf etilgan “Shohidu-l-iqbol” kabi asarlar shular jumlasidandir. Bular qatoriga Shermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavsul-iqbol”ni davom ettirib, badiiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlaganini ham qoʻshsak, Ogahiyning oʻzbek memuar-

qissachiligi rivojiga qo‘shgan hissasi nechog‘lik ulkan ekanligi ayon bo‘ladi.

Ogahiyning adabiy-tarixiy asarlarini tarixiy manba sifatida tadqiq etgan rus olimi akademik V. V. Bartold shunday deb yozgan edi: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan **adabiy-tarixiy asarlar** (ta’kid bizniki — N. J.) qanchalik kamchilikka ega bo‘lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko‘pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo‘qon va Buxoro xonliklari tarixi bo‘yicha yozilgan hamma asarlarni o‘zidan ancha orqada qoldiradi” [Bartold 1927, 113].

Olimning ayrim fikrlariga alohida e’tibor qaratish zurrati seziladi. Birinchidan, u Ogahiyning tarixiy mavzudagi asarlarini sof tarixiy asar sifatida talqin etishdan saqlanib, ularning adabiyotga daxldorligini e’tirof etgan. Olimning ularni **adabiy-tarixiy asarlar** deyishi buning tasdig‘i. Ikkinchidan, bu turdagi asarlarda *tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko‘pligi* masalasiga alohida urg‘u berilgan. Binobarin, bu asarlarda tarixiy voqealar tasvirlangan va faktik materiallar ko‘p bo‘lsa ham, ularni *bayon etish* usuli adabiy ekanini alohida ta’kidlash zarur.

O‘zbek va umuman sharq badiiy-tarixiy nasri Ogahiygacha ham ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Nosiriddin Rabg‘uziy, Mirxond, Xondamir, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Shermuhammad Munis kabi buyuk adiblar nasriy merosi buning dalilidir. Bu ulug‘ ijodkorlar qalamiga mansub “Qisasi Rabg‘uziy”, “Ravzatu-s-safo”, “Makorimu-l-axloq”, “Habibu-s-siyar”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Boburnoma”, “Firdavsul-iqbol” singari asarlar Ogahiyning badiiy-tarixiy nasri uchun o‘ziga xos tajriba maktabi bo‘lgan.

O‘zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyot bosqichlarini Ogahiyning “Shohidu-l-iqbol” asari misolida o‘rgangan manbashunos Nafas Shodmonov jahon adabiyotida tarixiy nasr mualliflari badiiy adabiyot rivojida sezilarli ijobiy rol o‘ynagani, yevropa adabiyotshunosligida antik tarixnavislik zamonaviy nasr uchun katta salmoqqa ega sujetlar, badiiy ishlangan obrazlar taqdim etish bilan birga uslubiy maktab rolini o‘tagani haqida yozib, yunon tarixnavisi Plutarx, ingliz xronistlari R.Xolinshed, G.Xoll kabilarning merosi Shekspir, Russo va boshqa ko‘plab adiblar ijodiga katta ta’sir o‘tkazganini misol tariqasida keltiradi. Xitoy adibi Sim Syanning “Tarixiy bitiklar” (“Shi szi”), “Umr daftari” (“Lechjuan”) kabi asarlari tarixnavislikninggina emas, balki kelajak adabiy nasrining taraqqiyoti tamoyillarini belgilashga xizmat qilgani, At-Tabariy va Ibn

Xaldun merosi arab va ajam tarixnavislari uchun namuna bo'lganini ta'kidlaydi [Shodmonov 2009, 39–40].

Shu paytga qadar, asosan, tarixiy asarlar sifatida baholab kelingan Ogahiy badiiy-tarixiy nasrini maxsus o'rgangan akademik V.Abdullayev bu asarlarni “tarixiy-badiiy proza” [Abdullayev 1967, 380] namunalari deb atasa, G'ulom Karimov va Subutoy Dolimov ularning “badiiy-tarixiy asar tarzida qimmatli” [Karimov va Dolimov 1978, 16] ekanligini ta'kidlaydilar. Professor Najmiddin Komilov esa Ogahiyning tarjima asarlari tahlili misolida milliy adabiyotimiz tarixida yaratilgan “qissa hikoyalar (povest)” [Komilov 1999, 80] larga e'tibor qaratadi. Binobarin, Ogahiyning tarixiy mavzudagi barcha nasriy asarlari, jumladan, tadqiqotimiz manbasi bo'lgan “Zubdatu-t-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) ham birinchi navbatda badiiy, undan keyingina tarixiy asar hisoblanadi.

Muhim tarixiy ma'lumotlar berilgan bo'lishiga qaramay, uslubi, janr xususiyatlari, ifoda tarzi va boshqa belgilariga ko'ra “Zubdatu-t-tavorix”ni ham, Ogahiy badiiy-tarixiy nasrining boshqa namunalari ham tarixiy-ilmiy asarlar sifatida baholab bo'lmaydi. Bu asarlarni adabiy manba sifatida o'rganish esa adabiyotshunoslik hamda uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy xulosalar beradi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Ogahiy badiiy-tarixiy asarlari haqida amerikalik [Allworth 1964], rossiyalik [Bartold 1927; Tolstov 1948; Borovkov, 1951] mutaxassislar, shuningdek, o'zbek olimlarining [G'ulomov 1959; Yo'ldoshev 1959; Munirov 1959; 1969; 2002; Jumaxo'ja va Adizova 1995; Sultonova 2000; Shodmonov 2009] tadqiqotlari e'lon qilingan. Biroq asar haqida maxsus tadqiqotlar yaratish dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirida G'ulom Karimov va Subutoy Dolimov sa'y-harakatlari bilan Ogahiy asarlarining olti jildligi nashr etildi. Badiiy-tarixiy asarlari jamlangan beshinchi jildda “Zubdatu-t-tavorix”dan” sarlavhasi ostida asardan kichik bir parcha e'lon qilindi [Ogahiy 1978, 173-201]. Biroq Rahimqulixon saltanati davriga bag'ishlangan bu asarning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan to'liq matnini chop etish imkoni bo'lgan emas. Tabiiyki, o'sha kezlari asarning mukammal nashrini amalga oshirish to'g'risida orzu ham qilib bo'lmas edi. Chunki badiiy-tarixiy nasrning bu yuksak namunasi mohiyatan o'sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga, uning tutumiga tamomila zid edi. Unda tarixiy voqelik betakror badiiyat

bilan tasvirlangan, hukmdor ajdodlarimizning "bosqinchiligi" emas, fazilatlarini xususida bahs yuritilgan edi.

Uzoq muddat "Zubdatu-t-tavorix" tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib keldi. O'tmish adabiy-tarixiy merosni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bugungi kunda zamondoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodni mazkur asarning asl mohiyatidan xabardor qilish zaruriyati tufayli 2009-yili asarning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan nisbatan mukammal nashri amalga oshirildi [Ogahiy 2009]. 2016-yili asarning ilmiy-tanqidiy matni nashr qilindi [Agaxi 2016].

### **Tadqiqot usullari**

Bugungi kunda soha bo'yicha dunyo olimlari erishgan ilmiy yutuqlarni o'zbek matnshunosligiga tatbiq etish dolzarb vazifalardandir. Tadqiqotni yozishda adabiy merosni o'rganishda sinalgan, katta samara berib kelayotgan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

### **Asarning qo'lyozma manbalari**

Bizgacha "Zubdatu-t-tavorix"ning olti qo'lyozma nusxasi yetib kelgan:

- 1) Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida (T.N.S./22);
- 2) Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari instituti (Y/6/U);
- 3) Turkiya Istanbul universiteti nodir kitoblar kutubxonasida (TY/82)<sup>1</sup>;
- 4) O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (821/111, 5364/111; Hamid Sulaymonov fondi, 275/11) saqlanadi.

Asar ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan Hilola Nazirovaning fikricha, T.N.S./22 raqamli qo'lyozma Ogahiyning o'z qo'li bilan ko'chirilgan dastxat nusxa. Olima bunga uch asos keltiradi: 1) qo'lyozmaning xati e'tiborli olimlar Ogahiy dastxati deya e'tirof etgan manbalardagi xat bilan aynan bir xil ekanligi; 2) qo'lyozmada Ogahiy dastxati bo'lgan boshqa manbalardagi kabi kolofon mavjud

---

<sup>1</sup> "Zubdatu-t-tavorix"ning 2009-yilgi nashrining so'zboshisida biz asarning besh qo'lyozma nusxasi borligi haqida yozganmiz. Asarning oltinchi – Turkiya Istanbul universiteti nodir kitoblar kutubxonasida TY/82 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozmasi haqida Hilola Nazirova tuzgan ilmiy-tanqidiy matn so'zboshisida ma'lumot berilgan. Qarang: Muxammad Riza Mirab Agaxi. Zubdat al-tavorix. Nauchno-kiriticheskiy tekst, vvedenie i primechanie sostavleni Xiloloy Nazirovov. Tashkent-Samarkand, 2016, str. 53.



emasligi; 3) qo'lyozmaning kataloglarda Ogahiy dastxatlari sifatida tavsiflangan manbalar ichida saqlanayotganligi [Nazirova 2011, 53–54]. F. G'anixo'jayev ma'lumotlariga ko'ra, ulardan Ogahiy hayot paytida ko'chirilgani Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida Y/6/U (590 OV) raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozmadir [G'anixo'jayev 1986, 26–27]. Hilola Nazirova Y/6/U raqamli qo'lyozma T. N. S./22 raqamli manbadan ko'chirilganiga jiddiy asoslar borligini ta'kidlaydi [Nazirova 2011, 64].

O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 821 raqamli manba "Zubdatu-t-tavorix"ning mamlakatimizda saqlanayotgan qo'lyozmalari ichida nisbatan mukammali hisoblanadi. Qo'lyozmalarga doir ma'lumotlarning qiyosiy tahlili ham bu nusxaning ishonchli manba ekanligini tasdiqlaydi. Fathulla G'anixo'jayev tuzgan katalogda ko'rsatilishicha, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filialida saqlanayotgan Y/6/U (590 OV) raqamli qo'lyozma

*Karaming tojidan sarafroz et,  
Ravza ahli ichida mumtoz et, —*

bayti bilan yakunlangan<sup>1</sup>.

O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutidagi 821 raqamli qo'lyozmaning oxirida esa mazkur baytdan so'ng quyidagi nasriy xotima berilgan: *Donish ahlining xotiri xatirlarig'a ma'lum bo'lsunkim, bu nusxayi muxtasar ta'lifi hazrat zillullohiy g'ufropanohiyning vafoti malomatsamotidin o'ttuz besh kun so'ng, sanayi hijriy ming ikki yuz oltmish ikkida yilon yili rabi' ul-avval oyining to'rtida, dushanba kuni ixtitom topdi. Sahv-u xato va nuqsonin ayb qilmay, ma'zur tutsunlar. Balki lutf-u karam ko'rguzub, isloh bersunlar. Iloho, Tangri taolo hammani maqosid husulidin komyob qilg'oy. Omin. Tammatu-l-kitob bi'avni-l-maliki-l-vahhob* (Bundan keyin qavs ichida faqat qo'lyozma sahifasi ko'rsatiladi) [Ogahiy 1881, O'zR FA SHI № 821, 435<sup>a</sup>].

Mazkur nasriy xotimaning boshqa nusxalarda mavjud emasligi ham 821-raqamli qo'lyozmaning afzalligini ko'rsatadi. Qolaversa, "Zubdatu-t-tavorix"ning bu qo'lyozma nusxasi oqqa ko'chirilishi asar qahramoni Rahimqulixon hayot vaqtida deyarli yakunlangan. Yuqorida keltirilgan nasriy xotima shundan dalolat beradi.

---

1 Olim ushbu ma'lumotni "Описание тюркских рукописей Института народов Азии [Том.I., 1965, стр. 111, оп. 102]" to'plamidagi qo'lyozmalar tavsifi asosida keltiradi.

Bundan tashqari, keltirilgan nasriy matndan keyingi: "1298 sana. Roqimi in kitob Mullo Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhum, g'afarallohu zunubaha va satara uyubaha" degan qayd qo'lyozmaning ko'chirilgan yili haqidagi mavjud ma'lumotga oydinlik kiritadi. Fathulla G'anixo'jaev tuzgan katalogda qo'lyozmaning ko'chirilgan yili 1289/1880 deb ko'rsatilgan. Asl manbadagi qo'lyozmani ko'chirgan kotib qaydiga ko'ra, bu sana 1298/1881-yil ekanligi ma'lum bo'ladi.

Qo'lyozma yupqa, novvotrang Qo'qon qog'oziga qora siyohda nasta'liq xatida yozilgan. Sarlavhalari qizil siyohda bitilgan. Matn mukammal. Qo'lyozma yaxshi saqlangan bo'lib, qora charm qoplangan naqshinkor karton bilan muqovalangan. 50 varaq (386-435a), 27x44.

**"Zubdatu-t-tavorix"ning yaratilish tarixi.** Asar muqaddimasida qayd etilishicha, "Zubdatu-t-tavorix"ning yaratilish tarixi quyidagicha bo'lgan: Muhammad Rizo Ogahiy Ollohqulixon hukmfarmoligi davriga bag'ishlangan "Riyozu-d-davla" memuar qissasini yakunlagach Rahimqulixonning "majlisi ishratparvar va suhbat kimyoasari" ga yetkazadi. Muarrix keyingi voqealar to'g'risida bunday yozadi: *...ul hazrat (Rahimqulixon – N.J.) haddin afzun istihzon ko'rguzub, anvo' lutf-u ehson bila ashboh va ajnosim arosida quyosh yanglig' sarafroz va mumtozlig' yetkurdi. Va yana haddan afzun iltifot ko'rguzub, guharbor tilin mundoq javharafshonliqg'a evurdikim, jahoni bebunyodning ayvoni xarobobodida iqomat masnadin solmoq, xususan, saltanat amri xatirin zimmayi himmatga olmoqdin g'araz uldururkim, kishidin zikri jamil yodgor qolsa. Bu muddao imorat va baqi'ot bino qilmoq bila dast bermas va avlod tanosuli va tavoludiga ham shomil ermas. Magar so'z avroqida boqiy qolgaykim, ango hodisoti jahon to'fonxezligi va tasrifoti zamon fitnaangezligidin osibi va tafriqa yetushmas.*

Nazm:

*Kishi necha imorat qilsa bunyod  
Va yoki haddin afzun qo'ysa avlod,  
Tutub bo'lmas birisidin baqo ko'z,  
Qolur boqiy jahon ichra magar so'z.*

*Bas, emdi sango lozim va tahattumdururkim, bizning ismi humoyun va alqobi maymun va vaqoye'i kasirul-badoyi'imizga mushtamil bir kitobi balog'atintisob murattab qilayik. Tokim, zikri jamil va vasfi jalilimiz zamon avroqida boqiy qolg'ay va jahon ahlin*

*hayrat bahrig'a solg'ay. Chun bu iltifoti kasirul-barakot quyoshi ahvoli saodatmaoliyimg'a bir tavofkan bo'ldi. Ko'nglumga o'zga yanglig' quvvat va tab'imga haddin afzun safvat hosil bo'lub, "Al-ma'muru ma'zur" fatvosi bila mundoq amri azimdin obod imtino' ko'rguza olmadim. Lojaram, farmoni lozimu-l-imtisol ijrosig'a dalir ishtig'ol ko'rguzdim.*

Sharqda, jumladan, Turonzaminda hukmdorlarning so'zga ilohiy ne'matdek qarashlari odatiy hol. Yaxshi nom qoldirish — ular hayotining asosiy dasturi hisoblangan. Xorazm xoni Rahimqulixonning "zikri jamil" va "vasfi jalil"ini "zamon avroqida boqiy qoldirish" va "jahon ahlin hayrat bahrig'a solish"dek xayrli niyat "Zubdatu-t-tavorix" asari yaratilishining asosiy sababidir. Ma'lum bo'ladiki, Ogahiy bu memuar qissani Rahimqulixon farmoniga binoan yozishga kirishgan.

**Asarning tarkibiy tuzilishi va yondosh manbalar bilan qiyosi.** "Zubdatu-t-tavorix" ikki qismdan iborat. Muarrix qayd etganidek, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tavalludi, ilm o'rganish va harbiy mahorat egallash yo'lidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, bo'lg'usi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati sajli nasrda (nasri musajja'da) go'zal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga o'tirgan kundan vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar tasviriga bag'ishlangan.

Muallif Rahimqulixonning tavallud sanasi to'g'risida quyidagicha ma'lumot beradi: *...ul hazratning valodati lozimu-sh-sharofati jaddi buzurgvori sultoni firdavsmakon Muhammad Rahim bahodirxonning ayyomi xo'jastafarjomida sanayi hijriya ming ikki yuz yigirma to'qquzda (milodiy 1814 – N.J.), muvofiqi it yili, afzal avqotda, kamol soatda vuqu' topib, inoyati subhoni rahbarligi bila adam maskanidin vujud gulshanig'a qadamovar bo'ldi. Qadami yumnidin jahon mamoliki anvori saodatda navoyi masarrat bila to'ldi.*

Asar sajli nasrda bitilgan. Unda Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulug'lanadi, uning ko'plab ilmlarni egallaganligi, fuqaro va raoyoga shafqat va marhamat, karam va saxovat ko'rsatishda tengsiz ekanligi vasf etiladi. Xiva xonlarining ma'rifatli bo'lganligi, adabiyot va san'at, ilm-u hunar rivojiga alohida e'tibor berganliklari e'tirof etilgan va ta'kidlash kerakki, bu singari tavsiflar tarixiy haqiqatga to'liq mutanosib bo'lmasligi ham mumkin. Biroq bir narsa aniqki, bu tavsiflar zamirida Ogahiyning odil shoh haqidagi orzu-ideallari ohorli poetik tashbihlar bilan ifodalangan.

Ogahiy Xivaxoni Rahimqulixonni "shahanshohi farxundaxislat,

humoyun e'tiqod-u pok niyat" hukmdor sifatida madh etadi. Buni "Hamisha komi mulk obod qilmaq, adolatdin ulusni shod qilmaq" – xonning hayotiy a'moli ekanligi bilan izohlaydi. Bunda ham Ogahiyning odil hukmdor haqidagi orzu-umidlari kuzatiladi.

Asarda Rahimqulixonning mazlumlarga yordam ko'rsatgani haqida bir qancha tarixiy faktlar keltirilgan. Bu faktlar ham shunchaki qayd qilingan emas, yuksak fasohat bilan tasvirlangan. Masalan, hijriy 1257- (milodiy 1843) yili Rahimqulixon otasi Ollohqulixonning farmoyishi bilan Eron yurishiga o'tlanadi. Ushbu safar asnosida Xurosonning Bodi anis muzofotiga qarashli Ko'shk va Qoratepa mavzellaridayashovchi jamshidiya degan toifa aholisi Rahimqulixonga Hirot hokimi Shoh Komrondan shikoyat qiladilar. Ular shohning zulmi haddan oshgani, jamshidiya toifasining mollarini talon-toroj etib, ayollari va bolalarini qul qilib sotayotganini bildirib, xondan madad tilaydilar. Rahimqulixon Eron safarini qoldirib, jamshidiya toifasiga madad berishga qaror qiladi hamda o'n besh ming uylikdan ziyodaroq elatni Xurosondan Xorazm diyoriga ko'chirib keladi. Ogahiyning guvohlik berishicha, jamshidiya toifasi "kelturulg'ondin so'ng Qilich Niyozboy nahrining bir shu'basi kanorida Kuba tog'ining janubiy ostida ul tavoyifg'a maskan va mazori' tayin qilindi. Holo ulug' el va obodon yurt bo'lub o'lturubdurlar".

Turli tarixiy asarlarda bir-biriga zid fakt va ma'lumotlar, har xil ixtilofli fikrlar uchraydi. Ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Chunki hanuz Turkiston tarixi haqida yangi tadqiqot ila yozilgon, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg'a kelgani yo'q" [Behbudiy 1999, 178] degan fikri bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Birgina misol, Mulla Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston" asarida Rahimqulixon haqida "... uch yil hukmronlik qilib, 1261-sanayi hijriy (milodiy 1845)da vafot qildi. Otasining asrida Bobojon to'ra demak ila nomzod bo'lub, xalq orasida javr-u zulm qilmaq ila mashhur edi" deb ma'lumot beriladi [Mulla Olim Maxdum Hoji 1992, 128].

Ta'kidlash joizki, "Tarixi Turkiston" muallifi tomonidan keltirilgan dalillarning deyarli barchasi tarixiy haqiqatga zid. Vaholanki, Ogahiy Rahimqulixonning vafot yilini "tarixi hijriy ming ikki yuz oltmish ikkida yilon yili muharram ul-harom oyining o'n birida juma kuni" deb aniq ko'rsatadi. Zotan, u ushbu voqealarning jonli guvohi bo'lgan. Shuning uchun Ogahiy keltirgan fakt bu boradagi har qanday boshqa mulohazani rad etishga asos bo'la oladi. Bundan tashqari, "Zubdatu-t-tavorix"da bayon qilinishicha, Rahimqulixon emas, balki uning ukasi Muhammad Aminxon Bobojon to'ra nomi bilan mashhur bo'lgan.

Tarixga ibrat va tafakkur nazari bilan qaralsa, toj-taxt uchun kurashlar natijasida necha-necha obod manzillarning xarob bo'lgani-yu el-ulus ahvoli og'irlashgani, taraqqiyot o'z o'rnini tanazzulga bo'shatib berganligini kuzatish mumkin. Lekin mo'tabar manbalarda zikr etilishicha, Turkiston tarixida himmati shohlikdanda baland hukmdorlar ko'p bo'lgan. "Zubdatu-t-tavorix"dagi fakt va dalillar Rahimqulixonning ham xuddi shunday hukmdorlar sirasiga kirishidan dalolat beradi.

Muallifning qayd etishicha, Olloqulixon vafot etganida uning kichik o'g'li Muhammad Aminxon Xivada bo'lgan. Otasi vafot etgach, Muhammad Aminxon o'sha paytda Xazorasp hokimi bo'lgan akasi Rahimqulixonga "otasi vafotining axbori va tez kelmagining asrori uchun qosidi sarsarmisol (chopar)ni jo'natadi. Rahimqulixon o'sha kuniyuq tezlik bilan Xivaga yetib keladi. Ta'ziya marosimi ado etilgach, barcha amirlar, ulamolar, shariat peshvolari "hazrat zillullohiy" — Rahimqulixon huzuriga yig'iladilar. Undan xorazmshohlik taxtini qabul etishini so'raydilar. Shunda Rahimqulixon shohlikka rag'bati yo'qligi, bu dunyoning o'zi bevafo ekanligi, shohlikning "no'shi bir bo'lsa, nishi ming, rohati bir bo'lsa, tashvishi ming" ekanligi haqida so'zlaydi. Ogahiy buni masnaviyda quyidagicha ta'sirchan ifodalagan:

*Necha ish haq-u necha nohaq bo'lur,  
Bori hazrati Haqq'a mulhaq bo'lur.  
Barisini shahdin qililg'ay savol,  
Hamuldan ne bo'lg'ay ekan, shahga hol.  
Agar podshohga budur mojaro —  
Gado podshohdurki, oti gado.  
Muningdek ul nav' ishni ahli uqul  
Ne yanglig' malul o'lmay etgay qabul.*

Rahimqulixonidan bu so'zni eshitgan majlis ahli "Ey maloyiksifat podshoh, sening shohlikka rag'bating yo'qligini bilamiz. Sening himmating shohlikdan ham oliy ekani bizga ma'lum", deya adolat bilan hukm yuritgan saltanat sohibini Olloh taolo o'z lutfi bilan ikki olamda shoh qilishi, "zuhd ahli toat bilan rutba topsa, shoh adolat vositasida undan ham o'tishi" haqida so'zlaydilar. Ular o'z fikrlariga bir soatlik adolat bir umrlik nafl ibodatdan afzal ekanligi haqida hadisi sharifni dalil sifatida keltirib, Rahimqulixonni shohlik taxtini qabul qilishga va adolatli siyosat yuritib, Tangri taoloning roziligini topishga da'vat etadilar.

Ogahiyning qayd qilishicha, *Chun arkoni davlat va umaroyi*

ziyshavkatning illoh va mubolag‘asi had-du g‘oyatdin o‘tdi, lojaram, hazrat zillullohiy kamoli karamdin ul jamoaning royin sindurmay va siynayi iltimoslarig‘a dasti rad urmay, saltanat amri xatirin qabul etib, hamul kechakim, chahorshanba kuni erdi, namozi shom hangomi inqizo topgandin so‘ngkim, as‘ad soat va ashraf avqot erdi, saltanat avrangiga qadami muborakin yetkurub, xilofat tojin go‘shayi kulohiga urdi va xorazmshohlik niginin angushti iqtidorig‘a solib, jahonbonlig‘ zimmomin qabzayi ixtiyorig‘a oldi.

Rahimqulixon to‘g‘risidagi bu ta‘rif-u tavsiflar bugungi kitobxonga mubolag‘ali tuyulishi tabiiy. Lekin, Ogahiy ta‘rificha, “tab‘ig‘a borcha bilikni kashf qilgan, ko‘nglida Haq taolo ishqi jo‘sh urgan”, bu dunyoning foniyiligini, imtihon dunyosi ekanligini yurakdan his etgan ma‘rifatli hukmdorning xuddi shunday yo‘l tutishi minba‘d taajjublanarli emas. Zero, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asaridan olingan quyidagi iqtibos ham buni quvvatlaydi: *Chun Ollohqulixon ravohul olami baqo bo‘ldilar, ul hazrat (Rahimqulixon – N. J.) Hazoraspeda erdilar. Muhammad Amin inoq kamoli mardonaliqdin oqosig‘a noma birla xabar yubordilarkim, tez kelsunlar, otamiz vafot topdilar. O‘zi ta‘ziya umurining tajhiz va saranjomig‘a ishtig‘ol ko‘rguzdi. Rahimquli to‘ra bu xabarni eshitib, darhol otlanib, yo‘lg‘a kirib, seshanba kuni peshin vaqtida Xivaqg‘a keldilar. Muhammad Amin inoq to‘ra tamomi shahzoda va bekozodalar va arkoni davlatlar va tamomi ulamolarning ijtimoi‘ va ittifoqlari bila Rahimquli to‘rani ul majlisga chaqirib, xonlik taxtig‘a mindurdilar. Hamma muborakbodlik alolosin falak avjig‘a yetkurdilar* [Bayoniy, O‘zR FA ShI, qo‘lyozma № 9596, 312<sup>a</sup>].

Tarixni o‘rganmoqdan murod — saboq. Hazrat Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “Ne ishdin mamlakat obod, qayu ishdin ulus barbod bo‘lgan”ini tafakkur ko‘zguna ko‘rib, ibrat olingandagina murod hosil bo‘ladi. Badiiy-tarixiy asar sifatida “Zubdatu-t-tavorix”ning ahamiyati bu jihatdan ham katta. Asarda Xiva va Buxoro xonliklari o‘rtasidagi o‘zaro nizolar, qonli urushlar, ularning oqibatlarini haqidagi haqqoniy ma‘lumotlar ta‘sirchan ifodalangan. Aksar fikrlar Qur‘oni karim oyatlari va hadislar bilan dalillangan. Iymonsizlik, fosiqlik, e‘tiqodsizlikning oqibati xorlik ekani tarixiy voqelikning badiiy talqini orqali aks ettirilgan.

**Asarning adabiy manba sifatidagi qimmat.** Asarda ko‘plab nazm namunalarini keltirilgan. “Zubdatu-t-tavorix”dagi she‘riy janrlarni quyidagicha tasnif etish mumkin: qasidalar (6ta), masnaviyalar (70ta), g‘azallar (4ta), ruboiylar (7ta), qit‘alar (10ta), ta‘rixlar (4ta), fardlar (6ta). Bundan tashqari, “nazm” sarlavhasida

16ta she'r berilgan. Fardlar esa "bayt" sarlavhasi bilan kitobat etilgan. "Zubdatu-t-tavorix"dagi she'rlar jami 1176 bayt (2352 misra)ni tashkil etadi.

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy "Fununu-l-balog'a" asarida yozishicha, she'r o'n qismga bo'linadi. "Bilgilkim, — deb yozadi olim, — majmuyi shuaro istilohinda she'rning aqsomi, ulkim mo'tabardur, o'n nav' kelibtur: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji', musammat, mustazod, mutavval, fard" [Taroziy 1996, 32]. Olim ta'kidlagan she'r aqsomining o'ntasidan oltitasi mavjudligining o'ziyoq "Zubdatu-t-tavorix"ning adabiy manba sifatidagi ahamiyati nechog'lik katta ekanligini, filologik tadqiqotlar uchun boy material berishini tasdiqlaydi.

Asarda qasida janriga oid 6 she'r berilgan, ularning hajmi 227 bayt (454 misra)ni tashkil etadi. "Qasidaning aqalli yigirma yetti bo'lur yo andin o'ksukrak va aksari muayyan ermas, — deb yozadi Shayx Ahmad Taroziy. — Har necha qofiya dast bersa ayturlar va har ne maqsud bo'lsa bayong'a keltururlar" [Taroziy 1996, 32].

Shayx Taroziy qasida janriga xos to'rt xususiyatni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Birinchisi — husni matla', ya'ni qasidaning boshlanishi ma'no jihatidan mutlaqo qusursiz latif so'zlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Ikkinchisi — mamduh (maqtalguvchi)ning adl-u insofi ta'riflanishi zarur. Uchinchi — mamduhning shijoati, to'rtinchi — saxovati maqtalishi lozim. "Va bu to'rt xislatdin ortuq har nechakim sifat qilur, ixtiyor shoirg'adur" [Taroziy 1996, 33].

"Zubdatu-t-tavorix"dagi barcha qasidalar ushbu janrning turkiy she'riyat nazariyotchisi zikr etgan talablariga to'liq javob beradi. Masalan, asardagi birinchi qasidaning ibtidosi "Fununu-l-balog'a"da aytilganidek, husni matla' san'atining betakror namunasi sanaladi:

*Shahyekim, ostoni ila topmish avj isti'lo,  
Ki gardun yastonib tufroqig'a bir hovush adno [387<sup>a</sup>].*

"Husni matla'"ni "husni ibtido" deb atagan Atoulloh Husayniyning yozishicha: *Ul andog'durkim, kalom boshinda nozikligu ravnollikta va alarning ziddi bo'lmish qattiqlig'u matonatta bir-biriga yaqin bo'lg'an xush-u latif lafzlarin pokiza, yoqimlig', mustahkam ibora tuzarlarkim, ma'no adosinda mutlaqan qusur bo'lmag'ay va tuzuk zehn andin maqsudg'a bot o'ta olg'ay, lafz-u ma'no orasinda munosabat rioya qilg'aylar, yaxshi ma'noni yengil alfoz bila yo aksincha ado qilmag'aylar, dag'i baytning ikki misrai yo nasrning ikki*

*bo'lagi orasinda munosabat rioya qilg'aylarkim, latofatu balog'atta bir-biriga yaqin bo'lg'ay, biri a'lo-yu ikkshchisi adno bo'lmag'ay, ma'noning sog'lom bo'lmag'ig'a sa'y qilg'aylarkim, kelishmagan, qaroma-qarshi, yaramas, urfqa xilof va hokazo nimalardin sog'lam bo'lg'ay...* [Husayniy 1981, 250-251].

Mazkur qasida matla'si ushbu nazariy qoidalarga har jihatdan muvofiq keladi. Taroziy ta'kidlagan ikkinchi xususiyat — mamduhning adl-u insofi vasf etilgan misralar ham Ogahiy qasidasida mavjud:

*Inod ahlig'a qahr, aftodalarg'a lutf ko'rguzsa,  
Falak bo'lg'ay zamingir-u zamin bo'lg'ay falakfarso.  
Bahori adli andoq fayz yetkurdi jahon ichra,  
Ki bo'ldi arsayi olam ulusg'a jannatu-l-ma'vo.  
Tutub ovozayi adliki yetti aflok ayvonin,  
Malak taslimgo'y-u ham duogo'ydur hazrati Iso [387<sup>ab</sup>].*

Uchinchisi – mazkur qasidada mamduhning shijoati ham teran ma'no va betakror badiiyat bilan ta'riflangan:

*Oning zoti humoyunini kilki kotibi qudrat  
Yozib sohibqironlig' daftari unvonida tug'ro.  
Zihi sohibqironikim, qiron xasm ahlig'a solib,  
Sipohi qahri yetkurdi zalolat mulkiga yag'mo [387<sup>b</sup>].*

To'rtinchi — qasidada xonning saxovati ham fasohat va balog'at bilan vasf etiladi. Qasidaning quyidagi misralari ham bu fikrni tasdiqlaydi:

*Xaloyiq naqd ehsonidin oldi komin andoqkim  
Gadoyi benavo ahli g'anog'a qildi istig'no.  
Ato-vu baxshishining xonidin mahzuz o'lub doim,  
Duoyi davlatig'a ochdi til ham pir-u ham barno [387<sup>b</sup>].*

Xonning mazkur to'rt fazilatini tavsiflash barobarida, Ogahiy mamduhning ilm-u fazilat bobida kamolga erishganini, "har fan ichra davron aro mumtoz-u mustasno" darajasiga erishganini quyidagicha ta'riflaydi:

*Kamoli borcha ilm-u fazl aro ul yerga yetmishdur,  
Ki har fan ichradur davron aro mumtoz-u mustasno [387<sup>b</sup>].*  
Rahimqulixonning Xiva taxtiga kelishi tasodifiy emasligi,



uning ajdodlari “xorazmshohlik niginin angushti iqtidorlarida tutub kelgan”i ham qasidada alohida zikr etilgan: “Na tanho dahr favqida hasab birla nasabda ham, Sarosar xon-u xoqondur anga ajdod ila obo” [387<sup>b</sup>].

Qasida aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan, ruknlari quyidagicha:

*Janobi tuf / roqig‘a qo‘y / di boshin, bu / sharafdindur,  
Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun  
V --- V --- V --- V ---*

*Bukim anjum / shahi charx uz / ra topmish po / yai a‘lo  
Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun  
V --- V --- V --- V ---*

“Zubdatu-t-tavorix”da ta’rix janriga oid to’rtta she’r berilgan bo’lib, an’anaga ko’ra barchasi fors-tojik tilida. Ta’rixga doir nazariy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, bu janr namunalari ikki usulda yoziladi: sarih va ta’miya. “Sarih” — ochiq, ravshan mazmunini bildirib, bu usulda bitilgan ta’rixlarda ko’zda tutilgan sana ochiq ifoda qilinadi. “Ta’miya” istilohi esa arabcha “a’mo” so’zidan olingan bo’lib, “berkitilgan, yashirilgan” demakdir. Asarda turli munosabat bilan keltirilgan to’rtala ta’rix ta’miya usulida ijod etilgan.

Ta’rixlardan dastlabkisi Xiva hukmdori Ollohqulixon farmoniga ko’ra shahzoda Rahimqulixonning harbiy yurishga otlanishi munosabati bilan yozilgan. Ushbu janrning betakror namunasi bo’lgan bu ta’rix Ogahiyning she’riyatdagi martabasi nechog’lik baland bo’lganiga yana bir dalildir. Ta’rixning ko’zda tutilgan sana berkitilgan so’nggi misralari quyidagicha:

*Soli ta’rixi in azimatro,  
Ogahiy just on xo‘jastashiyam.  
Vey chu bigzashta az sari ihmol,  
Azmi nusrat nishon namud raqam [394<sup>a</sup>].*

Muallif so’zlar zamiriga yashirgan sanani aniqlash uchun ta’rix moddasini topish talab etiladi. Ta’rix moddasi عزم نصرت نشان (“Azmi nusrat nishon”) jumlasiga berkitilgan. Abjad hisobiga ko’ra عزم نصرت نشان jumlasidagi ع “ayn” — 70, ز “ze” — 7, م “mim” — 40, ن “nun” — 50, ص “sod” — 90, ر “ro” — 200, ت “te” — 400, ن “nun” — 50, ش “shin” — 300, ا “alif” — 1, ن “nun” — 50 ga teng. Ma’lum

bo'ladiki, عزم نصرت نشان jumlasidagi harflarning abjad hisobidagi yig'indisi, "jumal"i — 1258. Ta'rix nihoyasidagi *Chun bu ta'rix adadda bir ziyoda erdi. Ta'miya ilmi bilan isqot qilildi* so'zlari asosida va *"Ihmol"ning «Sari»*, ya'ni boshlanishi "alif" abjad hisobi bo'yicha "1" ga teng ekanligi hisobga olinsa, 1258dan 1ni ayiramiz, hosil bo'lgan 1257 hijriy yil hisobi bo'yicha ushbu ta'rixda ko'zda tutilgan sanani anglatadi. Sinxron jadvalga ko'ra, hijriy 1257 sana milodiy 1841 yilga to'g'ri keladi.

"Zubdatu-t-tavorix"da keltirilgan ikkinchi ta'rix Xiva xoni Ollohqulixonning vafoti hamda uning o'rniga shahzoda Rahimqulixonning xon ko'tarilishi voqeasiga bag'ishlangan. Ushbu ta'rixda muallif so'zlar zamiriga berkitgan sana - ta'rix moddasi she'rning maqta'sida ifodalangan:

*Guftam zi sari adab guzashta,  
Mah raftau, oftob omad [400<sup>a</sup>].*

Ta'rix moddasi مه رفتہ افتاب امد ("Mah raftau oftob omad") so'zlari zamiriga yashiringan. Endi bu harflarning abjad hisobiga ko'ra qaysi raqamlarga to'g'ri kelishini aniqlaymiz: م "mim" — 40, ه "ho" — 5, ر "ro" — 200, ف "fa" — 80, ت "te" — 400, ه "ho" — 5, آ "alif" — 1, ف "fa" — 80, ت "te" — 400, ا "alif" — 1, ب "be" — 2, آ "alif" — 1, م "mim" — 40, د "dol" — 4. Ma'lum bo'ladiki, bu jumladagi harflarning abjad hisobiga ko'ra yig'indisi - 1259. Asarda muallif ta'rix matnidan so'ng keltirgan "Chun bu ta'rix adadi bir ziyoda erdi, ta'miya ilmi bilan isqot qilildi, ondoqkim, "Zi sari adab guzashta" iboratidin ma'lum bo'lur" izohiga ko'ra hamda "adab"ning "sari" — bosh harfi "alif" 1ga teng ekanligi hisobga olinsa, ishoraga binoan 1259 dan 1ni ayirish kerak bo'ladi. Natijada Ollohqulixonning vafoti va Rahimqulixonning xorazmshohlik taxtiga o'tirgan sana kelib chiqadi. Bu hijriy 1258, milodiy 1842/1843 yillardir. Ilmi bade' ustoz Atoulloh Husayniy "Ta'rixning husni lafzning muvofiqligi bila bo'lur", degani e'tiborga olinsa, aynan dunyodan ketish ma'nosidagi "rafta" so'zining qo'llanishi Ogahiy ta'rixining janr talabiga har jihatdan muvofiq ekanini ko'rsatadi.

"Zubdatu-t-tavorix", ta'kidlanganidek, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan. Asardagi voqea-hodisalar tasviri xoh nasrda, xoh nazmda bo'lsin, muallifning nuqtadonligi, yuksak fasohat sohibi ekanligi yaqqol seziladi. Asarda sifatlash, istiora, tashbih, mubolag'a, perifraza, takror singari badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanilgani, sajning deyarli barcha mashhur turlaridan (saj'i

mutarraf, saj'i mutavozin, saj'i mutavoziy) istifoda etilgani ham buning isbotidir.

Ogahiyning nasrda saj' qo'llash mahoratini quyidagi birgina misol tahlilida yaqqol ko'rish mymkin: "Ziyofat lavozimining inti hos i va aklu shurb marosimining inqizosidin so'ng hazrat xon mag'fur va hazrat zillullohiy savlati tamom va umaroyi sohib ehtirom bila otlanib, otchopar tamoshosig'a chiqtilar va qir ustida devnajod va sarsarnihod otlarni yorishturub, rustamquvvat va filhaybat pahlavonlarni kurash tutdurub, oti o'tgan sayislarni va harifin yiqitgan pahlavonlarni bayroq va jald u uchun xazinayi ehsondin nuqudi farovon in'om qilub, dunyodin mustag'niy etdilar". Ushbu iqtibosda yetti saj'lanuvchi qism majud: lavozim — marosim, intiho — inqizo, tamom — sohibehtirom, devnajod — sarsarnihod, rustamquvvat — filhaybat, ehson — farovon, chiqdilar — etdilar. Ularning birinchi va ikkinchi saj'lanuvchilari mutavoziy (ham vazn, ham qofiyada moslashuvchi); uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va oltinchisi mutarraf (vaznda moslashmagan), yettinchisi esa mutavozindir (vaznda mos, qofiyada moslashmagan).

Saj' hosil qiluvchi so'zlar "fosila" deb ataladi. Har bir fosila o'zidan oldingi so'zlar birikmasi bilan saj'ning bir bo'lagini tashkil qiladi va "qarina" deb yuritiladi. Ogahiy nasrida saj'ning yuqorida bayon etilgan barcha shakliy sifatlarini ko'rish bilan birga, saj'lanuvchilarning o'ziga xos joylashuv o'rnini ham kuzatish mumkin. Yuqoridagi jumlada *lavozimi* fosilasidan oldingi qarina bir so'zdan iborat bo'lsa, unga saj'lanuvchi *marosimi* fosilasidan oldin to'rt so'z qo'llangan. Ba'zi saj'doshlar orasida esa qarina majud emas. Umuman, Ogahiy nasrida qo'llangan saj' ko'p jihati bilan mumtoz she'riyatga xos tarse' san'atini eslatadi.

"Zubdatu-t-tavorix" da tabiat tasviri bilan jamiyatdagi voqyelik o'zaro uyg'un va mutanosib tasvirlanadi. Jumladan, Ogahiy birgina quyosh chiqish holatini asarning turli o'rinlarida turlicha, har safar bayon etilayotgan hodisaga muvofiq tarzda ifoda etadi. Masalan, bir joyda quyosh chiqish holatini "...oftobi jahontobning shahsuvori tezraftori mashriq marhalasidan chiqib, falak maydonining qat'ig'a javlon ko'rguzdi" tarzida tasvirlasa, boshqa bir o'rinda "quyosh xoqoni mashriq shabistonidin chiqib, falak maydonig'a nur yakronin surdi" shaklida, yana bir holatda esa "xurshidi jahontob jamshidi mashriq ishratxonasidin chiqib, falak saydgohi sori ravona bo'ldi" deya, har bir o'rinda "quyosh" so'ziga hikoya qilinmoqchi bo'lgan voqeaga mos, tamoman yangicha, ohorli ma'no yuklaydi. Binobarin, birinchi tasvirda Rahimqulixonning harbiy yurishga

otlangani to'g'risida so'zlanib, quyoshning chiqish holati ham *falak maydonining qat'iga javlon ko'rguzdi* tarzida shunga uyg'unlik kasb etadi. Ikkinchi tasvir *quyosh xoqoni mashriq shabistonidin chiqib, falak maydonig'a nur yakronin surdi* shaklida xon lashkarining fasod ahli ustiga yurish qilishi holatiga mutanosib bo'lsa, uchinchi tasvir xonning o'z a'yonlari bilan ovga jo'nayotgan holatiga mos (*xurshidi jahontob jamshidi mashriq ishratxonasidin chiqib, falak saydgohi sori ravona bo'ldi*).

Shu birgina misolning o'ziyoq ko'rsatib turibdiki, asarda tabiat tasviri bilan voqealar mohiyati ajib bir uyg'unlik kasb etgan va bu mutanosiblik ifodaning jozibadorligini, ta'sirchanligini oshirgan.

Asarning yana muhim bir jihati shundaki, undan Ogahiyning ayrim she'rlari yozilishi tarixi ham bayon etilgan. Jumladan,

*Iloho, to jahon-u onda to ahli jahon o'lg'ay,  
Jahon farmondehi shahzodayi oliymakon o'lg'ay* [394<sup>b</sup>].

matla'li g'azalning yozilish tarixi shahzoda Rahimqulixonning harbiy yurishi bilan bog'liq. Bu haqda muallif bunday yozadi: *Va hamul kun faqir duo tariqasi bila bir g'azal va hamul safar uchun bir ta'rix nazm silkig'a chekib, hazrati zillullohiyning suhbat kimyoxosiyatig'a daxil bo'lub, arzg'a yetkurdim va inoyoti podshohonag'a maxsus va in'omoti bekaronadin mahzuz bo'ldum. Va ul g'azal budururkim, mastur bo'lur* [394<sup>b</sup>].

"Zubdatu-t-tavorix" Xiva xonlarining ilm-ma'rifat ahliga bo'lgan munosabatlarini o'rganish yuzasidan ham qimmatli manba. Masalan, asarda yana boshqa bir g'azalning yaratilish tarixi bilan bog'liq e'tiborga molik mulohazalar bayon etilgan. Ogahiyning yozishicha, Rahimqulixon "...aksar avqot ulamo va fuzalo va shuaro va zurafo bila hamsuhbat bo'lub, ul jamoani bag'oyat aziz va arjumand tutar erdi va xoni ehsonidin mahzuz va bahramand etar erdi. Va agar shuaroyi zamondin har kim bir qasida va yo bir g'azal va yo bir ruboiy o'z qudratig'a loyiq nazm silkig'a chekib, oning nazari anvori peshgohig'a yetkursa erdi, iltifot yuzidini tahsin va ofarin bila bashoshati tamom va masarrati molokalom marosimin zuhurg'a yetkurur erdi. Va oning silasig'a xazonayi ahsonidin nuqudi farovon in'om qilib, har nekim komi ersa, berur erdi" [389<sup>b</sup>].

Tabiiyki, so'z ahliga bo'lgan bunday ehtirom XIX asr Xorazm adabiy muhitining yuksalishida alohida o'rin tutdi. Qolaversa, Ogahiy asarlari yozilishida ham ushbu muhitning o'ziga xos ta'siri bor. Bu haqda "Zubdat ut- tavorix"da yana quyidagilarni o'qish

mumkin: *Ul jamoadin faqirkim, aksar avqot ul hazratning majlisi sharifi mulozamatig'a yetib, tab'im natoyijidin har turluk qasida va g'azal va ruboiy... jilvagar bo'lsa erdi, raqam zevari bila orasta kilib, nazari saodatasar mutolaasig'a yetkurur erdimkim, o'zgalardin ortuqroq iltifot va in'omot bila sarafroz bo'lub, fuzalo va shuaro orasida mumtozlig' topar erdim. Xususan, ul ovoni saodatnishonda ul hazrat midhatida bir g'azal va bir ruboiyning rango-rang gullarin xayol sarpanjasi bila maoniy gulshanidin terib, majlisi humoyuni bihishtnamunig'a tuhfa chekib, avotifi maxsusadin bahramand bo'lub, taxta-taxta choy, shabra-shabra qandolat in'omi bila shirinkomlig' topar erdim. Ul g'azal budururkim, bu mavrida tahrir topar [390<sup>a</sup>].*

Shu tariqa

*Ul sarvari zamonki, buyukdur maqom ango,  
Gardun qadi xam o'ldi qilib ehtirom ango —*

matla'li g'azalning yaratilish tarixi haqida mufassal ma'lumot berilgan.

Ilmiy tahlil natijalari, jumladan, asardagi nasriy matnning saj' asosiga qurilgani, umumsujetdan g'azal, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, ta'rix, fard singari janrlarga mansub she'rlar o'rin olgani, aksar nazm namunalarining yozilish tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar berilgani kabi xususiyatlar "Zubdatu-t-tavorix"ning adabiy qimmatini baland ekanini ko'rsatadi.

**Yondosh fan sohalariga doir ma'lumotlar.** "Zubdatu-t-tavorix" nafaqat adabiy manba, asardan Markaziy Osiyo geografiyasi, toponimiyasi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Masalan, Kesik deb nomlangan joy haqida ijodkor bunday yozadi: *Kesik bir shu'baedurur, daryoi Jayhun shu'batidinkim, ko'hna Kotning sharqiy jonibidan daryodin ayrilib, g'arbiga o'tgandin so'ng yana daryog'a quyor va andin ko'b mazraalar suv ichadurur [407<sup>b</sup>].*

Hazrat Vaysul-Qaraniy va Shayx Jalil ota kabi avliyullohlarning qadamgohlari bo'lgan Bodoy beshasi haqida Ogahiy quyidagicha ma'lumot beradi: *Bodoy bir beshaedururki, bag'oyat qalin va ziyoda vasi'durur. Hazrati qutbu-l-aqtob, afzalu-l-as'hob, zubdatu-l-komilin, umdatu-l-vosilin Vaysu-l-Qaraniy roziyallohu anhu va hazrati haqiqatpanoh, hidoyatdastgoh Shayx Jalil ota qaddasa sirrahuning qadamgohlari dog'i tog' bila daryo o'rtasida voqi'durur va kun chiqari Uyg'ur yeri va Andriy Chungulig'a yovuqdurur va kun botari haddi Qisnoqdurur [408<sup>a</sup>].*

Adibning so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, asarda endi boshqa bir

manzil — Qisnoq haqida so‘z yuritiladi: *Qisnoq andoq yerdururkim, hazrat Shayx Jalil tog‘i bila daryo yondashib, oralig‘ida bir tor so‘qmoq qolibdurur va suv tug‘yon qilg‘on vaqtlarda ondin mashaqqati tamom va su‘ubati molokalom bila murur qilurlar. Bu jihatdin ul mavzeni Qisnoq derlar... Onda shikori anvo‘iy va sibo‘i asnofiy ko‘b bo‘lur* [408<sup>a</sup>].

Ma‘lum bo‘ladiki, Ogahiy bu joyning toponimiyasi — nima uchun Qisnoq deb atalishi haqida ham qimmatli ma‘lumotni keltirgan. Ov uchun juda qulay bo‘lgan, go‘zal tabiatli bu manzil muarrix-shoir ruhiyatiga kuchli ta‘sir qiladi. Quyidagi masnaviyning ijod etilishi ana shu ta‘sir lanish samarasi, deyish mumkin:

*Ajab beshaki, yo‘q had-du kanori,  
Sibo‘-u jonvorlarning makoni.  
Shajarlar onda bosh chekmish samog‘a,  
Borib ham reshasi taht as-sarog‘a.  
Qolinlig‘din bo‘lub bir-birga mahkam,  
Arosidin o‘ta olmas sabo ham...  
Muayyan ba‘zi yerda marg‘zori,  
Ko‘ngullarda havosi xor-xori.  
Shikor asnofi onda beshumora,  
Qolur hayron kishi qilg‘och nazora* [408].

Bu kabi ma‘lumotlar “Zubdatu-t-tavorix”ning Markaziy Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va toponimiyasiga doir muhim faktlarga boy manba ekanligidan dalolat beradi.

### **Xulosa**

“Zubdatu-t-tavorix” qo‘lyozma manbalarining qiyosiy tahlili Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida T.N.S./22 raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmaning Ogahiy qo‘li bilan ko‘chirilgan dasxat nusxa ekanligini tasdiqlaydi. Asarning undan keyingi eng mo‘tabar manbasi O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 821-raqamli qo‘lyozmadir. Ushbu manbaning dasxat nusxadan ko‘chirilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Garchi sharqshunos Hilola Nazirova tomonidan asarning ilmiy-tanqidiy matni tayyorlangan bo‘lsa-da, “Zubdatu-t-tavorix”ni adabiy va tarixiy manba sifatida mufassal o‘rganish masalasi hanzu kun tartibida turibdi.

Sajli nasrda bitilgani, qasida, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit‘a, ta‘rix, fard singari yetti janrga mansub qariyb 1200 bayt she‘riy matn o‘rin olgani, ishonchli tarixiy ma‘lumotlar yuksak badiiyat bilan

tasvirlangani asarning adabiy manba sifatidagi qimmatini baland ekanligidan dalolat beradi. “Zubdatu-t-tavorix”da muallif ijodiy uslubi, nazm namunalari va asarning yaxlit poetik xususiyatlari, she’riy matnlarning janrlar kesimidagi tahlili hamda asar umumsujetidagi o’rni, matndagi Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflarning asar kompozitsiyasida va muallif ijodiy niyati talqinida tutgan mavqeyi kabi ilmiy muammolar tadqiqi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Bundan tashqari, asarning tarixiy manba sifatidagi qimmatini alohida tadqiqotlarga mavzu bo’la oladi. Ta’kidlash kerakki, “Zubdatu-t-tavorix”ning yondosh manbalar hamda Xiva xonligi tarixiga doir boshqa mualliflar asarlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ushbu maqola yosh matnshunos va adabiyotshunoslarni Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” asari bo’yicha kelajakda olib boriladigan ilmiy izlanishlarga undashidan umidvormiz. Mo’jaz tadqiqotimizda asar adabiy-badiiy va tarixiy qimmatining eng muhim qirralari haqida fikr bildirildi, xolos. Asar tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan maxsus o’rganilishi, mazkur fan sohalarining ilmiy muammolari kechimida chuqur tadqiq qilinishi galdagi vazifalardandir.

### **Adabiyotlar**

- Абдуллаев, Воҳид. 1967. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Агахи, Мухаммад Риза Мираб. 2016. *Зубдат ал-таворих (Научно-критический текст, введение и примечание составлены Хилолой Назировой)*. Ташкент-Самарканд.
- Баёний, Муҳаммад Юсуф. *Шажараи Хоразмшоҳий*. ЎЗРФАШИ, қўлёзма, № 9596.
- Бартольд, Васили. 1927. *История культурной жизни Туркестана*. Ленинград: Изд-во Академии наук СССР.
- Беҳбудий, Маҳмудхўжа. 1999. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Edward, Allworth. 1964. “Uzbek literary politics”. *Publications in Near and Middle East studies, Columbia University, Series A: 366* <https://doi.org/10.1017/S0041977X00061115>
- Жумахўжа, Нусратулла, Адизова, Иқболой. 1995. *Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдир*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Йўлдошев, Муҳаммаджон. 1959. *Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Каримов, Фулом, Долимов, Субутой. 1978. *Огаҳий – тарихчи / Огаҳий*.

- Асарлар. VI жилдлик, V ж. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Комилов, Нажмиддин. 1999. *Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати*. Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон (Огаҳий ҳақида мақолалар). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Н. Жабборов, 37 – 48. Тошкент: Халқ мероси.
- Мулла Олим, Маҳдум Ҳожи. 1992. *Тарихи Туркистон*. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳ муаллифлари Н. Абдулҳаким, Т. Алимардонов. Қарши: Насаф.
- Муниров, Қавомиддин. 1959. *Огаҳий. Илмий ва адабий фаолияти*. Тошкент: ЎзФА нашриёти.
- Муниров, Қавомиддин. 1969. *Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари*. Тошкент: Фан.
- Муниров, Қавомиддин. 2002. *Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари)*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Назирова, Хилола. 2016. *Введение. Зубдат ал-таворих* (Научно-критический текст, введение и примечание), 37-69. Ташкент-Самарканд.
- Ғанихўжаев, Фатхулла. 1986. *Огаҳий асарлари тавсифи (каталог)*. Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти.
- Огаҳий, Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли. 1978. *Асарлар. VI жилдлик. V жилд*. 173-201. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Огаҳий, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли. 2009. *Зубдату-т-таворих* (Нашрга тайёрловчи, тадқиқот, луғат, илмий изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов). Тошкент: Ўзбекистон.
- Очерки по истории Средней Азии*. 1951. Под ред. А. К. Боровкова. Москва: Издательство Восточной литературы.
- Султонова, Қумрихон. 2000. *Огаҳийнинг "Гулшани давлат" асари адабий манба сифатида*. Фил.фан.номз. дисс... Тошкент.
- Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худойдод. 1996. *Фунуну-л-балоға*. Тошкент: Хазина.
- Толстов, Сергей. 1948. *Древний Хорезм*. Москва: МГУ.
- Толстов, Сергей. 1948. *По следам древнехорезмской цивилизации*. Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР.
- Шодмонов, Нафас. 2009. *"Шоҳиду-л-иқбол"нинг ўзбек бадиий-тарихий насли тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи*. Фил.фан.док-ри дисс... Тошкент.
- Ғуломов, Яхё. 1959. *Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача)*. Тошкент: Фан.
- Ҳусайний, Атоуллоҳ. 1981. *Бадойиъу-с-санойиъ*. Алибек Рустамий таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат.



**N. Jabborov**

*(Tashkent, Uzbekistan)*

jabborov\_n@navoiy-uni.uz

## **The Manuscripts Of Ogahiy's Work Titled "Zubdatu-t- Tavarikh" And Its Value In The Capacity Of A Literary Source**

### **Abstract**

The article is devoted to the study of the book "Zubdatu-t-tavorih" by a bright representative of classical Uzbek literature Muhammad Rizo Ogahiy. As result of a comparative analysis of five copies of "Zubdatu-t-tavorih" kept at Saint-Petersburg department of Oriental studies institute of Academy of Sciences of Russia, State library named after S. Shedrin, Oriental studies institute named after Abu Rayhan Beruniy of the Academy of Sciences of Uzbekistan, it was found out that the copy number 821 kept at the treasury of Oriental studies institute named after Abu Rayhan Beruniy of the Academy of Sciences of Uzbekistan is the best among all aforementioned copies of the manuscript.

The article covers the history of the creation of "Zubdatu-t-tavorih" .On the basis of comparative analyzing this book with "Tarihi Turkiston" (History of Turkistan) it was proven that "Zubdatu-t-tavorih" is a reliable source on the history of Khiva khanate.

The analysis of the samples of verses from the book was used to ground that "Zubdatu-t-tavorih" was a literary source. For example it contains such samples of poetic genres as qasida (odes) (6), masnaviys (70), ghazels (4), rubayis (7), qit'as (10), ta'rix (4), fard (6) . Totally the book consists of 1176 verses (2352 lines) of poetic text. Most significant of them were analyzed.

Poetic skills of the author of "Zubdatu-t-tavorih" was demonstrated through the analysis of qasidas and ta'rix. The analysis of the samples of the abovementioned genres, their poetics and rhythmic properties were relied on theoretical ideas put forward in "Funun-ul-balogha" by Shekh Ahmad Tarozi.

At the conclusion part of the article, the author was able to prove that this book is a source of rare information on such sciences as history, ethnography, toponomy, and others.

**Keywords:** *literary source, manuscript, artistic-historic prose, poetry, genre, ode, poetic meter, artistics, comparative analysis, artistic skills.*

**About the author:** *Nurboy Jabborov* – Doctor of Sciences in Phology, Professor, Tashkent State university of Uzbek Language and Literature named

after Alisher Navoi.

**Recommended citation:** Jabborov, Nurboy. 2019. “Ogahiy “Zubdatu-t-tavorix” asarining qo‘lyozmalari va adabiy manba sifatidagi qimmatini”. *Oltin bitiglar* 3: 3—26.

### References

- Abdullaev, Vohid. 1967. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi.
- Agaxi, Muxammad Riza Mirab. 2016. *Zubdat al-tavorix (Nauchno-kriticheskiy tekst, vvedenie i primechanie sostavleni Xiloloy Nazirovoy)*. Tashkent-Samarkand.
- Bayoniy, Muhammad Yusuf. *Shajarai Xorazmshohiy*. O‘zRFASHI, qo‘lyozma, № 9596.
- Bartold, Vasili. 1927. *Istoriya kulturnoy jizni Turkestana*. Leningrad: Izd-vo Akademii nauk SSSR.
- Behbudiy, Mahmudxo‘ja. 1999. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma’naviyat.
- Edward, Allworth. 1964. “Uzbek literary politics”. *Publications in Near and Middle East studies, Columbia University, Series A: 366* <https://doi.org/10.1017/S0041977X00061115>
- Jumaxo‘ja, Nusratulla, Adizova, Iqboloy. 1995. *So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdir*. Toshkent: O‘zbekiston.
- Yo‘ldoshev, Muhammadjon. 1959. *Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi*. Toshkent: O‘zdavnashr.
- Karimov, G‘ulom, Dolimov, Subutoy. 1978. *Ogahiy – tarixchi / Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, V j.* Toshkent: Adabiyot va san‘at.
- Komilov, Najmiddin. 1999. *Ogahiyning tarjimonlik mahorati*. Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon (Ogahiy haqida maqolalar). To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi N. Jabborov, 37 – 48. Toshkent: Xalq merosi.
- Mulla Olim, Mahdum Hoji. 1992. *Tarixi Turkiston*. Nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi va izoh mualliflari N. Abdulhakim, T. Alimardonov. Qarshi: Nasaf.
- Munirov, Qavomiddin. 1959. *Ogahiy. Ilmiy va adabiy faoliyati*. Toshkent: O‘zFA nashriyoti.
- Munirov, Qavomiddin. 1969. *Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari*. Toshkent: Fan.
- Munirov, Qavomiddin. 2002. *Xorazmda tarixnavislik (XVII – XIX va XX asr boshlari)*. Toshkent: Adabiyot va san‘at.
- Nazirova, Xilola. 2016. *Vvedenie. Zubdat al-tavorix (Nauchno-kriticheskiy tekst, vvedenie i primechanie)*, 37-69. Tashkent-Samarkand.
- G‘anixo‘jaev, Fathulla. 1986. *Ogahiy asarlari tavsifi (katalog)*. Toshkent: O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti.
- Ogahiy, Muhammad Rizo mirob Erniyozbek o‘g‘li. 1978. *Asarlar. VI jildlik. V jild*. 173-201. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at

nashriyoti.

- Ogahiy, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li. 2009. *Zubdatu-t-tavorix* (Nashrga tayyorlovchi, tadqiqot, lug'at, ilmiy izoh va ko'rsatkichlar muallifi N.Jabborov). Toshkent: O'zbekiston.
- Ocherki po istorii Sredney Azii*. 1951. Pod red. A. K. Borovkova. Moskva: Izdatelstvo Vostochnoy literaturi.
- Sultonova, Qumrixon. 2000. *Ogahiyning "Gulshani davlat" asari adabiy manba sifatida*. Fil.fan.nomz. diss... . Toshkent.
- Taroziy, Shayx Ahmad ibn Xudoydod. 1996. *Fununu-l-balog'a*. Toshkent: Xazina.
- Tolstov, Sergey. 1948. *Drevniy Xorezm*. Moskva: MGU.
- Tolstov, Sergey. 1948. *Po sledam drevnexorezmskoy sivilizatsii*. Moskva-Leningrad: Izd-vo AN SSSR.
- Shodmonov, Nafas. 2009. *"Shohidu-l-iqbol"ning o'zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyotidagi o'rni, manbalari va matniy tadqiqi*. Fil.fan.dok-ri diss... Toshkent.
- G'ulomov, Yahyo. 1959. *Xorazmning sug'orilish tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgacha)*. Toshkent: Fan.
- Husayniy, Atoullloh. 1981. *Badoyi'u-s-sanoyi'*. Alibek Rustamiy tarjimas. Toshkent: Adabiyot va san'at.

**S. Madirimova**

*(Toshkent, O'zbekiston)*

madirimova@navoiy-uni.uz

## **Mutrib Xonaxarobiy asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi**

### **Abstrakt**

Maqolada XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida yashab ijod etgan zullisonayn shoir — Muhammad Hasan Mutrib va uning lirik merosi manbalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, shoirning bizgacha yetib kelgan merosi haqidagi ma'lumotlar jamlanib, ular matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Manbalar qiyosiy o'rganilib, mulohazalar ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Asosiy e'tibor "Devoni Mutrib Xonaxarob" qo'lyozmalarining o'rganilishi va bu devon qo'lyozmalarining o'xshash va farqli jihatlariga qaratilgan. Turli manbalar — devonlar, bayozlar, tazkiralardagi shoir biografiyasi va merosiga oid ma'lumotlar tavsif etilgan. Shoirning o'z devonida uchramaydigan lirik asarlari turli qo'lyozma bayoz, tazkira, toshbosma manbalar, shuningdek, vaqtli matbuot nashrlari tadqiqi asosida aniqlanib, ular haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Mutrib devonlarining qo'lyozma manbalari devon tuzish an'alariga muvofiq tavsiflangan. Devonning tuzilishi, tarkibi, saqlanish holati, hajmi kabi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Devonlarga kiritilmagan yangi g'azallar bayoz, tazkira kabi manbalardan tanilgan.

Manbalarni tasniflash uchun Respublikamizdagi turli qo'lyozma fondlar, muzeylardagi qo'lyozmalar jalb etildi. Jumladan, Xiva Ichan qal'a muzeyi, O'zbekiston fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Hamid Sulaymon hamda asosiy fondlarda saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma nusxalar, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan vaqtli matbuot materiallaridan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** *qo'lyozma, manba, matn, tadqiq, inventar raqam, tayanch manba, yordamchi manbalar.*

**Muallif haqida:** *Sohiba Madrimova* — doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Tavsiya etiladigan havola:** Madirimova, Sohiba. 2019. “Mutrib Xonaxarobiy asarlari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi”. *Oltin bitiglar* 3: 27—59.

## **Kirish**

Xonliklar davrida yuzaga kelgan adabiy muhit Xorazm xonligida ham o‘ziga xos tarzda davom etdi. Bu jarayon, ayniqsa, Muhammad Rahimxon Feruz davrida yangi qiyofa kasb etib, mavzu, mazmun, janr va shakl jihatidan rivojlandi. O‘zbek adabiyoti tarixida xonliklar davrida yashab faoliyat yuritgan Tabibiy, Bayoniy, Avaz O‘tar, Chokar kabi ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosi haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq qariyb yarim asr muqaddam bajarilgan birgina nomzodlik dissertatsiyasini istisno qilganda, sermahsul ijodi bilan mazkur adabiy muhitda o‘ziga xos o‘rin tutgan zullisonayn shoir — Muhammad Hasan Mutrib lirik merosiyetarlicha tadqiq etilgan emas. Shoirning bizgacha yetib kelgan katta hajmdagi mukammal devoni va ikkita kichik devoni matnshunoslik aspektida o‘rganilishi hanuz kun tartibida turibdi.

Mutrib Xonaxarobiy — Muhammad Hasan devon Hoji Tabib o‘g‘li 1853-yili Xiva shahrining tashqari qal‘asida, ya‘ni Qalli Oqsoqol qavmida tug‘ilgan [Laffasiy №9494, 138]. U ilk ta‘limni otasidan olib, keyinchalik Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida tahsil oladi. Forsiy va turkiy tillarni mukammal o‘rganib, maqomchi bastakor sifatida taniladi. Feruz bu yosh iste‘dod sohibini saroyga jalb etib, devonbegi lavozimiga tayinlaydi. Shoh farmoniga binoan u forsiy va turkiy tillarda ishqiy va hajviy g‘azallar yoza boshlaydi. Bobojon Tarroh uning tanbur sozini maromida chala oladigan yuqori iste‘dod sohibi ekanligini, olti yarim notani yoddan bilishi, yetti turli ilmda, ya‘ni, shoirlik, sozandalik, kotiblik, tabiblik, forsiy va arab tillarini bilishda hamda so‘z bobida hech bir kishidan yengilmasligini aytib o‘tadi [Bobojon Tarroh 2011, 136–140].

Laffasiy o‘z tazkirasida Mutribga “Xonaxarob” taxallusining qo‘yilishi haqida quyidagi ma‘lumotlarni yozib qoldirgan: “... Biror mahrum va yosh vazirlarni qattiq tanqid-u hajv etib, xon huzurida ul hajv-u g‘azallarni mazkur tanqid qiling‘on shaxsni dag‘i o‘lturg‘uzub,

Murot Hasan soziga qo'shib o'qir erdi. Shul sababli Murot Hasan Mutrib "Xonaxarob" taxallusi bilan turli hajviyotlar yozub turadur...". Bobojon Tarroh esa: "Mutrib xushchaqchaq so'zlarni so'zlaganda og'izlarini o'ynatib so'zlab, sizning butun qayg'u-hasratlaringizni yo'q qilar edi. Shuning uchun ham Muhammad Rahim ikkinchi xalqga kulushma bo'lsin deb, Mutrib Xonaxarob qo'yg'on edi", — deydi.

M. Pirnazarov Y. Yusupovning "Xorazm shoirlari" risolasida quyidagi iqtibosni keltiradi: "Mutrib, xaroba uyda og'ir hayot kechira beradi. Bir kun otda ketayotgan Feruz Mutribni xaroba kapa<sup>1</sup> oldida uchratib, "Mutasan, haqiqatan ham sening ahvoting, uying, ro'zg'oring xarob ekan, shuning uchun endi senga bizdan isna<sup>2</sup> o'rnida shu xotira bo'lsinki, sening bundan keyingi taxallusing Mutribgina emas, Mutribi Xonaxarobiy bo'lsin", — deb masxaralagan holda qo'lga tanga tutqazadi.

Ko'z ko'rib quloq eshitmagan haqoratga giriftor bo'lgan shoir saroyini tashlab ketishga majbur bo'ladi" [Pirnazarov 1973, 6-7; Yusupov 1967, 100].

M. Pirnazarov Y. Yusupovning yuqorida keltirilgan fikrlarini tasdiqlaydi. Ammo bu fikrlar mantiqsiz, Xiva saroyining xoni, shoiri bo'lgan Muhammad Rahimxon Feruzning Mutribni masxaralashi o'rinsiz. Chunki u barcha iste'dodli shoirlarni qo'llab-quvvatlaydi, muhtojlarga yordam berib, ularning yashash sharoitini yaxshilab, quduqlar qazdiradi [№9596].

Shunday ma'naviyati yuksak, ijodkor shoir, odamlarning yashash sharoitini yaxshilashga hissasini qo'shgan shoh, kimnidir masxaralab, ko'pchilik oldida Mutribni haqoratlashi ishonarsiz bir holdir.

1920-yillari — oktabr to'ntarilishidan keyin barcha xon va zodagonlarni yomonlash, nomini qoralash, insonlar miyasiga singdirilgan. Ammo bunday fikrlar qayd qilish jarayonida aniq hujjatlarga tayanilmaganligi sababli asossizdir.

---

1 Chodir.

2 Istisno o'rnida.

Shoir 1923-yili<sup>1</sup>, 70 yoshida og'ir kasalikka chalilib, Xiva shahrida vafot etadi. Qabri Xiva shahri Ko'hna qal'a ichidagi Muhammad Aminxon madrasasi kun botar tarafi, Tanobli avliyo degan qabristonni to'g'risida [Bobojon Tarroh 2011,140].

Xiva ichon qal'a katta ilmiy xodimi K. Xudoyberganovning aytishicha, Mutribning qabri Xiva ichon qal'asida joylashgan Tohir Eshon qal'asi yonidagi bir xaroba tagida qolib ketgan.

Laffasiy Mutrib bir devon tuzganligini hamda "Shoh Kamron" nomli asar yozganligini qayd qilib o'tgan [Laffasiy 9494, 139]. Ammo Xiva muzeyi, O'zR FA akademiyasi kotologlaridan hamda barcha muzey kutubxonalarida bu asar yo'qligi aniqlandi.

Mutrib XX asrning 20-yillarida Xorazmdagi "Inqilob quyoshi" gazetasida adabiy xodim sifatida ishlagan.

Umuman olganda Mutrib 1920-yilgacha qoldirgan ijodiy meros asosini ishq-muhabbat va shohni madh etish kabi mavzularda yozilgan g'azal, muxammas, musaddas, murabb'a, qasidalar tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik shoirning ilm-ma'rifatga da'vat, hurriyat mavzularida yozilgan she'rlari mahalliy matbuot sahifalarida, shuningdek, 1920-yillardan keyin "Xorazm xabarleri", "Inqilob quyoshi" va "Qizil Xorazm" kabi gazeta va jurnallarda e'lon qilingan.

Gazeta va jurnallarda e'lon qilingan she'rlari to'planib, Xivada 1923-yilda "O'zbekcha inqilob she'rlari yig'urmi" [1923 *يغورمه*, Xiva] to'plamida nashr etilgan. Bu turkum she'rlari "Ko'runq emdi xaloyiqqa...", "Bilinglar, ey xaloyiq...", "Ko'nglima bir turfa...", "Umid aylab ekib bularga...", "Shod o'lunglar, ey xaloyiq..." va boshqa targ'ibiy — tashviqiy ruh, xitob, da'vat ohanglari hukmronlik qiladigan she'rlarni o'z ichiga olgan [Abdug'afurov 2003, 165–166].

Muhammad Hasan Mutrib haqidagi dastlabki mulohazalar Botir Valixo'jayev va Vohid Abdullayev tomonidan aytilgan, hammualliflikda e'lon qilingan maqolada Mutrib she'rlarini Hamza Hakimzoda Niyoziy, Chokar, Munzim kabi shoirlar she'rlari bilan qiyoslab o'rganadi [Abdullayev, Valixo'jayev 1958, 3; 9].

---

1 Qarang: "Собрание восточных рукописей академии наук СССР"da Mutribning vafot etgan yili 1922 deb ko'rsatilgan ("FAN" nashriyoti, - B.184. VII tom. №5270, Toshkent, 1964; Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистон, Литература (Диваны), Том I. Тошкент: 2017, Издательство "Навруз"). Bobojon Tarroh 70 yoshida vafot etgani to'g'risida ma'lumot beradi, shundan kelib chiqib, Mutribning 1853-yili tug'ilib, 1923-yili vafot etganini taxmin qilishimiz mumkin (Toshkent, "Tafakkur qanoti", 2011. 136-140-betlar). Abdurashid Abdug'afurov O'zbekiston milliy ensiklopediyasida Mutrib Xonaxarobiyning tug'ilgan va vafot etgan yillarini boshqacha (1865-1925) ko'rsatadi ("O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2003. №6. B.165-166). Laffasiy o'z tazkirasida Mutrib vafot etgan yilni 1923 deb ko'rsatgan (Qo'lyozma, №9494. 139-bet).

Adabiyotshunos olimlar O. Sharifiddinov [Sharafiddinov 1967, 172], M.Yunusov [Yunusov 1965, 172, 175], A. Boboxo'jayev [Boboxo'jayev 1964, 62; 75], G'. Mo'minov [Mo'minov 1968, 91], Y. Yunusovning [Yunusov 1968] XX asr boshlari poeziyasi haqidagi tadqiqotlarida Mutrib va unga zamondosh shoirlarning davr hayotida muhim iz qoldirgani ta'kidlanib, ijodkor asarlariga yuqori baho beriladi.

Filologiya fanlari nomzodi F. G'anixo'jayev Alisher Navoiy va boshqa ilg'or o'zbek adiblarining davomchilari sifatida Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz, Bayoniy, Mirzo va Chokar qatorida Mutrib ijodi haqida ham e'tiborga molik fikrlarni bildiradi. Biroq bu tadqiqotlarda adabiyotga o'sha davr hukmron mafkurasi nuqtai nazaridan baho berish tamoyili yetakchilik qiladi [G'anixo'jayev 1969, 12; 14].

N. Mallayev "Klassik adabiyot boyliklarini chuqur o'rganaylik va keng ommalashtiraylik" (O'qituvchi gazetasi, 1957, 12 mart №24) maqolasida Avaz O'tar o'g'liga zamondosh bo'lgan Mutrib Xonaxarobiy, Mirzo singari shoirlar asarlarini chop etish va keng ommalashtirish zarurligi haqida yozadi.

Mutribning maxsus tuzilgan devonlari, she'rlari kiritilgan ko'plab Xiva bayozlari, majmua va tazkiralarni o'rganish, adabiyotimiz tarixida tutgan o'rnini belgilash muhim ekanligini ta'kidlash zarur. Mutribning qisqacha biografiyasi va she'rlaridan namunalar ilk bor "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi" beshinchi tom, ikkinchi kitobida e'lon qilingan. Lekin 10ta g'azal, 1ta musaddas va 1ta masnaviydan iborat bu she'rlar, tabiiyki, shoir lirik merosi haqida to'laqonli tasavvur bera olmaydi.

Hozirgi kunda shoir devonining bizgacha bir qancha qo'lyozma nusxalari yetib kelgan. Ular O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 2679/II [Devoni Mutrib Xonaxarob, Hamid Sulaymon fondi], 903/V [Devoni Mutrib Xonaxarob, asosiy fond.], 906/VII [Devoni Mutrib Xonaxarob, asosiy fond] inventar raqamlari ostida saqlanadi.

Muhammad Hasanning o'zi yashagan davrda tuzilgan bir qancha devon, bayoz va majmualarga ko'chirilgan 12 ming misraga yaqin g'azal, muxammas, musaddas, murabba, masnaviy va qasidalardan iborat adabiy merosi yetib kelgan.

Qirq to'rttadan ortiq manba 24ta bayoz va majmualarda hamda bir qancha mahalliy nashrlarda uning devoniga kiritilmagan she'rlari mavjudligi aniqlandi. Shoirning asarlarini bir joyga yig'ib, devonga kiritilmagan asarlarini to'plab chop ettirish zarurat



hisoblanadi.

M. Pirnazarov nomzodlik dissertatsiyasida adabiyotshunos olim N. M. Mallayevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan “ديوا نمطرب خانه خراب” — “Devoni Mutrib Xonaxarob” 1327-yilda (milodiy 1909) Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub devon — Xarrot tomonidan Xivada koʻchirilgan nusxasi va boshqa manbalari haqida ham maʼlumot beradi [Pirnazarov 1973]. Afsuski, hozirgi kunda ushbu manba topilmadi<sup>1</sup>.

M. Pirnazarov 3ta devondan (2679/II, 903/V, 906/VII) bittasi haqida, yaʼni OʻzR FA Hamid Sulaymon fondida №2679 inventar raqam ostida saqlanayotgan devon qoʻlyozmasi haqida maʼlumotga ega boʻlmagan.

Uchta devonni koʻzdan kechirib ilmiy tavsif qilish jarayonida bu manbalarning yozilgan davri, tarkibi va har jihatdan mukammalligini inobatga olib, tayanch nusxa sifatida 2679/II inventar raqamdagi qoʻlyozma olindi. Qolgan №903/V va 906/VII inventar raqamli qoʻlyozmalar yordamchi manba vazifasini bajaradi<sup>2</sup>.

Mutrib asarlari manbalarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- I. Qoʻlyozma devonlar.
- II. Qoʻlyozma bayozlar.
- III. Tazkira manbalar.
- IV. Toshbosma manbalar.
- V. Davriy nashr materiallari(gazeta, jurnal, toʻplam).

### **Qoʻlyozma devonlar tavsifi**

#### **1. 2679/II inventar raqamli “Devoni Mutrib Xonaxarob”.**

OʻzR FA ShI, H.Sulaymon fondida saqlanayotgan ushbu qoʻlyozmada Shinosiy va Mutrib Xonaxarobiy sheʼrlari tartiblangan.

Qoʻlyozma “Bismillohir rahmonir rahim”dan boshlanib, birinchi gʻazal “Muhammad Hasan devoni mutaxallasi bil “Mutrib Xonaxarob” valadi Hoji Tabib” sarlavhasi bilan berilgan. Ushbu sarlavhadan keyin anʼanaviy tarzda hamd gʻazali keladi:

*Zihi jonlargʻa hamdingin boʻlub fayz-u safo paydo,  
Xayolingdin koʻngullarga boʻlub har muddao paydo.*

---

1 N. M. Mallayevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan ushbu devonni topishning imkoni boʻlmadi.

2 Ushbu devonning tayanch va yordamchi manbalari haqida tadqiqotning keyingi faslida batafsil toʻxtalamiz.

Qo'lyozma hijriy 1326, milodiy 1908-yili Mulla Abdulkarim devon tomonidan ko'chirilgan. Devon kolofonida quyidagi ma'lumot keltirilgan:

کاتب ملا عبدالکریم ابن محمد رحیم مرحومی ابن پهلوان نیازمرزاباشی  
مرحومی ۶۲۳۱

Devonga Mutrib Xonaxarobiyning 700dan ortiq forsiy va turkiy g'azali, 16ta muxammasi (shundan 5tasi forsiy, 11tasi turkiy), 5ta musaddasi va 2ta qasidasi kiritilgan.

Mutrib Navoiyning *Tun oqshom keldi kulbam...* [№2679/ II devon, 220<sup>a/b</sup>], *Ulki, solg'ay shu'la...* [221<sup>b</sup>, 222<sup>a</sup>] hamda *Muvofiq keldilar bo'lmish magar...* [224<sup>a/b</sup>], Feruzning *Ko'zum bir pari orazi...* [222<sup>b</sup>, 223<sup>a</sup>], *Gul yuzing ochib, ey gul...* [223<sup>a/b</sup>, 224<sup>a</sup>], *Ochilmish gul, yeturmish...* [226<sup>b</sup>, 227<sup>a</sup>], Ravnaqning *Kelgil, ey mohliqo...* [224<sup>b</sup>, 225<sup>a/b</sup>], Amirning *Bazm aro har dam labing...* [227<sup>b</sup>, 228<sup>a</sup>], Munisning *Xiromon qomatingkim, gulshan...* [230<sup>b</sup>, 231<sup>a/b</sup>] deb boshlanuvchi g'azallariga taxmis bog'lagan.

Manba matni chiroyli nasta'liq xatida, qora siyohda ko'chirilgan bo'lib, har bir janri sarlavhasi qizil siyoh bilan avval raqam, janr nomi, shoir ismi va taxallusi bilan berilgan. *1 g'azal, Mutrib Xonaxarob, 1 muxammas, Mutrib Xonaxarob, 1 musaddas, Mutrib Xonaxarob, Qasida, Mutrib Xonaxarob* tartibida beriladi. Devon sahifalarining izchilligini ko'rsatish maqsadida poygir beriladi. Poygir: "b" sahifaning birinchi so'zi "a" sahifaning pastki qismida qiya shaklda beriladi. Qo'lyozma sahifalari mukammal bo'lib, matn yaxshi saqlangan. Devon hoshiyalariga bitilgan she'rlar esa, mayda nasta'liqda ko'chirilgan, ammo raqamlanmagan.

Devon to'q yashil o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan, muqovaning yuqori va past qismiga uch bosma naqsh tushirilgan, unda "amali Muhammad Rahim Sahnob — 1325" degan ma'lumot keltirilgan. O'rtasi esa, gulli nashq bilan bezatilgan. Qo'lyozma tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, ikki ustun shaklida, har sahifada 13-14 misradan she'rlar yozilgan. Qo'lyozmaning 129, 130, 131, 132, 177 sahifalariga muhr bosilgan. Muhr quyidagi sahifalarning yuqori ichki burchagiga urilgan bo'lib, unda Rossiya gerbidagi ikki boshli burgut nishoni bor. 129, 130, 131, 177- sahifalariga bosilgan muhrda "Govarda", 132<sup>b</sup> sahifasida esa "Jevesro fabrika №5" deb yozib qo'yilgan. Kotib har bir she'rni raqamlar asosida berishga harakat qilgan. Yana shuni aytish kerakki, devon sahifalarida poygir berilgan bo'lsa-da, keyinchalik kotiblar yoki tartib beruvchi sahhoflar tomonidan yozilgan devon sahifalari orasiga poygirsiz

muallif tomonidan avval yozilgan ijod namunalari sahifalari tikib borilgan. Shuning hisobiga g'azallarning tartib raqami buzilib ketgan. Ammo muxammas va musaddaslar tartibi buzilmagan. Qo'lyozmaning 1<sup>b</sup>, 91<sup>a/b</sup>, 106<sup>a</sup>, 116<sup>a</sup>, 131<sup>b</sup>, 144<sup>b</sup>, 178<sup>b</sup>, 179<sup>a</sup>, 200<sup>b</sup>, 208<sup>a</sup>, 231<sup>b</sup>, 232<sup>b</sup>, 233<sup>b</sup> sahifalaridagi ba'zi so'zlar bo'yalgan. Qo'lyozmaning o'lchovi 27,5x17,5. Devon 234 varaq, 468 betdan iborat. Devonning boshida va oxirida bo'sh uch sahifa yulib olingan.

1<sup>b</sup> sahifadan 81<sup>a</sup> sahifagacha Shinosiyning she'rlari berilgan, keyin 81<sup>b</sup> sahifa bo'sh qoldirilib, orada 3 sahifa kesib olingan. 82<sup>a</sup> ham bo'sh qoldirilgan. 82<sup>b</sup> dan 234<sup>b</sup> gacha, ya'ni 152 varaq, 302 ta sahifaga Mutrib Xonaxarobiyning she'rlari joylashtirilgan.

**2. 903/V inventar raqamli qo'lyozma.** O'zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo'lyozmaga Devoni, Totar, Devoni Xayoliy va Mutrib Xonaxarobiyning she'rlari kiritilgan.

Qo'lyozma "Bismillohir rahmonir rahim"dan boshlanib, birinchi g'azal "Muhammad Hasan devoni mutaxallasi bil "Mutrib Xonaxarob" valadi Hoji *Tabib*" sarlavhasi bilan berilgan.

Qo'lyozma hijriy 1325, milodiy 1907-yili Rahimbergan o'g'li Mulla Karimbergan devon tomonidan ko'chirilgan. Devon kolofoni quyidagicha: "*Котиб Мулла Абдулкарим ибн Муҳаммад Раҳим марҳумий ибн Паҳлавон Ниёз мирзобоши марҳумий сана 1326*".

Devonda Mutrib Xonaxarobiyning 400dan ortiq forsiy va turkiy g'azali, 14ta muxammasi (shundan 3tasi forsiy, 11tasi turkiy), 2ta musaddasi va 1ta qasidasi ko'chirilgan.

Ushbu devonga Mutribning №2679 inventar raqamidagi qo'lyozma devoniga kiritilgan Navoiy, Feruz, Ravnaq, Amir, Munis kabi ustozlari g'azallariga bog'langan muxammaslari ko'chirilgan.

Devon muqovasi to'q yashil o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan, uning yuqori va past qismida 2679 inventar raqamli qo'lyozma muqovasidagi kabi muhr bosilgan. Unda ham "Amali Muhammad Rahim Sahhob — 1325" degan ma'lumot keltirilgan. Devon 273 varaqdan iborat bo'lib, 172 betda, ya'ni 103<sup>b</sup> sahifadan 273<sup>a</sup> sahifagacha Mutrib Xonaxarobiyning ijod namunalari joylashtirilgan. 231<sup>a</sup>, 233<sup>a</sup>, 235<sup>a</sup> sahifalari bo'yalgan. Qo'lyozma tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda mayda nasta'liq xatida ikki ustun shaklida ko'chirilgan bo'lib, 2679 inventar raqamli qo'lyozma manba kabi she'rlar qizil siyohda sarlavhalangan hamda manbaning ba'zi sahifalari xoshiyalariga shoirning ijod namunalari ko'chirilgan.

Devon qo'lyozmasining boshida va oxirida bo'sh 3 sahifa qoldirilgan. Qo'lyozmaning o'lchovi 27,5x17,5.

**3. 906/VII inventar raqamli qo'lyozma.** O'zR FA ShI, asosiy fondda saqlanayotgan ushbu qo'lyozmada Devoni Murodiy, Devoni Farrux, Devoni Doyi, Devoni Ajziy, Devoni Xokiy, Devoni Devon, Mutrib Xonaxarob, Devoni Nadimiy, Devoni Xodaim, Devoni Chokar kabi 10ta shoirlarning she'rlariga tartiblangan.

Devon "Basmala"dan boshlanib, Muhammad Hasan devoni mutaxallusi bil Mutrib Xonaxarob valadi Hoji Tabib (Hoji Tabib farzandi "Mutrib Xonaxarob" taxallusli Muhammad Hasan devon) sarlavhasi bilan boshlanadi. Bu qo'lyozmada hamd g'azal devonning xoshiyasiga ko'chirilgan. 2679/II, 903/V inventar raqamli qo'lyozma manbalarda keltirilgani kabi she'rlar qizil siyohda sarlavhalangan hamda ba'zi sahifalari xoshiyalariga mayda nasta'liq xatida she'rlar ko'chirilgan.

Ushbu devon Mullo Bolta Niyoz usto Qurbonniyoz mulaqqabi bin Xarrot tomonidan ko'chirilgan, qo'lyozma kolofonida yozilgan yili haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi.

Qo'lyozmada Mutrib Xonaxarobiyning 2dan ortiq forsiy va turkiy g'azali, 6ta muxammas (2tasi forsiy, 4tasi turkiy), 5ta turkiy musaddasi va 1ta turkiy qasidasi kiritilgan.

Unda Feruzning *Ochilmish gul, yeturmish bog'a ziynat, ey sanam, kelgil*, — deb boshlanuvchi g'azaliga bog'langan muxammasi ko'chirilgan.

Ushbu qo'lyozma ham to'q yashil o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Qo'lyozma tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, ikki ustun shaklida, har sahifada 16-17 satr she'r yozilgan. Kotib har bir she'rni raqamlar asosida bergan. Devon boshida bo'sh 3ta, oxirida 4ta varaq bor. Har bir adibning she'rlaridan keyin 2-3 bo'sh varaq qoldirilgan. Devonning 248<sup>a</sup> sahifadan 281<sup>b</sup> sahifagacha, ya'ni 33 varaq — 66 sahifada, yettinchi, bo'lib Mutrib Xonaxarobiyning she'rlari joylashtirilgan. Qo'lyozma yaxshi saqlangan. 2679/II, 903/V inventar raqamli qo'lyozma manbalar kabi she'rlar qizil siyohda sarlavhalangan. Xati nasta'liq. Devon 337 sahifadan iborat. O'lchovi 27x17,5.

O'zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan 903/V, 906/VII inventar raqamli qo'lyozmalarni O'zR FA ShI H. Sulaymon fondida saqlanayotgan №2679/II inventar raqamli qo'lyozma bilan qiyosiy o'rganish natijalari shundan dalolat beradiki, ularning hajmi nisbatan kichik va shoir adabiy merosini to'liq qamrab olmagan. Shunga qaramay, bu kichik devonlar shoir she'rlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat

qiladi.

### **Mutrib she'rlarining bayozlardagi tavsifi**

II. Qo'lyozma bayozlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- Mutrib devonida mavjud she'rlarning bayozda uchrashi;
- devonga kiritilgan va kiritilmagan she'rlar;
- devonda uchramaydigan she'rlar.

Mutrib devonidagi bir qancha she'rlarni O'zR FA ShI asosiy fondada saqlanayotgan №1130, 1133, 1143, 1157, 1175, 1176, 1177, 1179, 1185, 1186, 1191, 2036, 1275, 6930, 7045, 2026, 6668 hamda Xiva muzeyida saqlanayotgan №5894/2, 5894/3, 5894/5, 5884/5 inventar raqamli 21ta qo'lyozma bayozlarda uchratish mumkin. Masalan, *Zihi jonlarg'a hamdingdin bo'lub fayz-u safo paydo...* kabi devonga kiritilgan bir qancha g'azallari ulardan joy olgan.

Quyida tavsifi keltirilgan bayozlarda Mutribning devonga kiritilgan va kiritilmagan she'rlari mavjud.

**1. 1152-inventar raqamli qo'lyozma.** "Majmuayi ash-shuaroyi payravi Feruzshohiy" — "Basmala" bilan boshlanadi va undan keyin debocha beriladi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Shinosiy, G'ulomiy, Nozir, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Umidiy, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Habibiy, Chokar, Yusuf, Tabibiy, Xayoliy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarobiy, Avaz, Nadimiy, Xodim, Muznib, Chokar kabi 33ta shoirning 3099ta g'azallariga tartiblangan. Har bir shoirning she'ridan oldin o'sha shoir fazilatlarini yorituvchi masnaviy keltiriladi. Majmuada Mutrib she'rlari 28-o'rinda kelgan. Asarning oxirigacha har bir shoir g'azallari nechanchi o'rinda kelgan bo'lsa, shu raqamning ko'paytmasidan keyin oxirigacha qayta takrorlanib kelaveradi. Mutribning turli g'azallari yuz marta takrorlangan.

Ushbu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326-yilida Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Devon kolofonida: *Alhamdulillah, val minna hazrati sulton-ul zamon va nodir-ul davron bois-ul aman val omon zilli as-subhon halifat-ul rahmon al-hoqon ibn al-hoqon ibn sultoni a'ni abul muzaffari val mansuri Abulg'ozu Sayyid Muhammad Bahodirxon soniy xalladallohu taala mulkahu va davlatahu zayyada umruhu ul janobi oliy hazratning farmoni oliylari bila bu majmuai shuaroni faqir al-haqir Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy bir ming uch yuz yigirma oltinchi yil, mohi safarning uchlanji juma kuni muvofiq qo'y yili yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi*

ma'lumotlari berilgan.

Ushbu majmuaga Mutribning 100 ta turkiy g'azallari kiritilgan. Shundan 9 ta g'azal devonga kiritilmagan yangi g'azallardir.

*Yo rab...* [N<sup>o</sup>1152, 70<sup>a1</sup>], *Sharob...* [128<sup>b</sup>], *Ey ko'ngul...* [477<sup>b</sup>], *Kelgil...* [494<sup>b</sup>, 495<sup>a</sup>], *Bilmadim...* [512<sup>a</sup>], *Salom...* [521<sup>a/b</sup>], *Bu kecha...* [741<sup>b</sup>], *Aylay...* [871<sup>a</sup>] radifli, 7 baytli 9 ta turkiy g'azallar shular jumlasidandir.

2679/II inventar raqam ostida saqlanayotgan devonning ko'chirilgan yili ham bayoz ko'chirilgan yili bilan bir xil. Ammo bayozdagi she'rlar devon ko'chirilgan yilda ko'chirilgan bo'lsa-da, bayozdagi she'rlar devonga kiritilmagan.

Ushbu manba to'q yashil rangli qattiq karton bilan muqovalangan. Muqova ustiga 3 ta o'yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Bayozga kiritilgan she'rlar nasta'liq xatida, ikki ustun shaklida, har bir betda 17, 21 satr she'r yozilgan. She'rlar qora, sarlavhalari esa qizil siyohda yozilgan bo'lib, har bir she'r qizil rangli siyoh bilan raqamlangan. O'lchovi 27,5x17,5. Bayoz 1746-betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 1 ta sahifa bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu tazkiraning muqovasi yirtilgan ammo asar yaxshi saqlangan.

**2. 1172-inventar raqamli Bayozi ash'or.** Sayyid Nosirxon to'ra Sultoniy, Sa'diy, Sodiq, Oqil, Muhammad Yusufbek, Bayoniy, Shinosiy, Doiy, Xudoybergan Ohund, Ojiz, Haqiriy, Xokiy, Umidiy, Kamoliy, Avaz, Devoni Muhammad Komil, Xayoliy Muhammad Nazar, Murodiy, Mirzo, Devoniy, Yusuf, Rog'ib kabi 22 ta shoirning she'rlari ko'chirilgan.

Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1323/1905 yili Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Sharif devon Allohbergan devon marhumiy tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma bayozning kolofonida kotib tomonidan quyidagi forsiy va turkiy ma'lumotlar berilgan: "*Harki, xovanda duo tama'doram zi onki, man bodai gunahkoram. Shud batavfiqi Xudoi loyanam in kitobat ruzi yakshanba tamom.*

*Zilli as-subhona xoliyfata ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Sharif devon ibn Allohbergan devon marhumiy muvofiq yilon yili, 1323, mohi zulqa'daning o'n to'quzlanji sanasi yakshanba kunida yozib itmomg'a yetkurdi.*


Bayozga Mutrib Xonaxarobiyning 20 ta (6 ta forsiy, 14 ta

---

1 Bundan keyingi o'rinlarda qo'lyozmadagi she'rlarning sahifalari beriladi.

turkiy) g'azal kiritilgan bo'lib, "Ey lolayi zanginman, tu gul'uzor ketdi..." [N<sup>o</sup>1172 bayoz, 153<sup>a</sup>, 153<sup>b</sup>] deb boshlanuvchi 9 baytli 1ta yangi g'azali ko'chirilgan. 2679 inventar raqam qo'lyozma bayoz tuzilishidan 3 yil oldin ko'chirilgan bo'lsa-da, devonga kiritilmagan.

Bayoz o'yma naqshli qattiq qora karton bilan muqovalangan bo'lib, tarkibiga kirgan she'rlar och sariq Samarqand qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, ikki ustun shaklda, qiya holatda, har bir betda 20 satr yozilgan. Bayoz qo'lyozmasini ko'chiruvchi kotib tomonidan barcha shoirlarning she'rlari raqamlar asosida tartiblangan hamda qizil siyoh bilan ramkaga olinib, tilla rangli jadval ichiga she'rlar bitilgan. O'lchovi 26,5x16. Bayoz 308-betdan iborat, boshida 4, oxirida 3 varaq bo'sh sahifalar qoldirilgan. Ushbu bayoz ham juda yaxshi saqlangan.



1-rasm. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondidagi N<sup>o</sup>6932 raqamli bayoz.

**3. 1182-inventar raqamli “Bayozi ash’or”.** Devoni, Tabibiy, Oqil, Inoyat, Avaz, Purkomil, Shinosiy, G’ulomiy, Mutrib Xonaharob, Rog’ib, Mirzo, Niyoziy, Xayoliy, Amiriy, Asad, Yusuf, Chokar, Nadimiy, Sodiq, G’oziy, Kamoliy, Ojiz, Xodim kabi 23 shoirning she’rlari kiritilgan.

Bu qo’lyozma bayoz hijriy 1325/1907-yili Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Sharif devon Allohbergan devon marhumiy tomonidan ko’chirilgan. Qo’lyozma bayozning xotimasida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xoliyfatahu ar-rahmoni a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Sharif devon ibn Allohbergan devon marhumiy muvofiq qo’y yili 1325, mohi sharifi ramazonning to’rtlanjisi, juma kuni itmomg’a yetkurdi.*

Bayozda Mutrib Xonaxarobiyning 11ta turkiy g’azal kiritilgan. Shundan devonga kiritilmagan *Jurmim ne erkon, ul sanam bir tun mani yod aylamas...* [N<sup>o</sup>1182, 51<sup>b</sup>, 52<sup>a</sup>] deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy g’azali ko’chirilgan. Ushbu bayoz devon ko’chirilgan yildan bir yil oldin ko’chirilgan, ammo ushbu g’azal devonda uchramaydi.

Bayoz to’q yashil o’yma naqshli muqova bilan muqovalangan bo’lib, tarkibiga kirgan she’rlar sariq rangli Samarqand qog’oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta’liq xatida, ikki ustunda qiya qilib, har bir betda 12 satrda she’rlar yozilgan. Bayoz qo’lyozmasini ko’chiruvchi kotib tomonidan barcha shoirlarning she’rlari raqamlar asosida tartiblangan hamda qizil rangli siyoh bilan ramkaga olingan va she’rlar oq yaltiroq rangli jadval ichiga ko’chirilgan. O’lchovi 17,5x12. Bayoz 476-betdan iborat, boshida va oxirida 4 varaq bo’sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham juda yaxshi saqlangan.

**4. 1184-inventar raqamli “Bayozi ash’or”.** Mutrib, Devoni, Rog’ib, G’oziy, Chokar, Amiriy, Yusuf, Shinosiy, Avaz, Sodiq, Devoni, Xodim, Inoyat, Kamoliy, Nadimiy, Asad, Purkomil, Nozir, Muznib, Xaqiriy, G’oziy, Xokiy, Mirzo kabi 23 shoirning she’rlari ko’chirilgan.

Bu qo’lyozma bayoz hijriy 1328/1910-yilda Abulg’ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan Mulla Muhammad Yusuf devoni Xarrot laqabli kotib tomonidan ko’chirilgan. Qo’lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Alhamdulillah, val minna ushbu bayozkim, bo amri sultoni az-zamoni va nodiru davron boisi alaman va al-amoni a’ni abul muzaffar val mansuri Abulg’ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon ul janobni farmonlari birla faqir al-haqir Mulla Muhammad Yusuf al mutaxallasi bol chokar ibn Muhammad Yusuf devon mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomi sarhadig’a*



yetkurdi, 1328 sana.

Bayozga jami, 23ta g'azal kiritilgan, shundan, 10tasi forsiy, 13tasi turkiy g'azallardir. Ushbu bayoz devon tuzilgandan 2 yil keyin ko'chirilgan.

Mutrib Xonaxarobiyning *Jamolingdin furug'...* [85<sup>a/b</sup>, 86<sup>a/b</sup>], *Fig'onkim bo'lmisham...* [87<sup>a/b</sup>], *Sango derman eshit...* [88<sup>b</sup>, 89<sup>a</sup>], *G'aming ko'nglum uyin...* [114<sup>a/b</sup>], *Quyosh oso jamoling...* [121<sup>a/b</sup>], *Ko'zum kushgach<sup>1</sup> sango...* [132<sup>a/b</sup>], *Gul yuzing shavqida tun-kun...* [134<sup>b</sup>, 135<sup>a</sup>], *Dardi ishqingdin ajab...* [135<sup>a/b</sup>-b.], deb boshlanuvchi 7 baytli 8ta turkiy g'azali 2679/II-inventar raqamli qo'lyozma devonga kiritilmagan.

Bayoz o'yima naqshli to'q yashil karton bilan muqovalangan, uning tarkibiga kirgan she'rlar pushti rangli Samarqand qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, qiya holatda, ikki ustun shaklida, har bir betda 12 satrdan yozilgan. Bayoz qo'lyozmasini ko'chiruvchi kotib tomonidan barcha shoirlarning she'rlari raqamlar asosida tartiblangan. O'lchovi 18x11. Bayoz 308 betdan iborat, boshida 2, oxirida 4 bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz ham juda yaxshi saqlangan.

**5. 1190-inventar raqamli Bayozi ash'or.** Sodiq, G'oziy, Asad, Oqil, Mirzo, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Umidiy, Inoyat, Ojiz, Xokiy, Niyoziy, Habib, Yusuf, Rog'ib, Devoniy, Mutribi Xonaxarob, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Bayoniy, Mirzo, Doiy, Tabibiy, Avaz kabi 29 shoirning she'rlari tartiblangan.

Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1326/1908-yili Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagillar keltirilgan: *Zilli as-subhona xolifata ar-rahmoni a'ni abul muzaffar val mansuri Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu taala mulkahu va davlatahuning farmoni oliylari bila bu bayozni faqir al-haqir Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot bir ming uch yuz yigirma oltinchi yil, muvofiq bijan (maymun) yili mohi rabi-ul avvalin o'n uchlanjisi, seshanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi.*

Bayozga Mutrib Xonaxarobiyning 12ta turkiy g'azali kiritilgan, shulardan *Bir kun labi alfozidin tirguzgusi, tirguzgusi...* [№1190, bayoz, 160<sup>a/b</sup>], - deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy g'azali devonga kiritilmagan.

---

1 "Ko'zum **kushgach** sango, ey dilbarho, bilmon nechuk bo'ldum..." misralaridagi "kushgach" so'zi "tushgach" bo'lishi kerak edi, ammo kotib tomonidan xatoga yo'l qo'yilgan.

Bayoz to'q yashil o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Bayozning birinchi sahifasida sariq rangli naqshinkor unvon berilgan, qizil, yashil hamda ko'k rangli gullar bilan bezatilgan. Qo'lyozma tarkibiga kirgan she'rlar qalin sariq rangli fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda, chiroyli nasta'liq xatida yozilgan, she'rlar qizil, ko'k rangli siyohlarda ramkaga olingan. Ramka ichidan tilla rangli yaltiroq rangda jadval tushirilgan bo'lib, jadval ichiga she'rlar ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan. Har bir betga 12 satrdan she'r yozilgan. Bayoz qo'lyozmasini ko'chiruvchi kotib tomonidan barcha shoirlarning she'rlari raqamlar asosida tartiblanib, "G'azali Mutribi Xonaxarob" kabi sarlavhalar bilan berilgan. O'lchovi 20,5x13,5. Bayoz 356 betdan iborat, boshida va oxirida bo'sh 3ta varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**6. 1192-inventar raqamli "Bayozi ash'or".** Bayozda Oqil, Bayoniy, Rog'ib, G'oziy, Asad, Yusuf, Niyoziy, Kamoliy, Sodiqli, Nozir, Mutribi Xonaxarob, Xokiy, Mirzo, Muznib, Purkomil, Inoyat, Avaz, Mirzo, Shinosiy, Sa'diy kabi 20ta shoirning she'rlariga tartiblangan.

Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1328/1910-yili Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Abdulaziz mahdum tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona holifata ar-rahmoni bois aman val omoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy domi davlataning farmoni oliylari bila ushbu bayozkim, bir ming uch yuz yigirma sakkizlanji, 1328 sana, Bobojon Mahdum devon tarro al-mutahallasi bil Xodim ibn Abdulaziz Mahzum marhumiy yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi.*

Bayozda Mutrib Xonaxarobiyning *Gul yuzingga notavon ko'nglim qushin zor aylading...* [№1192, bayoz, 34<sup>a/b</sup>] deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy hamda 1ta forsiy g'azali kiritilgan.

Devon tuzilgan vaqtdan ikki yil keyin ko'chirilgan ushbu bayozdagi xuddi shu 7 baytli turkiy g'azal devonda uchramaydi.

Bayoz muqovasi yashil o'yma naqsh bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar och yashil rangli fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida yozilgan, she'rlar avval qizil siyohda ramkaga olinib, keyin tilla rangli zar bilan jadval ichiga ikki qator qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satr she'r joylashtirilgan. She'rlari raqamlangan, ularga sarlavha qo'yilgan. O'lchovi 20,5x13. Bayoz 254-betdan iborat, boshi va oxirida uchta bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**7. 1195-inventar raqamli "Bayozi ash'or".** Bayozda Avaz, Chokar, Xonaxarob, Yusuf, Niyoziy, Doiy, Nadimiy, Xayoliy, Haqiriy,

Habib, Devoni, Asad kabi 12ta shoirning she'rlariga tartib berilgan.

Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1325/1907-yili Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Sharif devoni ibn Allohbergan devon Marhumiy tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xolifata ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu mulkahu va sultonahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Sharif devon bin Allohbergan devon Marhumiy muvofiq qo'y yili, 1325, mohi zulqa'dani o'nlanjisi, yakshanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi.*

Bayozga Mutrib Xonaxarobiyning 31ta g'azali kiritilgan bo'lib, shundan, 12tasi forsiy, qolgan 19tasi turkiy g'azallardir.

*"Dayr ichra sansiz, ey pari, jism ichra jonni naylaram..."* [№1195 bayoz, 48<sup>a/b</sup>] deb boshlanuvchi 7 baytli g'azal ham Mutrib devonlariga kiritilmagan.

Bayoz o'yma naqshli qattiq to'q yashil qarton bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar shildiroq pushti rangli Qo'qon qog'oziga, qora siyohda chiroyli nasta'liq xatida yozilgan. Har bir sahifada berilgan she'rning atrofi qora, ko'k, pushti ranglar bilan ramka ichiga olingan hamda she'rlar oq rangli yaltiroq zar bilan jadval ichiga ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satrdan she'r joylashtirilgan. She'rlari raqamlangan hamda sarlavhalangan. O'lchovi 18x11,5. Bayoz 320-betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4ta bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**8. 1196-inventar raqamli "Bayozi ash'or".** Devoni, Avaz, Tabibiy, Inoyat, Xodim, Nadimiy, Chokar, Habib, Mutrib Xonaxarob, Yusuf, Xokiy, Purkomil, Mirzo, G'oziy, Umidiy, Sodiq, Niyoziy, Rog'ib, Doiy, Oqil, Nosiriy, Kamoliy, Bayoniy, Ojiz, Muznib, Shinosiy, Asad, G'ulomiy, Sultoniy kabi 29ta shoirning she'rlari tartiblangan.

Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1326/1908 yili Mullo Qurbonniyoz domla Pahlavon Juryonliy tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Alhamdilillah, val minna kim xolifata ar-rahmon zilli as-subhon boisi al-amni va-l-amon al-xoqon ibn al-xoqon abul muzaffari val mansuri Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon xalladallohu taala mulkahu va davlatahu ul olijanobning farmoni oliylari bila ushbu shuarolar she'rlarin kitobat etdi. Yozg'uchi, Mullo Qurbonniyoz bin domlo Pahlavon Juryonliy, sana 1326lanjida bitildi, Tammat.*

Bayozdan Mutrib Xonaxarobiyning 10ta turkiy g'azali joy olgan. Shundan *Bir kun labi alfozidin, tirguzgusi, tirguzgusi...* [№1196,

bayoz, 148<sup>a/b</sup>] deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy g'azal devonga kiritilmagan. Ushbu bayoz devon ko'chirilgan yili ko'chirilgan.

Bayoz o'yma naqshli qattiq to'q yashil muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar ohorlangan Samarqand qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida yozilgan, she'rlar ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir beta 12 satrdan she'r joylashtirilgan. Bayoz qo'lyozmasini ko'chiruvchi kotib tomonidan barcha shoirlarning she'rlari raqamlar asosida tartiblangan. O'lchovi 20,5x13. Bayoz 316 betdan iborat, manbaning boshida 1 ta, oxirida 3 ta bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**9. 1131-inventar raqamli "Bayozi muxammasot".** Tabibiy, Oqil, Yusuf, G'ulomiy, Sultoni, Rog'ib, Shinosiy, Xayoliy, Bayoniy, Xokiy, Sodiq, Kamoliy, Avaz, Niyoziy, Xaqiriy, Ojiz, Umidiy, Doiy, Habib, Nadimiy, Xodim, Chokar, Mutribi Xonaxarob, Niyoziy, Sa'diy, Rog'ib kabi 26 shoirning muxammaslari kiritilgan.

Ushbu bayozi muxammasot Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan hijriy 1325/1907-yil Ollohbergan devonning o'g'li Muhammad Sharif devon tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayoz kolofoni quyidagicha yakunlangan: *Zilli as-subhona xolifatahu ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu mulkahu sultonahuning farmoni oliylari bila ushbu kitobni faqir al-haqir Muhammad Sharif devoni ibn Allohbergan devon Marhumiy muvofiq qo'yi yili 1325 mohi shavvalni to'qqizlanjisi panjshanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi.*

Mutrib Xonaxarobiy Navoiy, Navras, Feruz kabi buyuk salaflarining g'azallariga o'xshatmalar yozgan. Bayozga 6ta muxammas, shundan 1tasi forsiy, qolgan 5tasi turkiy kiritilgan. 5ta turkiy muxammasdan 4tasi devonga kiritilgan. Bittasi esa yangi muxammasdir.

Feruzning *Ochilmish gul yeturmish bog'a ziynat, ey sanam, kelgil...*, deb boshlanuvchi 9 baytli g'azaliga, Mutribning *Jafo otini emdi qilib bolgul adam kelgil...* [№1131, 93<sup>b</sup>, 94<sup>a</sup>] deb boshlanuvchi bitta yangi muxammasi shu bayozdan o'rin olgan.

Ushbu manba qattiq qora o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar yupqa shildiroq Samarqand qog'oziga ko'chirilgan. Bayozning birinchi sahifasida ko'k, yashil, pushti ranglar bilan bezatilgan naqshinkor unvon berilgan. Asar qizil va ko'k ranglar bilan ramkaga o'ralgan, keyin tilla rangli zar bilan jadval tushirilib, ichiga qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida

she'rlar yozilgan, ikki qator qiya holatda ko'chirilgan. Har bir betda 20 satrdan she'r joylashtirilgan. Barcha she'rlar sarlavhalangan va raqamlangan. O'lchovi 26x15,5. Bayoz 332 betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4 sahifa bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**10. 1134-inventar raqamli qo'lyozma.** "Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy" "Debochayi masnaviyoti muxammasot majmuayi ash-shuaro Feruzshohiy domi mulkahu va davlatahu va zayyada umruhu va shavkatahu..." debochasi bilan boshlanadi.

Ushbu asar 1326/1908-yili ko'chirilgan. An'anaviy tarzda avval hamd, na't keyin 4ta xalifa madhi beriladi. Ushbu asarda taxmis bog'langan shoirga bag'ishlab yozilgan masnaviy keltirilgan. O'sha davr shoirlari Ogahiyning ustoz bilib, uning sifatlarini masnaviyga solib, keyin esa uning g'azallariga taxmis bog'laydilar. Birinchi bo'lib Feruz Ogahiyning madh etgan masnaviyi, undan keyin Feruzning Ogahiy g'azaliga bog'lagan muxammasi berilgan.

Ushbu asarda 33ta shoir<sup>1</sup>ning Ogahiy g'azallariga, keyin Feruz g'azallariga bog'lagan taxmis muxammaslari ko'chirilgan.

"Bayozimuxammasot" Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili ko'chirilgan. Ushbu muxammasotni ko'chirgan kotib haqida ma'lumot berilmagan. Ammo bayoz oxiridagi masnaviyda qo'lyozmaning ko'chirilgan yili haqida ma'lumot bor. Bu masnaviyning Bayoniy ko'chirganligi haqida ma'lumot mavjud, oxirgi ikki bayt quyidagicha yakunlangan: ایریذه اتیب اهتمام، کم هس بر یل دا ایئدی تمام، بیانی قلیب فکرتاریخ بات دیدیم شعر دین قالدی (Bu xizmat eriza andah etib ihtimom, kamu hash bir yilda etdi tamom, Bayoniy qilib fikri tarixi bot, dedim, she'rdin qoldi olamda ot 1326), misralaridagi *she'rdin qoldi olamda ot*, — degan jumla qizil siyohda berilgan va u abjad hisobida 1326 yilni bildiradi.

"Muxammasoti majmuayi ash-shuaro Feruzshohiy" asariga Ogahiyning *Jonbaxsh la'ling uzra...*, deb boshlanuvchi g'azaliga Mutribning *Qildi xirad begonasi...* [N<sup>o</sup>1134 inv..., 22<sup>b</sup>, 23<sup>a</sup>] hamda *Vah, ne balodur bilmadi...*, deb boshlanuvchi g'azaliga ham *Bir g'amzada soldi mango...* [129<sup>a/b</sup>]; Feruzning *Mango rahm aylab...*, deb boshlanuvchi g'azaliga *Muruvvat ko'rguzub...* [54<sup>a/b</sup>], *Dedim*,

---

1 XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Xokiy, Habib, Yusuf, Tabibiy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Totar kabilaning she'rlari kiritilgan.

*ko'zumni ravshan...*, deb boshlanuvchi g'azaliga, *Bu ne itob, ul maning...* [79<sup>a/b</sup>], *Yoqutdurmu bilmadim...*, deb boshlanuvchi g'azaliga esa, *Tushgach ko'zum qildi...* [101<sup>a/b</sup>], deb boshlanuvchi 5ta yangi taxmis muxammaslari ko'chirilgan.

Bundan tashqari bayozda Mutribning devonga kiritilgan 7 baytli 2ta musaddasi ham joy olgan.

Bayozning oxirida "Bayoniyning majmua uchun aytgon taqrizidur", - deb yozilgan qizil siyohli sarlavha ostida Bayoniyning 14 satrli taqrizi berilgan.

Ushbumanba o'ymanaqshli qoramugovabilan muqovalangan. Muqova ustiga tushirilgan 3ta naqshinkor bezakning yuqori va past qismiga "Amali Muhammad Rahim Sahhof — 1326" degan yozuv tushirilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga ko'chirilgan bo'lib, she'rlar qora va qizil siyohlarda, nasta'liq xatida ikki ustun shaklda ko'chirilgan, har bir betda 17 satr she'r joylashtirilgan. O'lchovi 27x17. Bayoz 432 betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4 sahifa bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu majmuayi shuaro juda yaxshi saqlangan.

**11. 6927-inventar raqamli bayozga** Nozir, Haqiriy, Oqil, Niyoziy, Rog'ib, G'ulomiy, Mutrib Xonaxarob, Yusuf, Asad, Bayoniy, Sodiq, Xokiy, Xodim, Nadimiy, Chokar, Shinosiy, Purkomil, Mirzo, G'oziy, Devoniy kabi 20ta shoirning she'rlari kiritilgan.

Bu qo'lyozma bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devon tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xolifata ar-rahmoni bois al-a-mani val-a-moni abul muzaffari val mansuri Abulg'ozil Sayyid Muhammad Rahim Baxodurxon soniy ul oliy hazratning farmoni oliylari bila bu bayozni faqir al-haqir Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devon bir ming uch yuz yigirma oltinchi yil, mohi ramazonni to'quzlanjisi muvofiq bijan (maymun) yili yozib itmomg'a yetkurdi.*

Bayozga Mutrib Xonaxarobiyning 33ta turkiy g'azallari hamda 10ta forsiy g'azali kiritilgan. jami 43ta.

Ushbu bayoz ham devon ko'chirilgan yili ko'chirilgan. Ammo, *Damodam ko'zlaring qatling'a...* [№6927, bayoz, 21<sup>b</sup>, 22<sup>a</sup>], *Ko'rubon ko'zim jamolin...* [36<sup>a/b</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 2ta turkiy g'azal devonga kiritilmagan.

Bayoz o'ymanaqshli to'q yashil muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar pushti rangli yupqa shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq

xatida yozilgan, qiya holatda ikki qatordan har bir betda 12 satr she'r joylashtirilgan. Bayozga ko'chirilgan g'azallarning sarlavhasi qizil siyohda raqamlangan. O'lchovi 17,5x11,5. Bayoz 308 betdan iborat, manbaning boshi va oxirida 2 bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**12. 6928-inventar raqamli bayoz.** Purkomil, Inoyat, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Asad, Bayoniy, Muznib, Rog'ib, Chokar kabi 9ta shoirning she'rlari kiritilgan.

Bayozda Mutrib Xonaxarobiyning yangi *Kel, ey dilbar...* [№6928, bayoz, 30<sup>a/b</sup>], *Matoyi husninga...* [32<sup>a/b</sup>], *"Yog'du jahon zindon erur, sansiz..."* [160<sup>a/b</sup>], *"Darkor emas jon, ey sanam..."* [162<sup>b</sup>, 163<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 4ta har biri, 7 baytdan iborat turkiy g'azallari joy olgan.

Bundan tashqari devonda uchraydigan 6ta turkiy hamda 3ta forsiy g'azal ham bor.

Bu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Mullo Muhammad Yusuf ibn Muhammad Ya'qub mulaqqabi bi Xarrot tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofoni quyidagicha: *Alhamdulillah, va-l-amna ushbu bayoznikim, bo amri sultoni al-zamoni va nodir al-davroni boisi al-a-moni va-l-amoni oliy xoqoni ibn al-xoqon a'ni abul muzaffari val mansuri Abulg'ozzi Sayyid Muhammad Rahim Baxodurxon ul janob farmonlari birla faqir al-haqir Mullo Muhammad Yusuf ibn Muhammad Ya'qub mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana: 1326.*


Bayoz o'yima naqshli to'q yashil muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar pushti rangli shildiroq yupqa qog'ozga ko'chirilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan, ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satr she'r joylashtirilgan. Bayozga ko'chirilgan g'azallarning sarlavhasi qizil siyohda raqamlar bilan raqamlanib, sarlavhalangan. O'lchovi 18x11,5. Bayoz 328 betdan iborat, manbaning boshi va oxirida 2 bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**13. 6932-inventar raqamli bayoz.** Muznib, Sodiq, Mutrib, Yusuf, Devoniy, Xokiy, Kamoliy, Shinosiy, Rog'ib, Asad, G'oziy, Mirzo, Oqil, Niyoziy, Chokar, Xodim, Purkomil, Nadimiy, Nozir, Avaz, Inoyat kabi 21 shoirning she'rlari kiritilgan.

Bu qo'lyozma bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1328/1908-yili Mullo Muhammad devon Muhammad Ya'qub devon xarrot tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Alhamdulillah, va-l-amna ushbu bayoznikim, bo amri sultoni al-*

zamoni va nodir al-davron bois al-a-moni va al-o-moni al-xoqoni ibn al-xoqon a'ni abul muzaffari val mansuri Abulg'uzi Sayyid Muhammad Rahim Baxodurxon domi davlatahu ul janobni farmoni oliylari birla faqir al-haqir Mullo Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devoni mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana: 1328.



2-rasm. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondidagi №6932 raqamli bayoz.

Bayozda Mutrib Xonaxarobiyning 41ta g'azali ko'chirilgan, shundan 20tasi turkiy, 21tasi forsiy g'azallar.

Devonga kirmagan g'azallar soni esa 16ta, ularning hammasi 7 baytli. ular: *Ruxi xurshidi...* [№6932, 10<sup>a/b</sup>], *Sham'i ruxinga jono...* [10<sup>b</sup>, 11<sup>a</sup>], *Quyosh oso jamoling...* [128<sup>b</sup>, 129<sup>a</sup>], *Mani jono visoling...* [129<sup>a/b</sup>], *G'amingdin, ey sanam...* [137<sup>b</sup>, 138<sup>a</sup>], *Mudomo sandin...* [142<sup>b</sup>, 143<sup>a</sup>], *Mango ruxsori toboning...* [143<sup>b</sup>, 144<sup>a</sup>], *Fig'onkim, orazing mandin...* [144<sup>a/b</sup>], *Bu tun kulbamg'a...* [144<sup>b</sup>, 145<sup>a</sup>], *Bu kecha bazmimg'a kelgan...* [146<sup>b</sup>, 147<sup>a</sup>], *Firoq ichra maning...* [147<sup>b</sup>, 148<sup>a</sup>], *Mani, yo rab...* [150<sup>a/b</sup>], *Nihon etma jamoling...* [150<sup>b</sup>, 151<sup>a</sup>], *Mani ishq ichra hayron...* [151<sup>a/b</sup>],



*Nargisi bemoringga...* [151<sup>b</sup>, 152<sup>a</sup>], *Bihamdillah, visoli yordin...* [152<sup>b</sup>, 153<sup>a</sup>], kabi misralar bilan boshlanuvchi g'azallardir.

Bayoz to'q yashil o'yma naqshli muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar ko'k rangli yupqa, shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betda 12 satrda she'rlar joylashtirilgan. Bayozga ko'chirilgan g'azallarning sarlavhasi hamda raqamlari qizil siyohda berilgan. O'lchovi 18x11,5. Bayoz 306 betdan iborat, manbaning boshida ikki, oxirida uchta varaq bo'sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**14. 6951-inventar raqamli bayoz.** Bayozga Nozir, Mutrib, Purkomil, Avaz, Asad, Yusuf, Chokar, Sodiq, Inoyat, Kamoliy, Devoniy, Rog'ib, Xokiy, G'oziy, Muznib, Xodim, Nadimiy, Bayoniy, Mirzo, Niyoziy, Oqil kabi 21 shoirning she'rlari ko'chirilgan.

Bu qo'lyozma bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1328-yili Muhammad Komil devoni Ismoil devon Xorazmiy laqabli kotib tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xoliyfatahu ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari birla ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Komil devon mulaqqabi be Devoni ibn domlo Ismoil devon Xorazmiy yozib, safar oyinda itmomg'a yetkurdi. Sana 1328lanji yilda.*

Bayozga shoirning *Yuzingga murg' ko'nglum...* [N<sup>o</sup>6951, 61<sup>b</sup>, 62<sup>a</sup>], *Sham'i husninga...* [73<sup>a/b</sup>], *Majnun ishqi aro...* [87<sup>b</sup>, 88<sup>a</sup>], *Dambadam chekkan...* [90<sup>a/b</sup>], *Falakka chirmashur...* [90<sup>b</sup>, 91<sup>a</sup>], *Gul yuzingga...* [91<sup>b</sup>, 92<sup>a</sup>], *Damodam fosh etib...* [93<sup>b</sup>, 94<sup>a</sup>], *Dardi ishqingdin...* [94<sup>b</sup>, 95<sup>a</sup>], *Mani har nozanin...* [95<sup>a/b</sup>], *Bihamdillah, bu tun...* [95<sup>b</sup>, 96<sup>a</sup>], *Ne, deb yonimdin...* [113<sup>b</sup>, 114<sup>a</sup>], *Ko'zim tushgach...* [114<sup>b</sup>, 115<sup>a</sup>], *Ey sanam, raf'i niqob...* [132<sup>a/b</sup>], *Yuzing gulzorin...* [133<sup>a/b</sup>], *Xasta jonimg'a...* [148<sup>a/b</sup>], *Mani Majnunlig'im...* [148<sup>b</sup>, 189<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 16ta yangi g'azallari kiritilgan.

Bayozdan Mutrib Xonaxarobiyning jami 35ta o'rin olgan, shundan 15tasi forsiy, qolgan 20tasi turkiy g'azallardir.

Bayoz o'yma naqshli to'q yashil muqova bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Bayozning ba'zi sahifalariga "Rjevskoy fabrika N<sup>o</sup>6", degan muhr bosilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan va ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga o'n ikki satr she'r joylashtirilgan. Barcha shoirlarning she'rlari raqamlangan

va sarlavhalangan. O'lchovi 17,5x11. Bayoz 300 betdan iborat, manbaning boshi va oxirida uch varaq bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**15. 6952-inventar raqamli qo'lyozma bayoz.** O'zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu bayozda 11 shoirning she'r tartiblangan. Bular: Sodiq, Nazar, G'oziy, Asl, Mirzo, Kamoliy, Inoyat, Devoniy, Avaz, Mutrib, Rog'ib.

Ushbu bayozni qachon va kim tomonidan ko'chirilganligi ma'lum emas.

Bayozga Mutribning jami 8 g'azali kiritilgan. Shulardan 1tasi forsiy, qolgan 7tasi turkiy tildagi g'azallardir.

*Jon qasdin aylab...* [ №6952, bayoz, 73<sup>b</sup>, 74<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy g'azal devonga kiritilmagan.

Manba o'yima naqshli to'q yashil muqova bilan muqovalangan. Bayoz tarkibiga kirgan she'rlar qalin sarg'ish shildiroq fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, qiya qilib, ikki ustun shaklida yozilgan, har bir sahifada 12 satr she'r joylashtirilgan. Bayozda yuqoridagi shoirlarning she'rlari ketma-ket tartibda emas, aralash holatda ko'chirilgan. Ammo barcha she'rlar alifbo taritibida ko'chirilgan. She'rlar raqamlangan va sarlavhalangan. O'lchami 18x11. Bayoz 276 betdan iborat. Boshida 1 varaq (farzas), oxirida esa 12 varaq bo'sh qoldirilgan. Ushbu bayoz juda yaxshi saqlangan. Bayozning xotima qismi berilmagan, kim tomonidan ko'chirilganligi hamda kotibi haqida ma'lumot uchramaydi. Ehtimol, kotib oxirigacha ko'chirib ulgurmagandir.

**16. 6969-inventar raqamli bayoz.** Nadimiy, Xodim, Chokar, Devoniy, Oqil, Kamoliy, Yusuf, Niyoziy, Sodiq, Sa'diy, Mutrib Xonaxarob, Rog'ib, Shinosiy, Nozir, G'oziy, Avaz kabi 15ta shoirning she'rlari kiritilgan.

Bu qo'lyozma bayozni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devon tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Alhamdulillah, va-l-amna ushbu bayozkim bo amri sultoni al-zamoni va nodirai davron bois al-amani va-l-omoni ul-sultoni ibn as-sultoni al-xoqon ibn al-xoqon a'ni abul muzaffari val mansuri Abulg'ozni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon ul janobni farmoni oliylari birla bir ming uch yuz yigirma oltitanji yili erdikim, faqir al-xaqir Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devoni mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi. 1326 yil.*

Bayozda Mutrib Xonaxarobiyning 6ta turkiy g'azallari joy

olgan, shundan “*Gardun uza xurshididin...*” [№6969, bayoz, 75<sup>a/b</sup>], “*Sarkashtayi parvonaman...*” [162<sup>b</sup>, 163<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 2ta 7 baytli turkiy g‘azali devonga kiritilmagan yangi g‘azallardir.

Bayoz o‘yma naqshli qattiq to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she‘rlar shildiroq yupqa Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. She‘rlar qora va qizil siyohlarda nasta‘liq xatida yozilgan bo‘lib, ikki qator qilib qiya holatda joylashtirilgan, har bir betga 12 satrda she‘rlar yozilgan. G‘azallar qizil rangli siyohda sarlavhalangan hamda raqamlangan. O‘lchovi 18x11. Bayoz 332 betdan iborat, manbaning boshida 3, oxirida 2 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**17. 6990-inventar raqamli bayoz.** Xokiy, Yusuf, Muznib, Shinosiy, Mirzo, Xodim, Kamoliy, G‘oziy, Inoyat, Chokar, Sodiq, Rog‘ib, Mutrib Xonaxarob, Sa‘diy, Ojiz, Devoniy, Nadimiy, Bayoniy, Oqil, Asad, Nozir kabi 21 ta shoirning she‘rlari kiritilgan.

Bu qo‘lyozma bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1327/1909-yili Bobojon Maxzum devon tarro al-mutaxallasi xodim ibn ubbod Abdulaziz Maxzum Marhumiy tomonidan ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma bayozning kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xolifata ar-rahmoni a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxondomi davlatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayoznikim, bir ming uch yuz dog‘i yigirma yettilanji yili Bobojon maxdum devon tarro al-mutaxallasi xodim ibn Abdulaziz Mahzum Marhumiy yozib itmomi sarhadig‘a yetkurdi tammam al-kitob to tammam al-kitob bi-a’vn al-malik al-vahhob.*

Bayozdagi Mutribning *Labingni kavsaridin...* [№6990 bayoz, 49<sup>a/b</sup>], *Ajab xusn ichra...* [115<sup>b</sup>, 118<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 2ta turkiy g‘azali yangi she‘rlardir.

Bayozga shoirning 8ta turkiy, 10ta forsiy jami 20ta g‘azali kiritilgan.

Bayoz yashil rangli muqovalangan bo‘lib, 3ta o‘yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she‘rlar sariq fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. She‘rlar qora va qizil siyohlarda nasta‘liq xatida yozilgan, avval ko‘k rangli siyoh bilan jadvalga olingan, keyin tilla rangli zar bilan ramka ichiga joylashtirilgan. Har bir betga 12 satr, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Bayozga ko‘chirilgan g‘azallarning sarlavhasi qizil siyohda raqamlangan hamda sarlavhalangan. O‘lchovi 18x13. Bayoz 256 betdan iborat, manbaning boshi va oxirida 2ta bo‘sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayozning muqovasi biroz uringan bo‘lsa-da, sahifalari yaxshi saqlangan.

**18. 7032-inventar raqamli bayoz.** Asad, Xokiy, G'oziy, Bayoniy, Kamoliy, Niyoziy, Ojiz, Chokar, Sodiq, Xodim, Muznib, Nozir, Sa'diy, Mirzo, Sultoniy, Haqiriy, Inoyat, Mutrib Xonaxarob, Nadimiy, Shinosiy, Xayoliy, Doiy, Avaz, G'ulomiy, Purkomil, Yusuf kabi 26ta shoirning she'rlari kiritilgan.

Bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallasi bil hokiy ibn Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofoni quyidagicha yakunlangan: *Alhamdulillah, val minna ushbu kitob bayozkim bo amri sultoni az-zamoni nodir-ul davroni zilli subhona xolifata ar-ramoni bois al-a-mani val-a-mon abul muzaffari val mansuri Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon ul janobi oliyni farmonlari bila bir ming uch yuz yigirma oltinchi yili jumod-ul avval oyini ikkilanjsi dushanba kuni erdikim, faqir al-haqir Mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallasi bi al-Choka ibn Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi. Sana 1326.*

Bayozga shoirning 6ta turkiy hamda 2ta forsiy g'azallari kiritilgan. Shundan *Ul sanam hajr aro dilim chokini bilmodi, netay...* [N<sup>o</sup>7032 bayoz, 88<sup>b</sup>, 89<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 1ta turkiy g'azal devonga ko'chirilmagan.

Bayoz to'q yashil rangli muqova bilan muqovalangan va 3ta o'yma naqsh bilan bezatilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar sariq rangli fabrika qog'oziga ko'chirilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan, ikki qator qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 20 satr she'r joylashtirilgan. Bayozga ko'chirilgan g'azallarning sarlavhasi qizil siyohda raqamlar bilan sarlavhalangan. O'lchovi 27x15,5. Bayoz 316 betdan iborat, manbaning boshida 2ta bo'sh varaq qoldirilgan. Ushbu bayoz juda yaxshi saqlangan.

**19. 2024-inventar raqamli bayoz.** Devoniy, Rog'ib, Muznib, G'ulomiy, Bayoniy, Sodiq, Mutrib Xonaxarob, Bayoniy, Xokiy, Kamoliy, Sa'diy, Yusuf, Avaz, Xodim, Nadimiy, Inoyat, Purkomil, Tabibiy, Nozir, Shinosiy, Oqil, Asad kabi 22 shoirning g'azallari kiritilgan.

Ushbu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1327-yili Muhammad Komil devoni mulaqqabi bi devoni ibn domullo Ismoil devoni Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayoz kolofonida quyidagilar keltirilgan: *Zilli as-subhona xalifatahu ar-rahmoni bois amanu omon a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon domi davlatahuning farmoni oliylari*

*bila ushbu bayozni faqir al-haqir mullo Muhammad Komil devoni mulaqqabi bi Devoni ibn domullo Ismoil devoni Xorazmiy muvofiq bijan (maymun) yili mohi muharramning avvalida itmomg'a yetkurdi, 1327 sana.*

Ushbu bayozda Mutribning *O'ldim g'ami...* [N<sup>o</sup>2024 bayoz, 37<sup>a/b</sup>], *Hijron tuni...* [48<sup>a/b</sup>], *Notavon ko'nglim...* [O'sha bayoz, 59<sup>a/b</sup>], *Kel, istadim...* [67<sup>b</sup>, 68<sup>a</sup>], *Tinmay ko'zimda...* [69<sup>a/b</sup>], *Shukrkim, bu kecha...* [72<sup>a/b</sup>], deb boshlanuvchi 7 baytli 6ta turkiy g'azali devonga kiritilmagan.

Bayozga shoirning jami 23ta g'azallari ko'chirilgan, shundan 3tasi forsiy, qolgan 20 tasi turkiy tilda.

Ushbu manba to'q yashil rangda muqova bilan muqovalangan va ustiga uchta naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar zafaron (sabzi) rangdagi fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Bayozga kiritilgan she'rlar nasta'liq xatida, ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satr she'r joylashtirilgan. Bayozni ko'chiruvchi kotib barcha shoirlarning she'rlarini raqamlar bilan tartiblagan. O'lchovi 18x11,5. Bayoz 312 betdan iborat, manbaning boshida 2ta va oxirida 3sahifa bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

### **Devonda uchramaydigan she'rlar**

6971-, N<sup>o</sup>2025-, N<sup>o</sup>1129-, N<sup>o</sup>1127-inventar raqamlarda saqlanayotgan bayozlarda Mutribning devonlarga kiritilmagan yangi she'rlari ko'chirilgan.

**1. 6971-inventar raqamli bayoz.** Bayozga Avaz, Purkomil, Shinosiy, Nadimiy, Rog'ib, Yusuf, Nozir, Haqiriy, Xodim, Xokiy, Mutrib, Kamoliy, Asad, Muznib, Inoyat, Sodiq, Devoniy, Bayoniy, Niyoziy, G'oziy, Mirzo, Chokar kabi 22 ta shoirning she'rlari kiritilgan.

Bu qo'lyozma bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1328/1910-yili Mullo Boltaniyoz al-mutaxallasi bin Nadimiy valadi usto Qurbonniyoz tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar bitilgan: *Alhamdulillah, val-minna ushbu bayozkim, bo amri sultoni az-zamoni va nodir ul-davroni a'ni abul muzaffar val mansur Abulg'ozzi Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila bir ming uch yuz yigirma sakkizlanji yili mohi safarning o'n oltilanjisi, juma kuni erdikim, Mullo Boltaniyoz al-mutaxallasi bo Nadimiy valadi usto Qurbonniyoz yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi. 1328 sana.*

Bayozdan Mutrib Xonaxarobiyning *Hajr o'qin...* [N<sup>o</sup>6971,

70<sup>a/b</sup>], *Fig'onkim, bu kecha...* [71<sup>b</sup>, 72<sup>a</sup>], *Bir nafas...* [72<sup>b</sup>, 73<sup>a</sup>], *Mudomo murg' ko'nglum...* [74<sup>a/b</sup>], *Nigoro, hasrati...* [74<sup>b</sup>, 75<sup>a</sup>], *Jamolingg'a maningdek...* [75<sup>a/b</sup>], *Mani tokay...* [77<sup>b</sup>, 78<sup>a</sup>], *Oh, kim...* [91<sup>b</sup>, 92<sup>a</sup>], *Shukurkim, bu kecha...* [94<sup>a/b</sup>], *Jonimda bor ofati...* [100<sup>b</sup>, 101<sup>a</sup>], — deb boshlanuvchi devonga kiritilmagan 7 baytli 10ta turkiy g'azallari joy olgan. Bayozga jami, 22ta g'azal kiritilgan, shundan 12tasi forsiy tilda.

Bayoz o'yma naqshli to'q yashil rangli muqovada. Tarkibiga kirgan she'rlar pushti rangli fabrika qog'oziga ko'chirilgan. She'rlar qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan, ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satr she'r joylashtirilgan. Bayozga ko'chirilgan g'azallarning sarlavhasi qizil siyohda raqamlar bilan sarlavhalangan. O'lchovi 18x11,5. Bayoz 276 betdan iborat, manbaning boshi va oxirida 3 varaq bo'sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**2. 2025-inventar raqamli bayoz.** Bayozga Mutrib, Rog'ib, Yusuf, Kamoliy, Asad, Inoyat, Muznib, Sodiq, Purkomil, Xokiy, G'oziy, Nozir, Bayoniy, Devoniy, Xodim, Oqil, Mirzo, Avaz kabi 18 ta shoirning g'azallari kiritilgan.

Ushbu bayoz Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1328-yili Muhammad Sharif valadi Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayoz kolofonida quyidagilar bitilgan: *Zilli as-subhona xalifata ar-rahmoni a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari birla ushbu bayozni Muhammad Sharif valadi Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot muvofiq, tovuq yili yozib itmomig'a yetkurdi. Fiy shahri safari, fiy 1328 sana.*

Ushbu bayozda Mutribning *Istaram jono...* [№2025, 3<sup>a/b</sup>], *Ishq aro bilmon...* [14<sup>b</sup>, 15<sup>a</sup>], *Erurman kecha-kunduz...* [96<sup>a/b</sup>], *Ko'nglum ichra...* [107<sup>b</sup>, 108<sup>a</sup>], *Mani shod etgali...* [111<sup>b</sup>, 112<sup>a</sup>] deb boshlanuvchi 5ta, 7 baytli (devonga kiritilmagan), yangi g'azallari joy olgan.

Jami 14ta she'r kiritilgan bo'lib, shundan, 9 tasi forsiy, 5 tasi turkiy tildagi g'azallardir.

Ushbu manba to'q yashil rang bilan muqovalangan. Muqovaga 3 ta o'yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar sariq rangli yupqa shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. Bayozga kiritilgan she'rlar nasta'liq xatida, ikki qator qilib qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 12 satr she'r joylashtirilgan. O'lchovi 18x12. Bayoz 304 betdan iborat, manbaning boshida 4ta va oxirida

3 sahifa bo'sh (farzas) qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

**3. 1129-inventar raqamli "Bayozi muxammasot"**. Bayozga Rog'ib, Oqil, G'olib, Niyoziy, Doiy, Bayoniy, Tabibiy, Habib, Shinosiy, Avaz, Asad, Mutrib Xonaxarob, Chokar, Ojiz, Nodir, Nodim, Nazmiy, Najot, Yusuf, Devoniy kabi 20 ta shoirlarning muxammaslari kiritilgan.

Bu qo'lyozma bayozni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon farmoniga binoan hijriy 1327-yili Muhammad Ya'qub devoni Qurboniyoz Xorazmiy laqabli kotib tomonidan ko'chirilgan.

Qo'lyozma bayozning kolofonida quyidagilar bitilgan: *Lillahi al-hamd-u va-l-minahu oliy hazrat raf'i manzilat zilli as-subhona xolifata ar-rahmoni boisi al-a-mani va-l-omoni abul muzaffari val mansuri Abulg'ozu Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu ta'oli mulkahu davlatahu va zayyada umruhu ul oliy hazratning farmoni oliylari birlan bu muxammasot bayozni bir ming uch yuz yigirma yettilanji yil, mohi jumod-ul avvalni avvali Chahorshanba kuni bu faqir al-haqir Muhammad Ya'qub devon ibn usto Qurboniyoz Xorazmiy mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi.*

Bayozga Navoiyning *Gul kerakmasdur...* deb boshlanuvchi 7 baytli g'azaliga Mutribning *Nega shod o'lg'um...* [N<sup>o</sup>1129 bayoz, 14<sup>b</sup>, 15<sup>a</sup>] deb boshlanuvchi devonda uchramaydigan yangi taxmis muxammasi kiritilgan.

Unga jami 7ta muxammas kiritilgan, shundan 6tasi forsiy, 1tasi turkiy tilda.

Shoir zamondoshlari — bo'lgan Tabibiy, Avaz va uning g'azallariga bir nechta taxmis muxammaslar bog'laganlar. Masalan, Tabibiy Mutribning *Noz ila aqlimni olg'on gul'uzorim sizmusiz...* [160<sup>a/b</sup>], Avaz O'tar ham Mutribning *Ne sabab bo'ldi bu tun bazmimg'a yorim kelmadi...* [125<sup>b</sup>, 126<sup>a</sup>] deb boshlanuvchi 7 baytli g'azaliga muxammas bog'langan.

Qo'lyozma muqovasi qora rangda, ustiga naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Qog'ozu havo rangda. Bayozning birinchi sahifasida ko'k, yashil, pushti ranglar bilan bezatilgan naqshinkor unvon mavjud. She'rlar qizil va ko'k rangli siyoh bilan ramkaga olinib, yaltiroq sariq rangli zar bilan jadval ichiga qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida yozilgan, ikki qator qiya holatda ko'chirilgan, har bir betga 20 satr she'r qilib joylashtirilgan. She'rlar raqamlangan, sarlavhalangan. O'lchovi 27x16,5. Bayoz 400 betdan iborat, manbaning boshida va oxirida 4 varaq bo'sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

**4. 1127-inventar raqamli "Bayozi muxammasot"**. Sultoniy,

Feruz shohi, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Amiriy, Inoyat, Ojiz, Niyoziy, Habib, Xokiy, Yusuf, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadim, Xodim, Chokar, Muznib, Soqiy, Umid, Mirzo, Niyoziy, Tabibiy, Avaz, Haqiriy kabi 35 shoirning muxammaslari kiritilgan.

Ushbu bayoz Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Muhammad Ya'qub tomonidan ko'chirilgan.

Asarning kolofoni quyidagicha yakunlanadi: *Alhamdulillah, val minna oliy hazrat rafi' manzilat sul-ton al-zamon boisi al-a-man va-l-amon a'ni abul uzaffar val-ansuri Abulg'ozii Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu taoliiy mulkahu va davlatahu zayyada umruhu ul oliy hazratning farmoni vojiblari bo'lib, bu bayozii muxammasotni faqir al-haqir Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot sana 1326 lanji yil muvofiq bijan yili mohi safaroni 22lanji Chahorshanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi.*

Ushbu bayozda Mutribning Feruz g'azallariga bog'lagan 7 baytli *Dedim: ko'zumni ravshan et, mehr-u jamoling ko'rsatib...* [N<sup>o</sup>1127, 23<sup>b</sup>, 24<sup>a</sup>], 11 baytli *Mango rahm aylab ul shirin zabon ohista-ohista...* [56<sup>b</sup>, 57<sup>a/b</sup>, 58<sup>a</sup>], 9 baytli *Yoqutdurmu bilmodim, yo la'l, yo jonon labing...* [111<sup>b</sup>, 112<sup>a/b</sup>], Ogahiyning 7 baytli g'azaliga *Vah, ne balodur bilmodim, ey dilrabo, qosh-u ko'zung...* [90<sup>a/b</sup>, 91<sup>a</sup>], deb boshlanuvchi taxmis muxammaslari ham joy olgan.

Yuqorida Feruz, Ogahiy g'azallariga bog'langan muxammaslarning barchasi devonda keltirilmagan yangi muxammaslardir.

Qo'lyozma o'yma naqshli och yashil rangdagi muqovada tarkibiga kirgan she'rlar sarg'ish yupqa Samarqand qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Har bir sahifadagi she'rlar sarg'ish yaltiroq ranglar bilan jadvalga olingan va qizil va tilla yaltiroq ranglar bilan bezatilgan. Jadval ichidagi she'rlar qiya qilib uch ustun shaklida ko'chirilgan, har bir sahifaga 20 satr muxammas joylashtirilgan. O'lchovi 26,5x15,5. Bayoz 308 betdan iborat, boshi va oxirida 3 (farzas) varaq bo'sh qoldirilgan.

Hozirda Mutribning 19 bayozda 1152 misra (1tasi 9 baytli, boshqalari 7 baytli g'azallar), 4ta "Bayozii muxamasot"da 240 misra (11ta muxammas, 7, 9, 11 baytli)<sup>1</sup>, Laffasiy tazkirasida 18 misra (9 baytli 1ta g'azal) devonga kiritilmagan she'ri aniqlandi va bir joyga

---

1 Laffasiy tazkirasiga Mutribning 18 misra (9 baytli 1ta g'azal) hamda toshbosma manbalarga (60 misralik), davriy nashr (gazeta, jurnal, to'plamlarga 169 misra) materiallariga kiritilgan yangi she'rlari ham bor. Bu haqida keyingi ishlarda ma'lumot beriladi.



to'plandi. Jami, 1400 misradan ortiq she'r 2679/II inventar raqamli qo'lyozma devonga kiritilmagani aniqlandi.

Muhammad Hasan Mutribning 1909-yili (yo'qolib ketgan) tuzilgan devon<sup>1</sup>iga shu she'rlaridan bir qanchasi kiritilganidir.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Xiva Ichan qal'a muzeyi, O'zRFA Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondida 2679/II inventar raqamda saqlanayotgan qo'lyozma devon hamda asosiy fondida saqlanayotgan 903/V, 906/VII inventar raqamdagi qo'lyozma devo'nlarini qiyosiy o'rganish, bayoz va majmualarga hamda davriy nashr materiallariga kiritilgan yangi g'azallarni tahlilga tortish shoir adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi. Manbalarning qiyosiy tadqiqi asosida ijodkor lirik asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish ishlari matnshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardandir. Bu kabi vazifalarning bajarilishi istiqbolda Muhammad Hasan Mutrib ijodiy merosining adabiyot tarixidagi o'ziga xos o'rnini belgilash va ijodkor mahorati sirlarini kashf etish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

Абдуллаев, В., Валихўжаев, Б. 1958. *“Улуғ Октябр сотсиалистик революциясининг арафаси ва гражданлар уруши даврида ўзбек поезияси”*. 3 — 9. Самарқанд: —ЎзДУ нашри.

Абдуғофуров, А. 2003. Мутриб Хонахаробий. №6, 165-166. Тошкент: *“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”* Давлат илмий нашриёти.

*Баёзи мухаммасот*. ЎзР ФА ШИ, Қўлёзма, №1131, №1134, №1129, №1127.

*Баёз*. ЎзР ФА ШИнинг асосий фондида сақланаётган қўлёзмалар: №1130, №1133, №1143, №1157, №1175, №1176, №1177, №1179, №1185, №1186, №1191, №2036, №1275, №6930, №7045, №2025, №2026, №6668, №1152, №1172, №1182, №1184, №1190, №1192, №1195, №1196, №6927, №6928, №6932, №6951, №6952, №6969, №6971, №6990, №7032, №2024.

*Баёз*. ЎзР ФА ШИ, Тошбосма, №27, №28, №29, №5854/3, №11238, №8734, №14420, №9543, №480, №12700, №479.

*Баёз*. Хива: Ичон қалъа. Қўлёзма, №5894/2, №5894/3, №5894/5, №5884/5.

Бобожон, Тарроҳ-Ходим. 2011. *Хоразм шоир ва навозандалари*. Тошкент: Тафаккур қаноти.

Бобохўжаев, А. 1964. *Йигирманчи йиллар ўзбек совет поезиясида*

---

1 N.Mallayev shaxsiy kutubxonasidagi devon nazarda tutilyapti.

- замонавийлик учун қураш, филол.фан.номз. дисс... . Тошкент.  
*Девони Мутриб Хонахароб. ЎЗР ФА ШИ, асосий фонд. Қўлёзма, №903-V.*  
*Девони Мутриб Хонахароб. ЎЗР ФА ШИ, асосий фонд. Қўлёзма, №906-VII.*  
*Девони Мутриб Хонахароб. ЎЗР ФА ШИ, Ҳ. Сулаймон фонди. Қўлёзма, №2679/II.*
- Жўрабоев, О. 2003. *Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси*, филол. фан.номз. дисс... . Тошкент.
- Лаффасий тазкиралари. Қўлёзма, №9494, №12561.*
- Маллаев, Н. 1957. *“Классик адабиёт бойликларини чуқур ўрганайлик ва кенг оммалаштирайлик”*. Ўқитувчилар газетаси, 12.
- Мўминов, Ғ. 1968. *Тардитсия ва маҳорат*. Тошкент: Фан.
- Пирназаров, М. 1973. *Мутриб Хонахаробийнинг ижодий йўли*, филол.фан. номз. дисс... . Самарқанд.
- Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистон, Литература (Диваны), Том I. 2017. Тошкент: Навруз.*
- Собрание восточных рукописей академии наук ССР. VII том. 1964. Тошкент: Фан.*
- Хоразм хабарлари (газета). 1921. 1922. 20, 26 сентябрдаги 24-, 25-сонлари; 7-, 10-, 14 октябрдаги 26-, 27-, 28-сонлари; 7, 30 ноябрдаги 4-, 7-сонлар, , 4 февралдаги 39-сонни.*
- Юнусов, М. 1965. *Тардитсия ва новаторлик проблемаси*. Тошкент: Фан.
- Юсупов, Ю. 1967. *Хоразм шоирлари*. Тошкент: Бадиий адабиёт.
- Юнусов, Ю. 1968. *“Эркни қуйлаган шоира”*. Ўзбекистон маданияти, 12 март 21(1255).
- Ўзбек адабиёти. 1968. Хрестоматия, V том, II китоб. Тошкент: Фан.*
- Ғанихўжаев, Ф. 1969. *Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди*, филол.фан. номз. дисс... . Тошкент.
- Шарафиддинов, О. 1967. *Йиллар ва йўллар. “Адабиётимизнинг ярим асри” мажмуаси, 172. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.*

**S. Madirimova**

(Tashkent, Uzbekistan)

madirimova@navoiy-uni.uz

## **A Scientific Description Of The Manuscripts Of Mutrib Khonakharobiy's Works**

### **Abstract**

This article is about the bilingual poet Mutrib Xonaxarab who had lived and had created at the end of the XIX century and at the beginning of the XX century and his lyric heritage sources. As such the information about his heritage which are kept to this period are gathered and they are researched in terms of textology and literary source study. The sources are compared and reflections are shown on the scientific bases.

In this article the main attention is focused on “Devoni Mutrib Xonaxarab” manuscripts’ studies under similar and unlike circumstances. The information about his biography and heritage indifferent sources — devons bayozes tazkiras are scientifically and monographically characterized. Poet’s lyric creations which were not shown in his devon are identified from the manuscripts and lithographic sources such as early press publication and the scientific reasonings about them are given.

Mutrib’s devons’ manuscripts’ sources are characterized according to the establishment, preservation, volume are attended. The new ghazals, which are not included in the devons, are identified in the bayozes, tazkiras.

The manuscripts sources in different manuscript funds, museums in our Republic are studied as classifying sources. For example, the manuscripts and lithographic sources which are kept in the museum of Ichan castle in Khiva, in Hamid Sulaymon and fundamental funds in the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan and the early press publication which are kept in the national publication fund of in the national library named after Alisher Navoi are used.

**Keywords:** *manuscripts, source, text, research, inventar number, basic source, auxiliary source.*

**About the author:** *Sohiba Madirimova* — doctoral student, Tashkent State University Of The Uzbek Language And Literature Named After Alisher Navoi.

**Recommended citation:** Madirimova, Sohiba. 2019. “Mutrib Xonaxarobiy asarlari qo’lyozmalarining ilmiy tavsifi”. *Oltin bitiglar* 3: 27—59.

## References

- Abdullayev, V., Valixojayev B. 1958. *“Ulug’ Oktyabr sotsialistik revolyusiyasining arafasi va grajdanlar urushi davrida o‘zbek poeziyasi”*. 3 — 9. Samarqand: —O‘zDU nashri.
- Abdug‘ofurov, A. 2003. *Mutrib Xonaxarobiy*. №6, 165-166. Toshkent: *“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”* Davlat ilmiy nashriyoti.
- Bayozi muxammasot*. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma, №1131, №1134, №1129, №1127.
- Bayoz*. O‘zR FA ShIning asosiy fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalar: №1130, №1133, №1143, №1157, №1175, №1176, №1177, №1179, №1185, №1186, №1191, №2036, №1275, №6930, №7045, №2025, №2026, №6668, №1152, №1172, №1182, №1184, №1190, №1192, №1195, №1196, №6927, №6928, №6932, №6951, №6952, №6969, №6971, №6990, №7032, №2024.
- Bayoz*. O‘zR FA SHI. Toshbosma, №27, №28, №29, №5854/3, №11238, №8734, №14420, №9543, №480, №12700, №479.
- Bayoz*. Xiva: Ichon qal‘a. Qo‘lyozma, №5894/2, №5894/3, №5894/5, №5884/5.
- Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Boboxo‘jayev, A. 1964. *Yigirmanchi yillar o‘zbek sovet poeziyasida zamonaviylik uchun kurash*, filol.fan.nomz. diss... . Toshkent.
- Devoni Mutrib Xonaxarob*. O‘zR FA SHI, asosiy fond. Qo‘lyozma, №903-V.
- Devoni Mutrib Xonaxarob*. O‘zR FA SHI, asosiy fond. Qo‘lyozma, №906-VII.
- Devoni Mutrib Xonaxarob*. O‘zR FA SHI, H. Sulaymon fondi. Qo‘lyozma, №2679.
- Jo‘raboyev, O. 2003. *Haziniy Xo‘qandiy hayoti va ijodiy merosi*, filol.fan.nomz. diss... . Toshkent.
- Laffasiy tazkiralari*. O‘zR FA SHI, Qo‘lyozma, №9494, №12561.
- Mallayev, N. 1957. *“Klassik adabiyot boyliklarini chuqur o‘rganaylik va keng ommalashtiraylik”*. O‘qituvchilar gazetasi, 12.
- Mo‘minov, G‘. 1968. *Tarditsiya va mahorat*. Toshkent: Fan.
- Pirnazarov, M. 1973. *Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo‘li*, filol.fan.nomz. diss... . Samarqand.
- Sobranie vostochnyx rukopisey akademii nauk Respubliki Uzbekiston, Literatura (Divany)*, Tom I. 2017. Toshkent: Navruz.
- Sobranie vostochnyx rukopisey akademii nauk SSR*. VII tom. 1964. Toshkent: Fan.
- Xorazm xabarlari (gazeta)*. 1921. 1922. 20, 26 sentyabrdagi 24-, 25-sonlari; 7-, 10-, 14 oktyabrdagi 26-, 27-, 28-sonlari; 7, 30 noyabrdagi 4-, 7-sonlar, 4 fevraldagi 39-soni.
- Yunusov, M. 1965. *Traditsiya va novatorlik problemi*. Toshkent: Fan.
- Yusupov, Yu. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent: Badiiy adabiyot.
- Yunusov, Yu. 1968. *“Erkni kuylagan shoira”*. O‘zbekiston madaniyati, 12 mart 21(1255).
- O‘zbek adabiyoti*. 1968. *Xrestomatiya*, V tom, II kitob. Toshkent: Fan.
- G‘anixo‘jayev, F. 1969. *Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi*, filol.fan.nomz. diss... Toshkent.
- Sharafiddinov, O. 1967. *Yillar va yo‘llar*. “Adabiyotimizning yarim asri” majmuasi, 172. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.

**D. Yusupova***(Toshkent, O'zbekiston)*

dilnavoz@navoiy-uni.uz

## **Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos bo'lgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili**

### **Abstrakt**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari uchun asos sifati xizmat qilgan nazariy manbalar qiyosiy o'rganilgan tahlil qilingan. Alisher Navoiyning ushbu asari mumtoz adabiyotning asosiy she'riy tizimi bo'lgan aruz nazariyasiga bag'ishlangan. Mutafakkir olim risolaning muqaddimasida o'zidan avval yaratilgan aruz ilmiga doir forsiy manbalar: Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlariga to'xtab o'tadi va o'z asarini yaratishdan avval ularni mutoala qilganini aytadi. Maqola muallifi Alisher Navoiyning aruz ilmidagi izdoshligi va kashshofligini o'rganish uchun bevosita “Mezon ul-avzon”ni ushbu forsiy tilda yaratilgan manbalar bilan qiyosiy jihatdan o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Maqolada bunday yo'nalishdagi tahlil aruzga doir asosiy birliklar: juzv, asl rukn, zihof, bahr va doiralar misolida amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** *aruz, juzv, rukn, sabab, vatad, fosila, vazn, taqti', bayt, misra, doira.*

**Muallif haqida:** *Dilnavoz Yusupova* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Tavsiya etiladigan havola:** Yusupova, Dilnavoz. 2019. “Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos bo'lgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili”. *Oltin bitiglar* 3: 60—80.

### **Kirish**

Bizgacha yetib kelgan rivoyatlar va jahon she’riyati tajribasidan ma’lumki, dastlabki she’rning asosini qo’shiq tashkil qilgan. Arab she’riyati ham dastavval ko’chmanchi, tuya boqish bilan shug’ullanuvchi arab qabilalari – *badaviylarda* vujudga kelgan. Arab tuyachilari tuya yurishini tezlatish uchun maxsus qo’shiqlar kuylaganlar va bu qo’shiqlar arab xalqlari orasida keng tarqalgan.

VIII asrga kelib arab olimlari orasida arab she’riyati va xalq og’zaki ijodi orasidagi munosabatni o’rganish, ularning muayyan qonuniyatlari va nazariy asoslarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug’ildi. Bu vazifa haqli ravishda “arab filologiyasining otasi” deb e’tirof etiluvchi olim Xalil ibn Ahmad (715/719–786/791) tomonidan amalga oshirildi [Frolov 1991, 186]. Aruzga doir tadqiqotlarda uning arab grammatikasi va arab she’riyati nazariyasiga doir ko’plab asarlar yaratgani e’tirof etiladi [To’ychiyeva 2018, 153-154]. Xalil ibn Ahmad filologik ilmlar bilan birgalikda, tafsir, hadis, kalom ilmlarini ham mukammal o’rganganligi, bu borada o’z davrining mashhur olimi Abu Amro ibn al-Alo’ga (771/776 v.e.) shogird tushganligi haqida ma’lumotlar bor [Toirov 1997, 15]. Shuningdek, u musiqa va matematika ilmlari bilan ham shug’ullanganki, bularning barchasi keyinchalik uning o’z davri uchun yangi bo’lgan she’riy tizim — aruz ilmining asoschisi bo’lishiga zamin hozirlagan.

Manbalarda Xalil ibn Ahmadning “Aruz risolasi” muallifi ekanligi aytiladi, lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan. Biz uning qarashlari bilan Xalil ibn Ahmaddan so’ng yaratilgan risolalar orqali tanishamiz, zero, ushbu mualliflar o’zlarini Xalil ibn Ahmadning vorislari va shogirdlari deb hisoblaganlar.

Xalil ibn Ahmaddan so’ng aruz ilmi uning shogirdi va izdoshi Abu Hasan Said ibn Mis’ad Axfash (826/836 v.e.) tomonidan davom ettirildi. Axfash o’zining “Kitob ul-aruz” asarida Xalil ibn Ahmad ta’limotidagi 15ta bahr yoniga, yana bir bahr (mutadorik)ni qo’shib, bahrlar sonini 16taga yetkazadi. Ushbu bahrni “Doirayi munfarida” tarkibiga kiritib, doira nomini “Doirayi muttafiqa” deb o’zgartiradi.

Axfashdan so’ng bu ta’limot arabnavis olimlardan Ibn Abdu Rabbihning “Al-iqd ul-farid”, Ibn as-Sarrojning “Me’yor fi-avzoni-she’r” (“She’r vaznlarining me’yori”), Sohib ibn Abbodning “Al-iqna” va “Al-Va’fa”, Abu Zakariyo al-Xatib Tabriziyning “Al-kafi fi-l aruz val-qavofiy” (“Aruz va qofiya haqida kifoya”), Ismoil Javhariyning “Aruz al-vurqatiy”, Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafotih ul-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”), Mahmud Zamaxshariyning “Al-Qistos al-mustaqim fi ilm-il-aruz” (“Aruz ilmiga doir haqiqiy mezon”) kabi asarlarida davom ettirildi.

Aruz ilmiy-nazariy ta'limot sifatida, ayniqsa, o'rta asr forsiy aruzshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda she'rshunoslikka doir o'nlab asarlar vujudga keldi. Ular orasida Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-Ajam" ("Ajam she'rlari me'yorlarining jamlanmasi"), Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" ("She'rlar me'yor"), Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" ("Qisqalarning jamlanmasi"), Yusuf Aziziyning "Aruz", Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy", Atoullloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" ("Badiiy san'atlar"), Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz", Muhammad G'iyosuddinining "G'iyos ul-lug'at" asarlari aruzning nazariy asoslari chuqur va batafsil tarzda bayon qilinganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Garchi ushbu risolalarda Xalil ibn Ahmad tomonidan bir tizimga keltirilgan aruz ilmi nazariy jihatdan mukammallashgan va kengaytirilgan bo'lsa-da, mualliflar kamtarlik yuzasidan o'z risolalarini ustozlari Xalil ibn Ahmad asarining bayoni yoki sharhi deb ta'kidlaydilar. Xususan, "Me'yor ul-ash'or"ning muallifi Nasiriddin Tusiy bu haqda shunday yozadi: "Aruziylarning odaticha, har bir vazni tushuntirishda misol tariqasida bayt keltiradilar. Va ular arab aruzidan aynan Xalil ibn Ahmad keltirgan baytni keltiradilar. Shu sababli biz ham ushbu baytlarni aynan o'zgarishsiz keltiramiz va u (Xalil ibn Ahmad) keltirgan zihoflar namunalarini qisqartirilgan holda beramiz... Biz ishni Tavit bahrini keltirishdan boshlaymiz, zero Xalil ibn Ahmad shu yo'ldan borgan va boshqalar ham unga ergashgan edilar" [Tusiy 1992, 52-53]. Ushbu fikrlardan ko'rinadiki, Xalil ibn Ahmaddan keyin yaratilgan arabiy va forsiy manbalarning aksariyatida "arab filologiyasining otasi"ga ergashish bor.

### **Turkiy aruzning vujudga kelishi**

Turkiy adabiyotda islomiyatdan avval o'ziga xos maxsus nazm texnikasi bo'lgan va bu tizim bo'g'inlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan she'rlarning aksariyat qismi to'rtliklardan iborat bo'lishi bilan ahamiyatli edi. Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari "Shohnoma" vaznida, ya'ni *mutaqorib* bahrinda yozilgan. Yusuf Xos Xojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida *mutaqorib* bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi bo'lmish barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda ham uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning

“Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ushbu o‘lchov to‘rtliklar shaklida ifoda etilgan.

Adabiyotshunoslikda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida barmoq vazni bilan birgalikda aruz vaznida yozilgan parchalar ham uchraydi, degan mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, tatar olimi X. Usmonov “Devonu lug‘otit turk”da aruz va barmoq qorishiq tarzda qo‘llanilgan degan fikrni bildirsa [Usmanov 1968, 52-53], M. Hamroyev asardagi barcha she‘riy parchalar barmoq vaznida yaratilgan deb hisoblaydi [Hamrayev 1963, 112]. M. Bakirov esa “Devon”dagi she‘rlarni aruzda ham, barmoqda ham emas, balki alohida she‘r sistemasida yaratilgan deb ta‘kidlab, mazkur she‘rlarni «kuchaytirilgan bosimli (urg‘uli) she‘rlar” deb ataydi [Bakirov 1972, 45]. I. V. Stebleva “Devon”dagi she‘rlarda aruz bor deb hisoblaydi va she‘riy parchalarning aruzga mos keluvchi taqti‘i (paradigmasi) ni keltiradi [Stebleva 1971, 21]. Aruzshunos olim U. To‘ychiyev ham “Devon”da aruz mavjudligi masalasiga ijobiy munosabat bildirib, shunday deydi:

“Biz “Devon”da aruz mavjud degan avval aytilgan fikrlarga qo‘shilamiz, chunki “Devon” XI asr obidasi va aruz bu davrda yozma adabiyotda to‘la hukm surar edi. Qolaversa, aruzga hamohang bo‘lgan she‘riy bayt va to‘rtliklar xalq maqol va topishmoqlari ichida ham ko‘p topiladi” [To‘ychiyev 1985, 155]. A. Hojiahmedov “Devon”dagi 224ta she‘riy parchaning vazn xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida mazkur she‘riy parchalarning aruzdagi — V — —, V — V —, — V V —, V V — —, V — — —, — V —, V — — turoqlariga mos keluvchi o‘lchovda yaratilganligini aniqladi. Olimning fikricha, “...qadimgi turkiy she‘riy o‘lchov tizimi cho‘ziq va qisqa hijolarning muayyan erkinlik bilan takrorlanishiga asoslangan” [Hojiahmedov 2006, 10]. Bizningcha ham, “Devon”dagi she‘riy parchalar aruzga mos keluvchi she‘riy sistemada yozilgan bo‘lib, cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlar orasidagi mutanosiblik aruz vazni talablariga mos keladi. “...Qadimgi turk she‘rlaridayoq vaznda bo‘g‘inlarning ochiq-yopiqqligini rioya qilish hollari uchrab turadi. Bu esa aruz vazni prinsiplaridan biridir” [Rustamov 1972, 4]. Demak, aruz tizimining turkiy adabiyotga kirib kelishi va ming yillarga yaqin vaqt davomida etakchi she‘riy tizimiga aylanishi sun‘iy ravishda sodir bo‘lmasdan, o‘ziga xos qonuniyatga ega ekan.

Temuriylar davriga kelib, turkiy aruzshunoslik alohida fan sifatida shakllandi va bu sohada ko‘plab yutuqlarga erishildi: yangi bahrlar, doiralar, vaznlar kashf etildi, aruz ilmiga yangi atama va tushunchalar olib kirildi, ushbu ilmning mohiyatini ochib berishga



qaratilgan risolalar yaratildi. Turkiy ijodkorlar: Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”)da aruz ilmiga doir nazariy qonun-qoidalar ishlab chiqildi.

Ushbu davr risolalarida ilk forsiy risolalardan farq qilib, bevosita Xalil ibn Ahmadga emas, uning izdoshlari asarlariga suyanish tamoyili boshlanadi. Har bir muallif o‘zlari istifoda etgan manbalarni ko‘rsatish asnosida muayyan tarzda aruz tizimiga o‘z yondashuvlarini ham keltirib o‘tganlar. Shu ma’noda ushbu davr aruzshunosligida qayd etilgan manbalarni o‘rganish va tadqiq qilish mumtoz olimlarimizning ushbu ilmdagi izdoshliklari va novatorliklarini aniqlashga imkon beradi. Shundan kelib chiqib, turkiy aruzshunoslikning taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan “Mezon ul-avzon”ning nazariy asosi bo‘lib xizmat qilgan manbalarni qiyosiy jihatdan o‘rganish muhimdir, zero buyuk mutafakkirning aruzshunoslikdagi o‘rni bevosita “Mezon ul-avzon” va unda istifoda etilgan manbalarning qiyosiy tadqiqi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, biz quyida tahlil qilmoqchi bo‘lgan risolalarning aksariyati adabiyotshunosligimizda zamonaviy she’rshunoslik nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmagan.

### **“Mezon ul-avzon”ning nazariy asoslari**

“Mezon ul-avzon” 1492–1493-yillari yaratilgan bo‘lib, muxtasar uslubda bitilgan. O‘rta asr adabiyotshunosligida fanning muayyan masalasi bo‘yicha risolalar muxtasar (ko‘zda tutilgan muammo yuzasidan umumiy, ixcham va lo‘nda ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi kichik risola) yoki mufassal (biror fan yoki uning muayyan sohasini mukammal tarzda yorituvchi monografik xarakterdagi yirik asar) usulida yaratilgan [Hojiahmedov 2006, 54]. Shu ma’noda Navoiyning ushbu asari aruz ilmi haqida umumiy va qisqa ma’lumot beruvchi, muxtasar risola hisoblanadi.

Navoiy turkiy tilda yaratilib, adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asari bilan tanish bo‘lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarni turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta’kidlaydi, xususan, “g‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi’ bo‘lubdur, anga zobitae va qonune yo‘q erkondur...” deb yozar ekan, turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo‘qligini aytib o‘tadi [Navoiy 2011, 535].

Alisher Navoiy muqaddimada o‘zidan avval yaratilgan aruzga

doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”, Shams Qays Roziyning “Al-mo’jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlariga to’xtalib o’tib, ularda mavjud bo’lmagan ba’zi qoida, doira va vaznlarni o’z asarida keltirib o’tishini aytadi. Ya’ni: “...necha qoidau doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan vozii Xalil ibni Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nasir Tusiyning “Me’yor u-l-ash’or”ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqadahu nuran “Aruz”larida yo’q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg’a izofa qildim” [Navoiy 2011, 544]. Navoiyning aruz ilmidagi izdoshligi va kashshofligini o’rganish uchun bevosita “Mezon ul-avzon”ni Shams Qays Roziyning “Al-mo’jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlari bilan qiyosan tadqiq etish maqsadga muvofiqdir<sup>1</sup>. E’tiborli jihati, bu olimlar orasida Shams Qays Roziy va Nasiruddin Tusiylar asli turkiylardan bo’lib, o’sha davr an’analari va faoliyat yuritgan muhitlari mezonlari asosida o’z asarlarini arab va fors tillarida yaratganlar. Ilmiy tadqiqotlarda Shams Qays Roziyning turk tili grammatikasi haqida Jaloliddin Xorazmshohga bag’ishlangan “Tib’yon ul-lug’at at-turki ala lison qang’li” (“Turk tilining qang’li tilidagi mufassal bayoni”) nomli asar ham yozganligi aytib o’tiladi [Buniyatov 1986, 115], bu ma’lumotlar muallifning turkiy tilni ham mukammal bilganligi, ehtimol asli kelib chiqishi turkiy bo’lganligi bilan bog’liq farazni ilgari surishga imkon beradi. “Nasiruddin Tusi haqli ravishda musulmon Renessansining bunyodkorlaridan sanaladi. O’z ijodiy merosi bilan u Yaqin va O’rta Sharq Renessansining uch mintaqasini — arab, fors va turkiy Renessansni birlashtirdi” [Ramiz 2013, 21]. Demak, ko’rinadiki, turkiy tilda yaratilayotgan “Mezon ul-avzon” uchun asli turkiy bo’lgan olimlarning asarlari muhim nazariy asos bo’lib xizmat qilyapti.

Dastlab aruzdagi eng kichik birlik — juzvlar talqinining qiyosi

---

1 Aruzshunos olimi M. Ziyovuddinova Alisher Navoiy bu sohada Yusuf Sakkokiyning “Miftoh al-ulum” va Qazviniyning “Talxis al-Miftoh” asarlari bilan ham tanish bo’lgan, deb hisoblaydi va dalil sifatida shoirning quyidagi baytini keltiradi:

*Band etibdur jadal ahli ishin ishkol, andoq,*

*Kim ne “Miftoh” anga sud qilur, ne “Talxis”* [Ziyaviddinova 1990, 8].

Bizningcha, bu fikr ilmiy asosga ega emas. Chunki Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” devonidan 272-raqamdagi g’azalda maqta’dan avval mav’iza tarzida kelayotgan ushbu baytda tilga olingan “Miftoh” asari Sadruddin Qo’naviy (vaf. 1274-75)ning Imom Faxruddin Roziy qalamiga mansub “Mafotih ul-g’ayb” asarining sharhi. “Talxis” esa ana shu asarning saralangan sharhidir. Orifona mazmun kasb etgan baytning ma’nosi unda aruz ilmiga doir asarlar emas, balki diniy-tasavvufiy asarlar tilgan olinayotganiga dalolat qiladi.

bilan tanishsak. Ma'lumki, **juzvi** (ar. bo'lak, qism, parcha, butun emas) — mutaharrik va sokin harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritmik bo'lak bo'lib, mumtoz aruzshunoslikda ba'zan "asl", ba'zan "rukn" atamasi bilan ham yuritilgan. Aruzga doir manbalarda keltirilishicha, Xalil ibn Ahmad aruz nazariyasidagi ushbu ritmik birlikni *juzv* deb atagan, keyinchalik forsiy aruzshunoslar uni turli nomlar bilan atay boshlaganlar. Shams Qays Roziyda bu istiloh "rukn", Nasiruddin Tusiyda "juzv" tarzida keltirilgan. Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz" asarida juzv tushunchasi rukn istilohi ostida beriladi: "Ammo bilgilki, aruz fanining arboblari she'r vaznlarining binosini uch rukndaniborat qildilar: sabab, vatad va fosila. Sabab ikki turlidir: biri sababi xafifbo'lib, bir mutaharrik va bir sokin harfdan tashkil topadi, "gul" va "mul" kabi. Yana bir sababi saqil bo'lib, u ikki mutaharrik harfdan iborat, "gala" va "gila" singari. Mazkur so'zlardagi "ho" harfi o'zidan oldingi harakatni ifoda qilish uchun yozilsa-da, talaffuzga kirmaydi" [Jomiy 2014, 10]. Jomiy bu o'rinda aruz tizimida yozuv emas, talaffuz birlamchiligiga diqqat qaratmoqdaki, bu holat taqti', xususan vaznni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy ham ulug' salafi Shams Qays Roziy va ustoz Abdurahmon Jomiy yo'lidan borib, juzv tushunchasini ular keltirgan "rukn" istilohi ostida izohlaydi: "aruz fani ahli nazm avzoni usulining binosin uch rukng'a qo'yubdurlarkim, alarni sabab va vatad va fosila debdurlar".

Navoiy ham juzvlar sonini 6ta deb keltiradi: *sababi xafif* va *sababi saqil* (yengil va og'ir sabab), *vatadi majmu'* va *vatadi mafruq* (birikkan va ajralgan vatad) hamda *fosilai sug'ro* va *fosilai kubro* (kichik va katta fosila)<sup>1</sup>.

Tushunchaga ta'rifda ham Navoiy risolasi Jomiydikiga yaqin turadi. Asarda sabab va vatad uchun 4tadan, fosila uchun ikkitadan (jami 20ta) misol keltirilgan. Navoiy ham Jomiy singari ushbu juzvlarning barchasi qatnashgan misra keltiradi:

*Ul ko'zi qaro dardu g'amidin chidamadim*

[Навоий 2011, 535].

Navoiyning fikricha, ushbu uch ruknlardan hech birini faqat bir ruknning o'zi bilan, ya'ni boshqa ruknlarni kiritmagan holda

<sup>1</sup> Aruzshunoslikda ushbu aruziy birlik bilan bog'liq ixtilofli fikrlar bor. Xalil ibn Ahmadning shogirdi, arab olimi Axfash, Nasiruddin Tusiy, Atouloh Husayniy, Bobur kabi olimlar juzvlar orasida fosila ortiqcha, uning aruz ilmi uchun ahamiyati yo'q degan fikrlarni keltiradilar. Navoiy esa ushbu bahsli masalaga to'xtalmaydi.

qo'llash tab'ga ma'qul emas: "Va mavzun kalom ta'lif bu arkonning hech qaysini to yana birig'a murakkab qilmag'aylar, mustahsan tushmas. Ne sababdin, andoqkim,

bayt:

*Ey oy, kelkim, yoringdurmen,*

*Furqat shomi zoringdurmen* [Навойй 2011, 536]

Juzvlar ta'rifidan keyin asl ruknlar bilan bog'liq tahlillarga o'tiladi. Ma'lumki, yuqorida tilga olganimiz juzvlar asosida sakkizta arkon (asl ruknlar) paydo bo'ladi. Mazkur sakkiz ruknni aruz ilmida *ajzoyi afo'il* deb ataganlar. Ular quyidagilardir:

1. Fauvlun (فَعْوَلُنْ) — bir vatadi majmu' (V —) "فَعْوُ" (*fauv*) va bir sababi xafif (—) "لُنْ" (*lun*) dan iborat bo'ladi (V — —).

2. Foilun (فَاعِلُنْ) — bir sababi xafif (—) "فَا" (*fo*) va bir vatadi majmu' (V —) "عِلُنْ" (*ilun*) dan tarkib topadi (— V —).

3. Mafoiylun (مَفَاعِيْلُنْ) — bir vatadi majmu' (V —) "mafo" va bir sababi xafif (—) "iy" hamda yana bir sababi xafif (—) "lun" dan tarkib topadi (V — — —).

4. Mustaf'ilun (مُسْتَفْعِلُنْ) — ikki sababi xafif (— —) "mustaf" va bir vatadi majmu' (V —) "ilun" dan tashkil topadi (— — V —).

5. Foilotun (فَاعِلَاتُنْ) — bir sababi xafif (—) "fo", bir vatadi majmu' (V —) "ilo" va bir sababi xafif (—) "tun" dan tarkib topadi (— V — —).

6. Mafoilatun (مَفَاعِلَاتُنْ) — bir vatadi majmu' (V —) "mafo" va fosilai sug'ro (VV —) "ilatun" dan tashkil topadi (V — VV —).

7. Mutafoilun (مُتَفَاعِلُنْ) — bir fosilai sug'ro (VV —) "mutafo" hamda bir vatadi majmu' (V —) "ilun" dan iboratdir (VV — V —).

8. Maf'uvlotu (مَفْعُولَاتُ) — ikki sababi xafif (— —) "maf'uv" va bir vatadi maf'ruq (— V) "lotu" dan tarkib topadi.

Risolalarda mualliflar har bir ruknning tarkibini tahlil qilib, ularni nechta sabab, nechta vatad hamda nechta fosiladan tashkil topganligini bayon etadilar. Mazkur bayonlar orasida deyarli ixtiloflar yo'q. Shams Qays Roziy va Nasiruddin Tusiy risolalarida 10ta asl rukn haqida so'z boradi. Tusiyning fikriga ko'ra, asliy ruknlar arab aruzida suratda o'nta, haqiqatda esa sakkiztadir. Forsiy aruzda esa asliy ruknlar haqiqatda yettita, suratda esa beshtadir. Ushbu besh asliy rukn (*fauvlun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'uvlotu*) she'riyatda musta'mal, ya'ni keng iste'molda bo'lib, *mafoilatun, mutafoilun* nomusta'mal, ya'ni keng qo'llanilmagan [Tusiy 1992, 30].

Abdurahmon Jomiy o'z risolasida ushbu ruklardan faqat beshtasiga to'xtalib o'tib, bu besh asl forsiy she'r uchun mos

ekanligini ta'kidlaydi va qolgan beshtasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bilmaydi [Jomiy 2014, 12]. Alisher Navoiy ham "Mezon ul-avzon" da ustoz Jomiy izidan borib, forsiy va turkiy she'riyatda qo'llanilgan asliy ruknlargana to'xtab o'tishini ta'kidlaydi: "Va ulcha bu sekkiz usuldin forsiy she'rda kasirul-vuqu'dur — beshdur: 1) mafo'ilun, 2) va fo'ilotun, 3) va mustaf'ilun, 4) va maf'ulotu, 5) va fa'ulun. Va turkcha she'rda ham ulcha mulohaza qililibdur, bu arkondin o'zga vuqu' topmas, magar takalluf bila. Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayyurlar sababidinki, ani aruziylar "zihof" derlar, hosil bo'lur" [Navoiy 2011, 12].

Mazkur asllar ta'rifidan keyin ulardan hosil bo'luvchi zihof (asl ruknlarni turlicha o'zgartirish) va furu' (tarmoq ruknlar)ga to'xtalib o'tiladi. Navoiyda ham, Jomiyda ham zihoflar soni teng, ya'ni 32ta. Agar asliy ruknlar kesimida takror qo'llanganlari bilan hisoblasak, zihoflar soni 45ta, furu'lar miqdori 60 ta ekanligi ma'lum bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

1-jadval

**Navoiy va Jomiy risolalarida zihof va furu'lar**

<b>T.r</b>	<b>Asliyruknnomi</b>	<b>Zihoflar</b>	<b>Furu'lar</b>
1.	Mafoiylun	11	11
2.	Foilotun	10	15
3.	Mustaf'ilun	9	14
4.	Maf'uvlotu	9	14
5.	Fauvlun	6	6
	<b>Jami</b>	<b>45</b>	<b>60</b>

Agar zihoflar "Al-mo'jam" da 35ta, "Me'yor ul-ash'or" da 34ta ekanligini hisobga olsak, bu masalada ham har ikki olimning o'zaro hamfikir ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Risolalarda bahr va vaznlar tahlilidan oldin *taqti'* bilan bog'liq tushunchaga to'xtab o'tiladi. Taqti' (ar. "kesish", "parchalash") aruzshunoslikda she'r vaznini aniqlash uchun baytni ruknlarga ajratish bo'lib, mumtoz she'rshunoslikda taqti'ga vaznni belgilashning muhim uchuli sifatida qaralgan. "Taqti'ni bilmagan kishi baytni ruknlarga parchalay olmaydi, she'rning vaznini to'g'ri belgilashi qiyin... Taqti' yozuv, orfografiya va talaffuz normalari, til tarixi bilan uzviy bog'liqdir; ayniqsa, fonetika, vazn va nutq aloqasini aniqlashda uning ahamiyati kattadir" [To'ychiev 1985, 80].

Taqti' bilan bog'liq e'tiborli fikrlar Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz" va Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarlarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, Navoiy taqti'ga shunday ta'rif beradi:

“She’r taqti’i iborat andindurkim, bayt alfozini bir-biridin ayirg’aylar, ul nav’kim, baytning har miqdori teng tushgay ul bihorning afo’iyolidin birigakim, ul bayt bahrda voqi’dur...” [Навойй 2011, 545]. Taqti’ ta’rifidan so’ng har ikki muallif kitobat (yozuv)da bor, lekin lafzda (talaffuz)da hisobga olinmaydigan ba’zi harf va harfiy birikmalarga e’tibor qaratadilar. Ulardan biri “vov”i atf (“va” bog’lovchisi) bo’lib, jumlar orasida kelganda u tarzida o’qiladi. Masalan, “gulu lola”, “jonu jahon”. Shuningdek, “nun” harfi “xun”, “xon”, “don” so’zlarida taqti’ga kirmaydi. Lekin ushbu jumlar izofa yoki “a”, “u”, “yo” unillarini qabul qilsa (“xu-ni”, “xo-ni”, “do-ni” singari), taqti’ga daxldor bo’ladi yoki “dast”, “mast”, “guft” kabi jumlar uch undosh va bir unli harfdan iborat bo’lib, bunda ikkinchi qator undosh, ya’ni “t” harfi qisqa hijo hisoblanadi. Ushbu jumlar misra o’rtasida kelsa, “t” harfidan so’ng qisqa “i” unlisi talaffuz etiladi. Agar ushbu jumlar misra oxirida kelsa, sokin harf tarzida talaffuz qilinadi.

Forsiy tilda ba’zan vazn talabi bilan o’ta cho’ziq hijo oxirida keluvchi qator undoshlar (masalan, “do’st”, “rost” so’zlarida) bir cho’ziq va ikki qisqa hijo o’rniga o’tadi. Shunda taqti’ quyidagicha bo’ladi:

*do’st,      rost*  
— V V    — V V

Ko’rinadiki, aruziy matnda she’r taqti’i bilan bog’liq o’rinlarda asosiy e’tibor yozuvga emas, balki talaffuzga qaratiladi va aruzshunos olim, shoir yoki ijodkor matn bilan ishlashda kitobat (yozuv)da bor, lekin lafzda (talaffuz)da hisobga olinmaydigan harf va harfiy birikmalarni nazardan soqit qilmasligi talab etiladi.

“Mezon ul-avzon”da zihoflar bilan bog’liq fasldan so’ng doiralari ta’rifiga o’tiladi. *Aruz doiralari* bu ruknlar, ulardagi cho’ziq va qisqa hijolar sonining tengligiga ko’ra o’zaro yaqin bo’lgan bahrlarning guruhlashtirilgan aylanasi bo’lib, “arab filologiyasining otasi” bahrlarning o’zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida ushbu doiralarni kashf qilgan. Bunda bir-biriga yaqin bo’lgan bahrlar bir misra she’r misolida bir doira ichida keltiriladi. Har qaysi doira qancha bahrni o’z ichiga olsa, shuncha bo’lakka bo’linadi va ularda shu bahrlarning ruknlari ham keltirib o’tiladi. Doira atrofida berilgan misrani birinchi so’zdan boshlab o’qilsa, bir bahr; ikkinchi so’zdan boshlab o’qilsa, ikkinchi bahr, uchinchi so’zdan boshlab o’qilsa, uchinchi bahr va shu tarzda nechta bahr jamlangan bo’lsa, barchasi kelib chiqadi. Doiralardan maqsad bahrlar orasidagi farq va umumiylikni ochish hamda shu bilan birga ularni o’zlashtirish va

she'r vaznlarini aniqlashni osonlashtirishdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, doiralar bir-biriga yaqin bahrlardan tuzilishi zarur. Shu ma'noda forsiy va turkiy aruzda keng qo'llanilgan *Hazaj*, *Rajaz* va *Ramal* bahrlarini bir doiraga kiritish mumkin. Chunki ular tarkiban (mumtoz aruzshunoslikka ko'ra, vatad va sabablarning tengligi bo'yicha; zamonaviy aruzshunoslik asosida fikr yuritadigan bo'lsak, hijolar miqdori va sifatining o'xshashligiga ko'ra) bir xil asosga egadirlar. Masalan, Navoiy keltirgan

*Ko'ngul qon bil visolingda, g'ami hijron xayolidin*

misrasini aynan shu tartibda o'qisak, *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun* ruknlaridan tashkil topuvchi ramal bahri, agar:

*Qon bil visolingda, g'ami hijron xayolidin ko'ngul*

tarzida o'qilsa, *mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun* ruknlaridan hosil bo'luvchi rajaz bahri hamda

*Bil, visolingda g'ami hijron xayolidin ko'ngul qon*

tarzida o'qilsa, foilotun foilotun foilotun foilotun ruknlari takroridan yasaluvchi ramal bahri hosil bo'ladi.

Manbalarda Xalil ibn Ahmad beshta doira kashf etganligi haqida ma'lumot beriladi [Zamaxshariy 1989, 16; Tabriziy 1991, 248; Shams Qays 1991, 37]. Ta'kidlanganidek, uning aruzga bag'ishlangan asari bizgacha yetib kelmaganligi uchun biz bu doiralar bilan uning izdoshlari asarlari orqali tanishamiz. Xalil doiralari haqida Mahmud Zamaxshariyning "Al-qistos" hamda Xatib Tabriziyning "Al-kafiy fil aruz fil-qavofiy" ("Aruz va qofiyalardan kifoya etuvchi") asarlarida ma'lumot keltiriladi. Ulardan birinchisi "Doirayi muxtalifa" (*turli xil, ixtilofli*) deb nomlangan bo'lib, *Tavil*, *Madid* va *Basit* bahrlarini o'z ichiga oladi. Mazkur doiraning bu tarzda nomlanishiga sabab ushbu bahrlar turli, ya'ni ikki xil asliy ruknlardan tarkib topadi. Xususan, *Tavil* fauvlun ( $V - -$ ) va mafoiylun ( $V - - -$ ), *Madid* foilotun ( $-V - -$ ) va foilun ( $- V -$ ), *Basit* mustaf'ilun ( $- -V -$ ) va foilun ( $- V -$ ) ruknlarining o'zaro almashinib takrorlanishiga asoslanadi. Xalil ibn Ahmad ta'limotidagi ikkinchi doira "Doirayi mushtabiha" bo'lib, u *hazaj*, *ramal* va *rajaz* bahrlaridan tuzilgan. Qolgan doiralar: "Doirayi mu'talifa", "Doirayi mujtaliba" va "Doirayi muttafiqa" ham o'z

navbatida bir-biriga yaqin bahrlardan tarkib topganlar<sup>1</sup>.

“Al-mo‘jam”dan boshlab Xalil ibn Ahmad doiralariga nisbatan ijodiy munosabat kuzatiladi. Muallif “arab filologiyasining otasi” ta’limotidagi dastlabki ikki: arab aruziga xos bo‘lgan doiralarni tark etib, qolgan uchta doiraga o‘zgarishlar kiritadi va ularning nomlarini ham o‘zgartiradi. “Me’yor ul-ash’or” asarining muallifi esa o‘zini Xalil ibn Ahmadning forsiy izdoshi sanab, u kashf qilgan doiralarni asosan saqlab qoladi, faqat ularning tarkibiga keyinchalik forsiy aruzshunoslar tomonidan kashf qilingan yangi bahrlarni ham kiritadi.

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida jami 7ta doira keltirilgan. Ulardan to‘rttasi Navoiygacha yaratilgan fors-tojik risolalari, jumladan, “Al-mo‘jam” va “Risolayi aruz”da mavjud edi. Bular: “Doirayi *mu’talifa*” (ramal, hazaj va rajaz bahrlaridan tuzilgan), “Doirayi *muxtalifa*” (muqtazab, mujtass, munsarih va muzori’ bahrlaridan tuzilgan), “Doirayi *muntazia*” (*Mushokil, Sari’, Jadid, Qarib* va *Xaffif* bahrlaridan tuzilgan), “Doirayi *muttafiqa*” (mutaqorib va mutadorik bahrlaridan tuzilgan). Abdurahmon Jomiy doiralar masalasida Shams Qays Roziyga izdoshlik qiladi. Doiralar nomlanishi va bahrlar tarkibi “Al-mo‘jam” bilan bir xil. Lekin Nasiruddin Tusiy masalaga o‘zgacharoq yondashgan. Uning asarida 5ta doira keltirilgan bo‘lib, Shams Qays Roziyda keltirilmagan va arab aruziga xos bo‘lgan tavil, madid, basitga qo‘shimcha tarzda yana ikki bahr: maqlubi tavil (ariz) hamda maqlubi madid (amiq) bahrlarini o‘z ichiga oluvchi “Doirayi *muxtalifa*” ham berilgan. Nomlanish jihatdan bu doira Roziy va Jomiy doiralarini eslatadi, lekin tarkib jihatidan ulardan farq qiladi, boshqacha aytganda, “Al-mo‘jam” va “Risolayi aruz”da keltirilgan “Doirayi *muxtalifa*” butunlay boshqa doiradir.

Navoiy risolasida keltirilgan 5-doira bevosita olimning o‘zi tomonidan tartiblangan. Bu doirani tuzishda Navoiy “Doirayi *muxtalifa*”dagi 4 bahr va “Doirayi *muntazia*”dagi 5 bahr — jami 9 bahrning solim (ya’ni zihof kirmagan, o‘zgarishga uchramagan)

---

<sup>1</sup> Ushbu doiralardan faqat “Doirayi *muttafiqa*” yagona bahrdan tarkib topgan. Atulloh Husayniyning yozishicha, doirada faqat bir bahr joylashgani uchun ba’zi olimlar “arab filologiyasining otasi”ga *Mutaqorib*dan yana bir bahr chiqarishni taklif qilganlar: “Xalildin so‘rupturlarkim, nega fauvlunning sababin vatadidin oldin qo‘yub, sekiz bor foilunlig’ bahr chiqarmapturlar? Javob beripturkim, chunki ibtido intihodin kuchligrak bo‘lmog’i keraktur. Bu doiraning ruknlari faqat vatad-u sababdin iborat bo‘lg’ani uchun ibtidosin zaif qilmoqtin va mutaqorib tartibining aksincha yakka sababni yakka vatad oldig’a qo‘yub bir bahr chiqarmoqtin tiyinipturlar”. Bu o‘rinda Xalil ibn Ahmad *Mutaqorib* bahrining asl rukni *fauvln* (V - -) bir vatad (“*fauv*” V -) hamda bir sabab (“*lun*” -)dan iborat ekanligiga diqqat qaratmoqda. Agar undan *foilun* (- V -)ni chiqarsalar, bir sabab (“*fo*” -) oldinga o‘tib, vatad (“*ilun*” V -) orqaga o‘tib qoladi va bu “ibtidoning intihodan zaif” bo‘lishiga olib keladi.



ruknlarni jamlab, ularni bir doiraga kiritadi va bu doirani “*Doirayi mujtamia*” deb ataydi: “Bu mazkur bo’lg’an to’qquz asl bahrning soliminiki, zihofot duxulidin salomat qolmish bo’lg’aylar, bir doirayi azimada jam’ qilib, har birining o’rnig’a alohida misol kelturub, to’qquztasini yana bir misra’din ham istixroj qilib, ul “*Doirayi mujtamia*” deyildi va bu doira rasmi zamon zurafosidin ba’zining xayoliga kelib erdi, ammo faqir anga tartib berdim” [Navoiy 2011, 545]. Bobur “*Aruz risolasi*”da ushbu doira Tusiyning risolasida bor edi, Navoiy uni o’ziga nisbat bergan degan mazmundagi ma’lumotni keltiradi [Bobur 1971, 30]. Aslida, Tusiy risolasida ushbu bahrlardan hosil bo’luvchi doira keltirilmagan: Tusiy ushbu doiralarning musaddas shaklidan ham bir doira tartib berish mumkin deydi, lekin doiraning o’zini keltirmaydi [Tusiy 1992, 35].

6-doira “*Doirayi muxtalita*” deb atalib, bu doiraga Navoiy komil va vofir bahrlarini kiritadi va mazkur bahrlarning matbu’ (yoqimli) bahrlar ekanligini, lekin negadir ularda kam she’r yozilganligini ta’kidlab o’tadi. 7-doira “*Doirayi mushtabiha*” esa uch — taval, madid va basit bahrlaridan tuzilgan. Navoiyning yozishicha, bu bahrlar arab adabiyotiga xos bo’lib, ajam she’riyatida deyarli qo’llanilmagan va maxsus doiraga kiritilmagan.

Keyingi masala bevosita bahrlar talqini bilan bog’liq. Ma’lumki, aruz tizimida ruknlarning o’zaro birlashuvidan bahrlar hosil bo’ladi. “Navoiy ham, Bobur ham o’z risolalarida zihof va rukndan keyin turuvchi asosiy masala vazn emas, balki bahr ekanligini alohida ta’kidlab o’tganlar. Bu holat o’zbek aruzshunosligiga arab va fors aruzshunosligidan an’ana sifatida o’tgan” [To’ychiev 1985, 74]. Darhaqiqat, temuriylar davrigacha yaratilgan barcha risolalar, jumladan bu davr aruzshunosligi uchun asos bo’lgan nazariy manbalarda ham asliy ruknlar va zihoflar masalasidan so’ng bahrlar tavsifiga o’tilgan.

Aruzga doir manbalarda bahrlar soni turlicha ko’rsatilgan. Agar Xalil ibn Ahmad yaratgan aruz tizimida 15ta bahr (*taval, madid, basit, vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, sari’, munsarih, muzori’, xafif, muqtazab, mujtass va mutaqorib*) mavjud bo’lsa, keyinroq uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy (835 yilda v.e.) yana bir bahr (Mutadorik)ni kashf qiladi va shu tariqa arab bahrlari soni 16taga yetadi. Forsiy aruzshunoslar ushbu bahrlar qatoriga yana uch bahr: Jadid (G’arib), Qarib va Mushokilni qo’shadilar va natijada jami bahrlar soni 19taga yetadi. Forsiy aruzga doir bizgacha etib kelgan ilk nazariy manba “*Al-mo’jam*”da Shams Qays Roziy ushbu 19 bahrni *mutaqaddim* (avvaldan mavjud) bahrlar tarzida e’tirof etib, ularning

har birini misollar bilan izohlaydi. Asarda mazkur bahrlar tavsifidan so‘ng alohida faslda yana 21 bahrning nomi keltirilib, muallif ularni *mustahdas* (yangi bunyod qilingan) bahrlar deb ataydi. Shams Qaysning fikricha, ular forsiy aruzshunoslar Bahrom Sarahsiy va Buzurgmehr Qosimiy tomonidan kashf qilingan. Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarida esa 18 bahr keltirilgan va unda avvalgi risolaga kiritilmagan *maqlubi tavil* bahrining berilishi hamda *mushokil* va *g’arib* bahrlarining tushib qoldirilishi muallifning ushbu masalaga o‘z salafidan ayri munosabatda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Abdurahmon Jomiy masalaga bir oz o‘zgacharoq yondashib, “Risolayi aruz”da 14 bahrni misollar bilan izohlaydi, arab aruziga xos bo‘lgan tavil, komil, basit, madid, vofir bahrlariga keng to‘xtab o‘tirmaydi. Risolada forsiy aruzga xos 14 bahr musamman, musalddas va murabba’ ruknli vaznlar asosida forsiy baytlar misolida ko‘rsatib berilgan. Ushbu bahr va vaznlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

2-jadval

**Jomiyning “Risolayi aruz”ida keltirilgan bahrlar va vaznlar miqdori**

№	Bahr nomi	Vaznlar soni			Jami
		Musamman ruknli vaznlar	Musaddas ruknli vaznlar	Murabba’ ruknli vaznlar	
1.	<i>Hazaj</i>	10/24 ruboiy vaznlari	14	4	52
2.	<i>Rajaz</i>	7	6	2	15
3.	<i>Ramal</i>	7	5	2	14
4.	<i>Munsarih</i>	7	2	2	11
5.	<i>Muzori’</i>	8	4	-	12
6.	<i>Muqtazab</i>	2	-	4	6
7.	<i>Mujtass</i>	7	-	2	9
8.	<i>Sari’</i>	-	6	-	6
9.	<i>Jadid</i>	-	1	-	1
10.	<i>Qarib</i>	-	3	-	3
11.	<i>Xafif</i>	1	7	-	8
12.	<i>Mushokil</i>	1	1	2	4
13.	<i>Mutaqorib</i>	7	2	-/Mutatavval	10
14.	<i>Mutadorik</i>	4	2	-	6
	<b>Jami</b>	<b>85</b>	<b>53</b>	<b>19</b>	

Alisher Navoiy ushbu masalada ham ustoz Jomiy izidan borib,

bahrlarni umumiy tarzda 19ta deb keltiradi. Lekin uning risolasida Jomiy risolasida keng tahlil etilmagan arabiy bahrlarga ham to'xtalib o'tilgan. Chunki Navoiy ushbu bahrlarning aksariyatida, xususan, komil va tavil bahrlarida turkiy tilda g'azallar yozish mumkin deb hisoblaydi. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida komili musammani solim vaznida bitta, tavili musammani solim vaznida yozilgan uchta g'azal mavjud.

"Mezon ul-avzon" da keltirilgan bahrlar va vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

3-jadval

**"Mezon ul-avzon" da keltirilgan bahrlar va vaznlar miqdori**

№	Bahr nomi	Vaznlar soni			Jami
		Musamman ruknli vaznlar	Musaddas ruknli vaznlar	Murabba' ruknli vaznlar	
1.	<i>Hazaj</i>	11/24 (ruboiy vaznlari)	10	1	46
2.	<i>Rajaz</i>	6	6	1	13
3.	<i>Ramal</i>	7	4	2	13
4.	<i>Munsarih</i>	8	3	2	13
5.	<i>Muzori'</i>	8	5	-	13
6.	<i>Muqtazab</i>	2	1	4	7
7.	<i>Mujtass</i>	7	1	2	10
8.	<i>Sari'</i>	-	6	-	6
9.	<i>Jadid</i>	-	2	-	2
10.	<i>Qarib</i>	-	4	-	4
11.	<i>Xafif</i>	-	6	-	6
12.	<i>Mushokil</i>	1	2	2	5
13.	<i>Mutaqorib</i>	8	2	- /Mutatavval	10
14.	<i>Mutadorik</i>	4	3	-	7
15.	<i>Komil</i>	1	-	-	1
16.	<i>Vofir</i>	1	-	-	1
17.	<i>Tavil</i>	1	-	-	1
18.	<i>Madid</i>	1	-	-	1
19.	<i>Basit</i>	1	-	-	1
	<b>Jami</b>	<b>91</b>	<b>55</b>	<b>14</b>	<b>160</b>

Alisher Navoiy risolasida vaznlar turkiy tildagi baytlar

(asosan o‘z ijodi hamda Xoja Ismat Buxoriy, Husayniy qalamiga mansub baytlar) bilan dalillangan. “Risolayi aruz”da ham keltirilgan baytlar asosan forsiyda (“Al-mo‘jam”dan, Rudakiy, Anvari, Hofiz Sheroziy, Salmon Sovajiy, Nizomiy Ganjaviy, Xoja Ismat Buxoriydan keltirilgan baytlar va o‘z ijodi mahsuli). Nasiruddin Tusiy risolasida forsiy baytlar bilan birga arab tilida (Xalil ibn tomonidan berilgan) ham misollar keltirilgan edi.

Temuriylar davridan boshlab aruzga doir risolalarda ruboiy vaznlariga alohida o‘rin ajratila boshlandi. Bu bevosita Jomiy va Navoiy asarlari uchun ham xosdir. Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarida ruboiy vaznlari alohida doira suratida keltirilib, muallif ruboiyni “dubaytiy” va “tarona” nomi bilan ham atashlarini ta’kidlaydi: “Dubaytiy, uni ruboiy va tarona deb ham ataydilar, o‘lchovini *Hazaj* bahrining *axram* — *maf’uvlun* va *axrab* — *maf’uvlu* vaznlaridan chiqarmishlar. Bag‘oyat dilkash vazn va xush nazm bo‘lib, nazm ustodlari unga muayyan andoza (daraja) belgiladilar. Ruboiy juda latif bo‘lganidan uning latofati ikki baytni taqozo qildi va u yigirma to‘rt nav’ bo‘lib, ikki qismga mansubdir: Biri *maf’uvlun* rukni bilan boshlanib, *axram* deb ataladi. Ikkinchisi esa *axrab* bo‘lib, *maf’uvlu* bilan boshlanadi va o‘n ikki nav’ni o‘z ichiga oladi. Har bir qism vaznlaridan uch ruboiy tashkil topadi” [Jomiy 2014, 37].

Jomiy *axram* shajarasi uchun ham, *axrab* shajarasi uchun ham 3tadan ruboiy keltirgan bo‘lib, ularning har bir misrasi alohida vaznga ega. Alisher Navoiyning ruboiy vaznlariga munosabati Abdurahmon Jomiyningkiga yaqin turadi. Navoiy ham ruboiy vaznlarini *hazaj* bahri tarkibida keltirib, shunday yozadi: “Ruboiy vaznikim, ani “du baytiy” va “tarona” ham derlar, *hazaj* bahriniig “*axram*” va “*axrab*”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va nazmedur bag‘oyat raboyanda. She’r avzonidin ushbu vazndurkim, nazm ustodlari anga hadde muayyan qilibdurlar va g‘oyat latofatidin ikki baytg’a ixtisor qilubdurlar va ul yigirma to‘rt nav’ kelibdur va majmu’i ikki qismg’a muxtasardur” [Navoiy 2011, 551]. “Mezon ul-avzon”da ham xuddi Jomiy risolasi singari ruboiy vaznlarining har bir shajarasi uchun 3tadan, jami 6ta ruboiy keltirilgan.

Bobur “Boburnoma”da Navoiyning “Mezon ul-avzon”da keltirgan ruboiy vaznlari haqida fikr yuritib, “yigirma to‘rt ruboiy vaznida to‘rt vaznda g‘alat qilibdur”, deb yozadi [Bobur 1990, 35]. Bu fikr keyinroq “Aruz risolasi”da ham aytib o‘tiladi. Boburning “Aruz risolasi” bo‘yicha izlanishlar olib borgan olim S. Hasanov Bobur “Boburnoma”da Navoiyning ruboiy vaznlari haqida tanqidiy fikrlar aytgan, lekin “Aruz risolasi”da bu haqda hech nima demaganligi

haqida yozadi: “Fikrimizcha, Bobur “Mezon ul-avzon”ning xattot tomonidan yanglish ko‘chirilgan nusxasidan foydalangan bo‘lishi kerak, keyinchalik esa mazkur ruboiy vaznlarida nuqsonlar yo‘qligini aniqlagach, bu haqda gapirmaydi” [Hasanov 1981, 70]. Lekin Boburning “Aruz risolasi”da Bobur bu fikrlarini yanada konkretlashtirganligini ko‘rish mumkin:

“Axram avzonining rubo‘iylarida axrami axrabi azall vazni mukarrar bo‘luptur, nechukkim bu ikki misra’ o‘shal vazndadur.

*Ko‘z istarkim ko‘rsa jamolingni to‘q,  
Kim hajring ko‘p urdi bu ko‘ksurga o‘q.*

Maf‘uvlun maf‘uvlu mafo‘iylun fo‘ bo‘lg‘ay. Bu vaznkim maf‘uvlun fo‘ilun mafo‘iylun fo‘ axrami ashtari azall vaznidur, aytilmaydur. Axram avzonining rubo‘iylarida bir axrabi majbub vazni mukarrar bo‘lubtur. Nechukkim bu ikki misra’ o‘shal vazndadur:

*Tan o‘lsa g‘aming ichra ichra jonimg‘a fido,  
Ey sho‘x bizing sori bir ayla nazar.*

Maf‘uvlu mafo‘iylun maf‘uvlu fa‘ul bo‘lg‘ay. Yana bir axrabi maqbuzi majbub vazni mukarrar bo‘luptur, nechukkim bu ikki misra’ o‘shal vaznda voqi‘ bo‘lubtur:

*Javrungni ko‘nulg‘a ey parivash qil bas,  
Kim holimg‘a rahmkim erurmen bekas.  
Maf‘uvlu mafo‘ilun mafo‘iylun fa‘.*

Yana bir axrabi makfufi majbub vazni mukarrar bo‘luptur nechukkim bu ikki misra’ o‘shal vaznda voqi‘ bo‘lubtur:

*Hajringda fig‘onimg‘a ulus nola qilur,  
Yo qatl ila qo‘yma bu hayotimg‘a asar.*

Maf‘uvlu mafo‘iylu mafo‘iylu fa‘ul bo‘lg‘ay uch vazn aytilmaydur” [Bobur 1971, 60].

Bunda Bobur Navoiyning axrab shajarasidan ikkita va axram shajarasidan ikkita vaznni takror berib, to‘rt vaznning nomini keltirmaganligini ta’kidlamoqda. Adabiyotshunoslikda bu masala U. To‘ychiyev va A. Hojiahmedov tomonidan maxsus o‘rganilgan bo‘lib, xatolikka asarni ko‘chirgan kotib yo‘l qo‘yganligi aniqlandi. Kotib misralardagi ba’zi so‘zlarning o‘rnini almashtirib (masalan,

birinchi misoldagi “urdi ko‘p” ning o‘rniga “ko‘p urdi”), ba’zi so‘zlardagi harflarni tushirib qoldirib (uchinchi misoldagi “rahmekim” ning o‘rniga “rahmkim”) va qofiyalardagi ayrim so‘zlarni harakat (qisqa unli) vositasida yozganligi (ikkinchi misoldagi “nazor”, “sharor”, “osor” ning o‘rniga “nazar”, “sharar”, “asar”) oqibatida ushbu xatoliklar kelib chiqqan.

### **Xulosa**

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari uchun forsiy aruzshunoslar: Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash‘or” hamda Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlari nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Agar olim forsiy salafлари Roziy va Tusiy risolalaridan umumiy tarzda foydalangan bo‘lsa, ustoz Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asari “Mezon ul-avzon” uchun tayanch manba vazifasini o‘tagan. Aruzdagi eng kichik birliklar — juzvlar talqinida Alisher Navoiy ulug‘ salafi Shams Qays Roziy va ustoz Abdurahmon Jomiy yo‘lidan borgan, Nasiruddin Tusiy risolasida keltirilgan fosila bilan bog‘liq ixtilofli masalalarga to‘xtalmagan. Shams Qays Roziy va Nasiruddin Tusiy risolalarida 10ta asl rukn haqida so‘z borgan bo‘lsa, Jomiy va Navoiyda asl ruknlardan faqat beshtasi tahlil qilingan. “Al-mo‘jam” da 35ta, “Me‘yor ul-ash‘or” da 34ta zihof, Jomiy va Navoiy risolalarida 45tadan zihofning keltirilishi ustoz va shogirdning ushbu masalada ham hamfikir bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. “Al-mo‘jam” va “Risolayi aruz” da an’anaviy 4ta doira, “Me‘yor ul-ash‘or” da 5ta doira keltirilgan bo‘lsa, “Mezon ul-avzon” da 7ta doira keltirilgan va ulardan “Doirayi mujtamia” olimning o‘z ixtirosidir. “Mezon ul-avzon” da vaznlar dalili uchun keltirilgan misollarning aksariyati shoirning o‘z ijod mahsuli ekanligi Alisher Navoiyning turkiy aruz nazariyasini amaliyot bilan teng olib borganligini ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar**

- Атоуллох, Хусайний. 1981. *Бадойиъу-с-санойиъ*. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Бакиров, М. Х. 1972. *Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований*. Автореф. дисс. на соискание... канд. филол наук. Казан.
- Бобир, Заҳириддин Муҳаммад. 1971. *Мухтасар*. Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. Тошкент: Фан.
- Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 1990. *Бобурнома*. Нашрга тайёрловчи П.

- Шамсиев. Тошкент: Юлдузча.
- Буниятов, З. М. 1986. *Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231)*. Москва: Наука.
- Фролов, Д. В. 1991. *Классический арабский стих*. Москва: Наука, 1991.
- Ҳожиаҳмедов, А. 2006. *Навоий арузи нафосати*. Тошкент: Фан.
- Жомий, Абдурахмон. 2014. *Рисолаи аруз*. Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д. Юсупова. Тошкент: ТАМАДДУН.
- Мусулманкулов, Р. 1989. *Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XV вв.)* – Москва: Наука.
- Навоий, Алишер. 2011. *Мезон ул-авзон*. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.10. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги НМИУ.
- Насируддин, Тўсий. 1992. *Меъёр-ул-ашъор*. Ҳозиркунандаҳои чоп У. Тоиров, М. Абдуллоев, Р. Чалол. Душанбе: Ориёно.
- Рамиз, Дениз. 2013. *Насиреддин Туси ученый, опередивший века*. Баку.
- Рустамов, А. 1972. *Аруз ҳақида суҳбатлар*. Тошкент: Фан.
- Стеблева, И. В. 1971. *Развитие тюркских поэтических форм в XI веке*. Москва: Наука.
- Талабов, Э. 2004. *Араб шеърятисида аруз тизими*. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. Тошкент.
- Тибризи, Абу Закария (ал-Хатиб). 1991. *Ал-кафи фи-л-аруд ва-л-кавафи (Перевод с арабского, исследование и комментарий Д.В.Фролова). Классический арабский стих. История и теория аруда*. Москва: Наука
- Тоиров, У. 1997. *Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии*. Автореферат дисс. на соискание ученой степени докт.филол.наук. Душанбе.
- Тўйчиев, У. 1985. *Ўзбек поэзиясида аруз системаси*. Тошкент: Фан.
- Тўйчиева, Г. 2018. *Ислои даври шеърятисида аруз тизими ва унинг эволюсион тараққиети*. Филол. фан. бўйича фан доктори дисс... . Тошкент.
- Усманов, Х. К. 1968. “К характеристике ритмического строя тюркского стиха”. Народы Азии и Африки 6: 67 – 80.
- Хамраев, М. К. 1963. *Основы тюркского стихосложения (на материале уйгурской классической и современной поэзии)*. Алма-Ата: Издательство АН.
- Замахшарий, Маҳмуд. 1989. *Ал-Қистос ал-мустақим фи илм-ил-аруз*. Байрут: Мактабат ул-маориф.
- Зиявиддинова, М. 1990. *Поэтика в “Мафатих ул-улум” Абу Абдаллаха ал-Хорезми*. Авт. дисс. ... канд. филол. наук. Тошкент.
- Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. *Фунун ул-балоға*. Бодлиан кутубхонасида сақланувчи элиотт № 127 рақамли қўлёзма.
- Шамс Қайс Розий. 1991. *Ал-мўъжам*. Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи чоп У. Тоиров. Душанбе: Адиб.

**D. Yusupova**

(Tashkent, Uzbekistan)

dilnavoz@navoiy-uni.uz

## The Comparativistic Analysis Of The Theoretical Sources Based On Alisher Navoi’s Pamphlet Titled “Mezon ul-Avzon”

### Abstract

This article is devoted to a comparative analysis of theoretical sources that served as the basis for Alisher Navoi’s treatise *Mezon Al-Avzon*. The treatise of Alisher Navoi is devoted to the aruz verse system, which is the traditional and widespread system of literatures of the Muslim East. In the preface, Navoi points to sources that were used in the creation of *Mezon Al-Avzon*. These sources are as follows: *Al-Mu’jam* by Shams Qays Razi, *Meyor al-Ash’or* by Nasiriddin Tusi and *Risalai Aruz* by Abdurrahman Jami in comparison with these sources, in order to study the sequence and innovation of Alisher Navoi in the science of aruz. In the article, this analysis is based on the example of rhythmic units such as: juzv, asl rukn (main foot), poetic meter, tactics (paradigm), doira (concentric circles).

**Keywords:** *aruz (prosody), juzv, rukn (foot), sabab, vatad, fasila, simple size, tactics (paradigm), couplet, string, doira (concentric circles).*

**About the author:** *Dilnavoz Yusupova* – Doctor of Philosophy in Philology, Tashkent State university of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**Recommended citation:** Yusupova, Dilnavoz. 2019. “Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos bo’lgan nazariy manbalarining comparativistik tahlili”. *Oltin bitiglar* 3: 60—80.

### References

- Atoullloh, Husayniy. 1981. *Badoyi’u-s-sanoyi’*. Forschadan A. Rustamov tarjiması. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
- Bakirov, M. X. 1972. *Zakonomernosti tyurkskogo i tatarskogo stixoslojeniya v svete eksperimentalnix issledovaniy*. Avtoref. diss. na soiskanie... kand. filol nauk. Kazan.
- Bobir, Zahiriddin Muhammad. 1971. *Muxtasar*. Nashrga tayyorlovchi S.



- Hasanov. Toshkent: Fan.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 1990. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiev. Toshkent: Yulduzcha.
- Buniyatov, Z. M. 1986. *Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov* (1097-1231). Moskva: Nauka.
- Frolov, D. V. 1991. *Klassicheskiy arabskiy stix*. Moskva: Nauka, 1991.
- Hojiahmedov, A. 2006. *Navoiy aruzi nafosati*. Toshkent: Fan.
- Jomiy, Abdurahmon. 2014. *Risolai aruz*. Tarjimon, sharh va izohlar muallifi D. Yusupova. Toshkent: TAMADDUN.
- Musulmankulov, R. 1989. *Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika* (X-XV vv.) – Moskva: Nauka.
- Navoiy, Alisher. 2011. *Mezon ul-avzon*. TAT. 10 jildlik. J.10. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi NMIU.
- Nasiruddin, To'siy. 1992. Me'yor-ul-ash'or. Hozirkunandahoi chop U. Toirov, M. Abdulloev, R. Chalol. Dushanbe: Oriyono.
- Ramiz, Deniz. 2013. *Nasireddin Tusi ucheniy, operedivshiy veka*. Baku.
- Rustamov, A. 1972. *Aruz haqida suhbatlar*. Toshkent: Fan.
- Stebleva, I. V. 1971. *Razvitie tyurkskix poeticheskix form v XI veke*. Moskva: Nauka.
- Talabov, E. 2004. *Arab she'riyatida aruz tizimi*. Filol. fan. dok. diss. ... avtoref. Toshkent.
- Tibrizi, Abu Zakariya (al-Xatib). 1991. *Al-kafi fi-l-arud va-l-kavafi* (Perevod s arabskogo, issledovanie i kommentariy D.V.Frolova). *Klassicheskiy arabskiy stix. Istoriya i teoriya aruda*. Moskva: Nauka
- Toirov, U. 1997. *Stanovlenie i razvitie aruza v teorii i praktike persidsko-tadjikskoy poezii*. Avtoreferat diss. na soiskanie uchenoy stepeni dokt. filol.nauk. Dushanbe.
- To'ychiev, U. 1985. *O'zbek poeziyasida aruz sistemasi*. Toshkent: Fan.
- To'ychieva, G. 2018. *Islom davri she'riyatida aruz tizimi va uning evolyusion taraqqiyoti*. Filol. fan. bo'yicha fan doktori diss... . Toshkent.
- Usmanov, X. K. 1968. "K xarakteristike ritmicheskogo stroya tyurkskogo stixa". *Narodi Azii i Afriki* 6: 67 – 80.
- Xamraev, M. K. 1963. *Osnovi tyurkskogo stixoslojeniya (na materiale uygurskoy klassicheskoy i sovremennoy poezii)*. Alma-Ata: Izdatelstvo AN.
- Zamaxshariy, Mahmud. 1989. *Al-Qistos al-mustaqim fi ilm-il-aruz*. Bayrut: Maktabat ul-maorif.
- Ziyaviddinova, M. 1990. *Poetika v "Mafatix ul-ulum" Abu Abdallaxa al-Xorezmi*. Avt. diss. ... kand. filol. nauk. Toshkent.
- Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. *Funun ul-balog'a*. Bodlian kutubxonasida saqlanuvchi eliott № 127 raqamli qo'lyozma.
- Shams Qays Roziy. 1991. *Al-mo'jam*. Muallifi sarsuxanu tavzehot va hozirkunandai chop U. Toirov. Dushanbe: Adib.

**G'. Boboyorov**  
(*Toshkent, O'zbekiston*)  
boboyorov\_g@navoiy-uni.uz

## **Turkiy tilning proto-turk davri: xun va o'g'ur-bulg'or tarmoqlari**

### **Abstrakt**

Bugungi kunda turkiy tillar o'g'uz, qarluq va qipchoq kabi 3 ta yirik va oz sonli xalach, Janubiy Sibir, chuvash va yoqut (saxa) lahjalariga bo'linadi. Ushbu lahjalarning deyarli barchasi yoki ko'pchiligi qadimgi turk tili – "O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili"ning, ya'ni ko'pchilik tilshunoslar ta'biri bilan aytganda "Umumturkiy til"ning to'g'ridan-to'g'ri izdoshlari bo'lsa, ayrimlari esa bu tillardan butunlay ajralib turadi. Ayniqsa, bu bugungi chuvash va o'rta asrlardagi Volga bulg'orlari tilida ko'proq ko'zga tashlanib, ular uchun tilshunoslikda ko'pincha "proto-turk tilining izdoshlari" yoki "xun tilining bir tarmog'i" kabi atamalar qo'llaniladi. Ushbu maqolada "proto-turk" yoki "xun tili" atamalari negizida aynan qanday tushunchalar yotadi, "oltoyshunoslar va turkologlar qanday dalillarga tayanib bunday to'xtamlarga kelishgan" kabi savollarga javob berishga urinib ko'ramiz.

**Kalit so'zlar:** *Qadimgi turkiy til, umumturkiy til, xun, o'g'ur/bulg'or turklari, mo'g'illar, O'rxun-Enasoy bitiktoshlari.*

**Muallif haqida:** *G'aybulla Boboyorov* — tarix fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Tavsiya etiladigan havola:** Boboyorov, G'aybulla. 2019. "Turkiy tilning proto-turk davri: xun va o'g'ur-bulg'or tarmoqlari". *Oltin bitiglar* 3: 81—107.

## Kirish

Bugungi kun tilshunosligida o'zbek adabiy tilini uyg'ur tili bilan birga turkiy tillarning "qarluq lahjasi"ga kiritish keng yoyilgan. Biroq bu yondashuv shartli bo'lib, biror yozma manbada qarluq lahjasi yoki qarluq tili atamasi uchramaydi. Holbuki, bugungi tilshunoslikda keng tarqalgan atamalar — turkiy tillarning o'g'uz lahjasi uchun arab tilli yozma manbalarda ko'pincha turkmon tili, turkmoncha, ayrim o'rinlarda o'g'uz lahjasi atamalari, qipchoq lahjasi uchun esa qipchoq tili, qipchoqcha atamalari qo'llanilgani ko'zga tashlanadi. O'z vaqtida turkiy tillarning bir necha lahjasi borligini ta'kidlagan Mahmud Koshg'ariy o'zining Devonu lug'otit-turk asarida eng yirik turkiy lahjalar deb o'g'uzcha va qipchoqchani keltirar ekan ikkalasidan ham ajralib turuvchi xoqoniya turkchasiga bot-bot to'xtalib o'tadi [Koshg'ariy 1960, 66]. Bir guruh tilshunoslar xoqoniya turkchasiga Qoraxoniylar davlatida keng qo'llanilgan turkiy adabiy til o'laroq qarab, ko'proq uyg'ur va o'zbek tillarini uning bugungi izdoshlari deb biladilar.

Bugungi kunda turkiy tilda so'zlashuvchi millat va elatlarning salmog'i ikki yuz milliondan oshgan, ular bir-biriga yaqin va uzoq o'ttizdan ortiq tilda so'zlashadilar. O'z o'rnida ular turkiy tillarning o'g'uz, qarluq va qipchoq kabi uchta yirik va nisbatan oz sonli xalach, chuvash, yoqut (saxa), Janubiy Sibir turkiy lahjalariga bo'linadi. Ushbu lahjalarning deyarli har biri yoki ko'pchiligi qadimgi turk tili — "O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili"ning, ya'ni ko'pchilik tilshunoslar ta'biri bilan aytganda "Umumturkiy til" yoki "Umumturkcha" (*ing.* "Common Turkic", *rus.* "Общeturкский язык")ning to'g'ridan-to'g'ri izdoshlari bo'lsa, ayrimlari bu tillardan butunlay ajralib turadi. Bugungi chuvash va o'rta asrlardagi Volga bulg'orlari, ilk o'rta asrlardagi o'g'ur-bulg'or tillari "Umumturkiy til"ga kiritilmasdan, ular uchun tilshunoslikda ko'pincha ilk turkchaning, ya'ni "Boshlang'ich (proto-turk)chaning izdoshlari" yoki "xun tilining bir tarmog'i" kabi atamalar qo'llaniladi. Shu o'rinda "ilk turkcha" / "proto-turk" yoki "xun tili" atamalari negizida aynan qanday tushunchalar yotadi", "oltoyshunoslar va turkologlar qanday dalillarga tayanib bunday to'xtamlarga kelishgan" kabi savollarning paydo bo'lishi tabiiy.

Aytib o'tish kerak, ko'proq G'arb turkologlari — J. Kloson, G. Dyorfer va boshqalar bu masalada chuqur izlanishlar olib borishgan [Clauson 1956, 181–187; Doerfer 1973, 1–51; Dyorfer 1986, 71–134]. Turkiyalik va o'rta osiyolik izlanuvchilar, ayniqsa, o'zbek tilshunoslari ayrim o'rinlardagina "proto-turk" (ilk/boshlang'ich turkcha) yoki "xun tili" mavzusiga to'xtalganlar [Qo'chqortoyev va Isabekov 1984,

76-80; Babayarov va Kubatin 2013, 153–165]. Ko'pchilik tilshunolar qadimgi turk tilini ko'proq "O'rxun-Enasoy bitiktoshlari"dagi so'zlar negizida qarab, qarluq (o'zbek, uyg'ur), o'g'uz (Ozarbayjon va Onado'li turklari, turkmanlar, gagauzlar), qipchoq (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qumiq, qorachoy-bolqor), Janubiy Sibir turkiylari (oltoy-kiji, xakas, tuva, shor va b.) tilini bitiktoshlar tilidan o'sib chiqqan, deb biladilar. Shuningdek, yoqut tiliga ham "Umumiy turkcha"dan uncha uzoq bo'lmagan bir tarmoq, deb qaraladi. O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida uchrovchi mingdan ortiq so'z, so'z birikmasi, fe'l va sifatlarning ko'pchiligi ushbu uchta lahjada ko'proq saqlanib qolganligi, morfologik va grammatik yaqinlik bu qarashni to'g'rilasa-da, bitiktoshlarning VII–VIII asrlarda yaratilganligi va ulardagi so'zlar o'sha davr til xususiyatlarini aks ettirishidan kelib chiqilsa, "Umumturkiy til" uchun "Eng qadimgi turkiy til" yoki "proto-turkcha" atamasini qo'llab bo'lmasligi oydinlashadi. Bu masalani yechishda ko'proq bugungi kundagi chuvash va qisman yoqut tillari, shuningdek, chuvashchanning to'g'ridan-to'g'ri "bobo tili" hisoblangan, allaqachon o'lik tillarga aylanib ulgurgan "xun, savir, avar, bulg'or, xazar" (ya'ni turkiy tillarning "G'arbiy xun tarmog'i") tillari yordam beradi. Yuqorida keltirib o'tilgan o'g'uz, qarluq, qipchoq va Janubiy Sibir turkchalari, ya'ni turkiy tillarning "Sharqiy xun tarmog'i"ga qaraganda bu tillarda "Oltoy til oilasi"ga kiruvchi mo'g'il, tungus-manjur, koreys va yapon tillariga yaqinlik ko'proq saqlangani ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda turkiy tillarning "G'arbiy xun tarmog'i" ko'proq Sharqiy yevropada tarqalgan turkiylarning tili, "Oltoy tillari oilasi"dagi xalqlar esa Osiyoning kunchiqar tomonida, har ikkisi orasidagi masofa deyarli o'n ming chaqirim, qolaversa, ular orasida turkiy tillarning "Sharqiy xun tarmog'i" o'rin olgan bo'lib, nega o'zaro qo'shnilar emas, bir-biridan uzoqdagi tillar orasida so'zlar yaqinlikni saqlab qolgan, degan savol kelib chiqadi.

Bu kabi chigalliklarga aniqlik kiritish uchun turkiy tillarning "proto-turk" va "xun" davrlariga qarab borish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, "proto-turkcha" sanaluvchi, xitoy yilnomalarida "di", "din-lin", "te-le", "gao-che" tillari va turkiy tillar bilan u yoki bu darajada bog'liq qadimgi "syau-bi (savir)", "to-ba (tabg'ach)", "mu-jung", "juan-juan" (avar bo'lsa kerak, "i-da" (eftalit), "tu-yu-xun", "ki-dan (qoraxitoy)" tillari bilan tanishib chiqish masalaning ko'pgina tomonlarini oydinlatishda yordam beradi.

Ushbu masalaga chuqurroq to'xtalishdan oldin mavzu bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bog'liq Oltoy til oilasi nazariyasi va

uning bugungi kundagi holati bilan qisqacha tanishib chiqish kerak.

### “Oltoy til oilasi” nazariyasiga yangicha yondashuvlar

Turkiy tillar tarixi bo'yicha izlanishlar olib borgan ko'pchilik tilshunoslar u yoki bu darajada “Oltoy til oilasi” masalasiga to'xtalغانlar. Paydo bo'lishi XVIII asrga borib taqaluvchi oltoyshunoslik bo'yicha shved F. fon Stralenberg (1730), fransuz J. P. Abul-Remyuze (1820), nemis V. Skott (1836), fin M. A. Kastren (1813–1852), daniyalik V. Tomsen (1890) tomonidan izlanishlar olib borilgan. Ikki yuz yildan ortiq vaqt ichida o'nlab yirik tilshunoslar yetishib chiqdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, turkiy — mo'g'il — tungus-manjur — koreys-yapon tillari boshlang'ichda bitta “bobo til” negizida shakllangan bo'lib, ular chamasi bundan besh-olti ming yil burun — miloddan oldingi IV mingyillikda tarmoqlanib ketgan. Boshlang'ichda u ikki tarmoqqa: *g'arbiy* (turk - mo'g'il - tungus-manjur) va *sharqiy* (koreys - yapon), keyinchalik yana bir necha tarmoqlarga bo'linib, ulardan har biri ayri-ayri til guruhi (turk-mo'g'il, tungus-majur, koreys-yapon)ga aylana borgan. Eng oxirida turk va mo'g'il tillarida ajralish yuz bergan. Keltirib o'tilgan beshta til turkumini bitta oilaga biriktirgan N. Poppe, G. Ramsted kabi atoqli tilshunoslar ularning barchasi aglyutinativ tillar ekanligi, minglab o'xshash so'zlar uchrashi, jins ayrimi yo'qligi, kelishiklarda ancha-muncha uyg'unlik borligi va boshqa tomonlarga e'tibor qaratishgan [Ramstedt 1924; Ramstedt 1957; Poppe 1957]. Bu nazariyani qo'llab-quvvatlovchilar turkiy tillarda -z undoshi qolgan tillarda -r (rotatsizm), -sh undoshi esa -l (lambdaizm) ko'rinishida uchrashi, so'z boshi *u-* tovushining *n-* ekanligi va yana bir qancha jihatlarini ta'kidlaydilar:

1) turk. *qaz-* “qazmoq”, mo'g'il. = manjur. *karu-*, koreys. *karka-*; turk. *qaz* “g'oz”, manjur. *garu* = tungus. *gare*, koreys. *kari*.

2) turk. *qaşı-* “qashimoq”, koreys. *kilk-*, mo'g'il. *kalçi*; turk. *ış* “ish”, koreys. *il*; turk. *taş* “tosh”, mo'g'il. *çıl(ağun)*, koreys. *tol*.

3) turk.  $\emptyset$  = koreys. *p-* = goldicha *p-* = evenkicha *h-* = o'rta mo'g'il. *h*. turk. *hadaq / adaq* > *ayak* “oyoq” = koreys. *patang*, *patak* “ost, tag” = o'rta mo'g'il. *hadak* = tungus. *hat*, *at* = manjur. *fatan*.

4) turk. *y-* = koreys *n-* = mo'g'il. *n-* = tungus-manjur. *n:* turk. *yaz* “yoz/bahor” = koreys. *nyər-im* “yoz” = mo'g'il. *nir-ai* = manjur. = *nar-hun*. Shu o'rinda oltoyshunoslar eng ko'p to'xtalغان o'xshashlik — ushbu undoshlardagi bunday holat turkiy til turkumiga kiruvchi chuvashchada ham boshqa turkiy tillardagi singari -z, -sh, emas, balki -r, -l, -s ekanligidir. Umumturkcha *qaz-* “qazmoq” = chuvash.

*hir-*; umumturk. *qaz* “g’oz” = chuvash. *kar*; umumturk. *yaz / jaz* “yoz/ bahor” = chuvash. *śur* [Tekin 1976, 121, 127-129; Demir va Yilmaz 2002, 397-398]. Chuvashcha turkiy tillarning o’rta asrlarda o’lik tilga aylangan *ogur* (o’g’ur) / *bulg’or* tarmog’ining izdoshi bo’lib, bu tarmoqqa kiruvchi bulg’or, xazar, savir, avar turkchalarida ham shunga o’xshashlik ko’zga tashlanadi. “Oltoy nazariyachilari” turkiy tillarning o’g’ur-bulg’or tarmog’ida mo’g’il, tungus-manjur, koreys va yapon tillaridagi *-r, -l* undoshlariga uyg’unlik borligini aytib, bu esa boshlang’ichda proto-turk tilida ham shunga o’xshashlik bo’lganini olg’a suradilar.

Deyarli bir asrdan beri izlanishlar olib borilayotgan ushbu nazariya bo’yicha bugungi kungacha ko’plab tortishuvlar kelib chiqqan bo’lib, tilshunoslarning sezilarli qismi “Oltoy nazariyasi”ni qo’llab-quvvatlashgan bo’lsa, bir turkum turkologlar esa bu nazariyaga butunlay qarshi chiqishgan. Ayniqsa, o’tgan asrning 20-30 yillarida G. Ramstedt, B.Y. Vladimirsov va 50-70 yillarida N. Poppe, K. Menges, T. Tekin kabi yirik tilshunoslar Oltoy nazariyasini kuchaytiruvchi o’nlab lingvistik dalillarni o’rtaga tashlagan bo’lishiga qaramay [Vladimirsov 1929; Menges, 1968; Poppe, 1972; Tekin, 1976: 118-136], G. Dyorfer, J. Kloson, A. Sherbak kabi yirik turkolog olimlar bu nazariyaga qarshi chiqib, “Oltoy tillari”ga kiritiluvchi turk, mo’g’il va tungus-manjur tillaridagi o’zaro o’xshash so’zlar uchrashi – “bu biror genetik yaqinlik emas, ko’p asrlar bo’yi qo’ni-qo’shni va aralash yashash natijasi, ya’ni o’zaro o’zlashma so’zlardir” degan to’xtamga kelishgan [Clauson 1956, 181-187; Shcherbak, 1959: 31-45; Doerfer 1973, 1-51; Dyorfer, 1986: 71-134]. “Oltoy tillari”da sanoqlar tizimida, qarindosh-urug’chilik atamalarida, kishi tana a’zolarining nomlanishida, asosiy fe’l va sifatlarda, zamon yasovchi qo’shimchalarda o’zaro o’xshashlik yoki umumiylik yo’qligini olg’a surgan ushbu tilshunoslarning qarashlari keyingi yillarda keng yoyila boshladi.

Yaqin yillarda A. Starostin, A. Dibo, O. Mudrak kabi rus turkologlari tomonidan ingliz tilida “Oltoy tillari lug’ati”ning chop etilishi va unda 2800 ga yaqin so’zda o’zaro o’xshashlik borliginining olg’a surilishi bu nazariya bo’yicha tortishuvlarni yanada kuchaytirib yubordi [Starostin va boshqalar 2003]. Ularning qarashlarini keskin tanqid ostiga olgan va deyarli 60 betlik maqola yozgan A. Vovin esa bu nashrni “negizi yo’q bir til oilasining lug’ati” deb atadi va o’zaro o’xshash so’zlarni “o’zlashma yoki shunchaki tasodif” o’laroq ochiqldi [Vovin 2005, 71-132]. O’z navbatida A. Dibo va A. Starostin 140 betlik maqolasida A. Vovinning tanqidlari va o’zlarining

qarashini qaytadan ko'rib chiqib, uning o'zini keskin tanqid qilishdi [Dibo va Starostin 2008, 119-258]. Yuqorida aytib o'tganimizdek "Olttoy tillari lug'ati"da 2800 ga yaqin so'z ko'rib chiqilgan bo'lib, A. Starostin va uning safdoshlari minglab "proto-olttoycha" so'zlarni tiklashgan va ularning turk, mo'g'il, tungus-manjur, koreys va yaponcha shakl va ma'nolarini topishga uringan edilar. Shuningdek, ushbu tadqiqotchilar G. Dyorfer va J. Kloson tomonidan bildirilgan qarash – "Olttoy tillari deb atalayotgan oila ichidagi o'xshash so'zlar bor-yo'g'i 2% ni tashkil etadi, bu esa ularning qarindosh tillar bo'lganligi borasidagi qarashlarni yo'qqa chiqaradi" degan fikrning noto'g'riligiga, o'zaro o'xshash so'zlar esa 20% ekanini ta'kidlagan edilar.

Qisqasi, "Olttoy til oilasi" nazariyasi haligacha to'laqonli isbotlanmagan bo'lsa-da, bu nazariyani butunlay yo'qqa chiqaradigan dalillar o'rtaga tashlanmaganini, o'zaro tortishuvlar yanada jadal tus olayotganini aytib o'tish kerak.

### **Turkiy tillarning proto-turk bosqichi**

Miloddan oldingi birinchi mingyillikning so'nggi asrlariga tegishli "Xan shu" ("Xan sulolasi tarixi") va "Shi ji" ("Tarixiy esdaliklar") kabi xitoy yilnomalarida atigi bir nechta eng qadimgi turkiy so'z yoki atama *Hsiung-nu / Xun-nu* (Xun) saltanati (m.av. III – mil. II asrlar) bilan bog'liq holda uchraydi. Ular *den-li, ku-tu, shan-yuy, ou-tu, kin-lu* kabi so'zlar bo'lib, ko'pgina tadqiqotchilar ularni "Tangri", "qut/quti", "yabg'u", "o'rdu / o'rda", "qingraq" (qing'ir qilich) o'laroq tiklab, qadimgi turkcha negizga ega so'zlar, deb qaraydilar [Hirth 1900, 222; Golden 2002, 46-487]. Ayniqsa, xitoylik mualliflar tomonidan *hsiung-nu* boshqaruvchilarining eng yuksak unvoni sifatida tilga olinib, *den-li ku-tu shan-yuy* shaklida keltirilgan va ular tilida "Yaratuvchining o'g'li shanyuy" ma'nosida ekanligiga urg'u berilgan so'z birikmasini ko'pchilik oltoyshunos va turkologlar "Tangri quti yabg'u" deb tiklaydilar [Clauson 1960, 115]. Xitoy yilnomalarida 200 ga yaqin *xun-nu* (xun)cha kishi ismi va unvoni bilan bog'liq atamalar uchrab, ularning bir bo'lagigina turkiy negizda tiklangan. Misol uchun, xun hukmdorlarining ismi – *Tu-man, Mao-dun, Ki-ok* va yana bir nechtasi tilshunoslar tomonidan turkiy negizda Tuman, Bahodur, Ko'k deb qaraladi [Gömeç 2004, 116; Babayar 2014, 121-126]. Shuningdek, xitoy yilnomalarida o'rin olgan *syun-nu* (xun)chaga tegishli quyidagi so'zlar ham turkiy negizga ega: 橐駝 *\*thāk-lhāj* "tuya" — proto-turk. *\*tay-lag* "tayloq bo'taloq, 服匿 *\*bwə-nə* "idish turi" — proto-turk. *\*bö-k-lüg* "po'kaklik", 騊駼 *\*kwjāt-d(h)ē* "ot turi" — proto-turk. *\*kätir*

“xachir”, \**kjāj-tək* — proto-turk. kishi ismi \**Katik* “qattiq, 呼廚泉 \**wā-da-zjwan* — proto-turk. \**otoči-n* “o'tachi, tabib”, 廓洛 *khwāk rhāk* “qayish, kamar” — proto-turk. \**kulak* > *quşaq* “belbog” [Dybo 2007, 86-88, 90, 105]. Rim va yunon yozma manbalarida esa yuzlab xuncha atamalar (kishi ismi, unvon, atoqi so'z va b.) uchrab, ularning sezilarli bir bo'lagi turkiy til negiziga ega deb qaraladi [Maenchen-Helfen, 1973; Pritsak 1982, 428-476; Golden 2002, 70, 72, 85, 89].

Biroq bu kabi qarashlar to'laqonli o'z isbotini topmagan bo'lib, ular bo'yicha butunlay boshqacha fikrlar ham bildirilganini ko'zdan qochirmaslik kerak. Ushbu so'z va atamalarga eroniy, paleoaziatik (kett, yenisey) va boshqa tillar negizida yondashuvlar ham uchrab turadi [Pulleyblank 1962, 58-144, 206-265; Pulliblenk 1986, 29-70; 71-134; Dyorfer 1986, 71-134; Vovin 2007, 177-187; Voynikov 2018].

Xun tili bilan bog'liq so'zlarning turkiy yoki teskarisi ekanligini ta'kidlagan tilshunoslarning ko'pchiligi so'z va atamalarining ko'proq tashqi tuzilishi va ma'nosiga to'xtalishgan bo'lib, ayrimlar istisno, ko'pchilik izlanuvchilar xitoy yilnomalaridagi *shu elatning tili Hsiung-nu (xun) tiliga yaqin, xun tiliga yaqin, biroq kichik farqiliklar bor* kabi ma'lumotlarni e'tibordan chetda qoldirishgan. Ayniqsa, bunday yondashuv g'arb turkologlarining izlanishlarida ko'proq ko'zga tashlanadi.

Holbuki, xitoy yilnomalarida “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari”ning yaratuvchilari bo'lmish Turk xoqonligidan (552-744) ancha oldin yashab o'tgan (miloddan oldingi bir mingyillik so'nggi asrlari va milodiy mingyillikning o'rtalari) *Di, Din-lin, Te-le* (\*Tegrek), *Sye-li* (Sir), *Gyan-gun* (Qirg'iz), *Yue-ban, Gao-che / Gao-gyuy* singari siyosiy uyushma yoki qabila-urug' birlashmalarining tili to'g'risida so'z borganda quyidagicha ma'lumotlar uchrab, ular mazmunidan ushbu tillarning “Xun tili”ga yaqinligi va o'z navbatida qadimgi turkiy tillar ekanligi anglashiladi:

1) “Qadimda *Di* (elati) *Di-li, Din-lin*, keyinchalik *Gaogyuy*, so'ngra esa *Te-le* deb atala boshlagan” [Bichurin 1950, 301; Potapov 1969, 148-149; Xo'jayev 1995, 146];

2) “*Gao-che* (ya'ni *Xoy-xu* “uyg'ur”)lar “qizil *Di*”larning bir bo'lagidir. Shuning uchun ularning ilk oti *Di-li* edi. *Din-lin*lar va ular *Hsiung-nu* (xun)lar bilan deyarli bitta tilda so'zlashadilar” [Ekrem 1995, 69];

3) “*Xya-gas* (qirg'iz)larning yozuvi va tili *Xoy-xu* (uyg'ur) larnikiga juda yaqin” [Bichurin 1950, 353].

Shu o'rinda ushbu ma'lumotga qisqacha oydinlik kiritib



o'tsak. Qirg'izlarning yilnomalarda *xya-gas* deb tilga olinishi, ilk o'rta asrlarga, aniqrog'i, Turk va Uyg'ur xoqonliklari (745–840) davriga to'g'ri kelib, ularning “*yozuvi va tili uyg'urchaga juda yaqin*” ekanligi buni ko'rsatib turibdi. Ya'ni Janubiy Sibir qirg'izlarining yozuvi va tili O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida qo'llanilgan yozuv va til bilan deyarli bir xil bo'lib, shuning uchun xitoylik mualliflar ularni uyg'urlar bilan tenglashtirganlar. Shuningdek, Qirg'iz xoqonligi davri (VIII–IX asrlar)dan yetib kelgan kishi ismlari va unvonlar qadimgi turkcha ekani ham ular turkiy tilli bo'lib, “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili”da so'zlashganini ko'rsatadi. Bu bilan ushbu tilni “proto-turkcha” bo'lgan demoqchi emasmiz. Ehtimol, bundan eskiroq chog'larda, ya'ni “Xun davri”da bu til boshqacharoq bo'lgandir. Bu yerda ushbu ma'lumotni keltirishdan maqad — ularning tili *Xoy-xu* (Uyg'ur)lar tiliga yaqin, o'z navbatida esa “uyg'ur tili”ning *Di* (*Din-lin*, *Te-le*) tillari bilan bir tarmoqdan, deb ko'rsatilishidir.

Shuncha ma'lumotlar uchrashiga qaramay, ayrim tadqiqotchilarning xunlarni yoki ularga yaqin urug' va elatlarni turkiylar bilan bog'lamaslikka urinishlarining tagida yana qanday sabablar yotadi? O'tgan asrning 70- yillarida O. Menxen-Xelfen Osiyo Xun saltanati va Yevropa Xun saltanati (IV–V asrlar) orasida bog'liqlik borligi to'g'isida aniq bir ma'lumotning uchramasligi, shuningdek, xitoy yilnomalarida “*syun-nu*” (eski o'qilishi “*Hsiung-nu*”) o'laroq tilga olingan Osiyo xunlari o'zlarini “*xun*” deb ataganmi-yo'qmi masalasi ham qorong'u ekanligiga urg'u bergan [Maenchen-Helfen, 1973], bir qator izlanuvchilar esa unga ergashib, xunlarning turkiy ekanligiga shubha bilan qaray boshlagan edilar. Yaqin yillarda esa fransuz tadqiqotchisi E. de la Vessier har ikkala saltanat bitta negizga egaligi, buni xitoy yilnomalarida eslatib o'tilgan — 370-yillarda *hsiung-nu*larning bir bo'lagi g'arbga ko'chganligi to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlashini yozib, endilikda Menxen-Xelfen va uning izdoshlarining qarashlari yo'qqa chiqarilganiga urg'u berdi. Unga ko'ra, Xitoyning shimoli-g'arbidagi Dunxuan viloyatidan topilgan milodiy III asrga tegishli sug'dcha “Eski xatlar”da *xwn* “*xun*”lar borasida so'z borib, ular yilnomalardagi “*Hsiung-nu*”lar bilan bitta elatdir [Vaissière 2005, 3-26; Vaissière 2003, 119–132; Vesser 2014, 117–133]. Buni 370- yillarda Xitoyning shimoli-g'arbidan janubga — Amudaryoning yuqori oqimi tomon yo'l olgan “*Hsiung-nu*”larning pahlaviy, baqtriy kabi eroniy tilli yozma yodgorliklarda “*xyun*”, “*xion*”, “*xun*”, “*un*”, “*al-xun*”, qadimgi hind bitiklarida “*xuna*”, “*sveta-xuna*”, “*xara-xuna*”, grek, arman, suryoniy manbalarida “*xun*”, “*xo'n*”, “*un*” ko'rinishlarida uchrashi [Golden 2002, 46–47; Konukçu

2002, 827] ham ko'rsatib turibdi. Demak, ularning barchasining negizida "xun" etnonimi turibdi.

Shu o'rinda Turk xoqonligining boshqaruvchilari va qo'shinlarini sug'diylar *xwn* "xun" deb ataganliklari Panjikentdan topilgan "Mug' tog'i sug'diy hujjatlari" (VIII asrning 20-yillari) asosida o'z tasdig'ini topishini aytib o'tish kerak [Grenet, Vaissière 2002, 155–196]. Qadimdan turkiy elatlar bilan aralash va qo'shni yashagan sug'diylar turklarni "xun" deb yozishini "shunchaki bir tasodif, sug'diylar turklardan oldin Markaziy Osiyoda ustun bo'lgan xunlarga mengzatib yoki ularning siyosiy davomchilari sifatida turklarni shunday atayverishgan" deyish qanchalik o'zini oqlaydi? Bunday savollarga biroz quyida chuqurroq to'xtalib o'tamiz, xitoy va sug'diy manbalarda xunlarning bir tarmog'i deb ko'rsatilgan "turklar" ilk o'rta asrlarda shu nom bilan tarix sahasiga chiqishlaridan biroz oldin ko'plab boshqa turkiy elatlar kabi umumlashtiruvchi etnonim bilan "xun" deb atalar edi. Bungacha turkiy xalqar, to'g'rirog'i, ularning ilk ota-bobolari turli tillardagi manbalarda asosan "tur", "di, din-lin, te-le", "hsiung-nu/xun" o'laroq tilga olinadi.

Kezi kelganda Osiyo Xun saltanatidan biroz keyin Amudaryoning yuqori oqimi va uning tegrasidagi o'lkalarda o'z hukmronligini o'rnatgan Kushon saltanati (mil.av. I – mil. III asrlar) boshqaruvchilarining tiliga tegishli ayrim so'zlarning turkiy negizli ekanligini aytib o'tish kerak. Boshlang'ichda ularning boshqaruvchilari "yabg'u" unvoniga ega bo'lib, kushon tangalarida o'rin olgan "kara", "idi" kabi atamalarni ayrim tadqiqotchilar turkiy negizdan izlashadi. Keyinchalik yerli baqtriy tili va yozuvini qullangan va eroniycha "shahanshoh" unvonida ish yurita boshlagan kushonlarning qadimgi turkiy elatlarga nechog'lik bog'liqligi bugungi kunda o'z yechimini topmagan. Biroq kushonlar yashagan ilk hududlar Tyanshanning kunchiqar tomonlari va Oltoy tog'lariga yaqin bo'lganligi, boshqaruvda qo'llanilgan ayrim atamalar, kushon boshqaruvchilaridan bir qanchasining ismi turkiy negizli ekanligi (Tokto, Kanik / Kanishka, Kujula), eski kushon inonchida iloh Omo (O'ma) va qadimgi turk bitiktoshlaridagi Umay o'xshashligi, tangalardagi tamg'a bichimlari, qadim hindistonliklarning Kushon va Turkxoqonligi boshqaruvchilarini "turushka" (turk) debataganliklari, arman, arab-fors va boshqa tillardagi yozma manbalarda kushon va turklar orasida qandaydir bog'liqlik bordek ko'rsatilishi, kushon va qadim turk san'atida o'xshash syujetlarning uchrashi (soqolsiz, biroz qisq ko'zli inson tasvirlari) bu masala bo'yicha chuqurroq izlanishlar olib borilishini talab etadi [Babayarov, Kubatin 2010, 64-

74].

### Eftalit tili masalasi

Miloddan oldingi so'nggi mingyillik va milodiy bir mingiyillikning o'rtalarida turkiylar bilan u yoki bu darajada bog'liq yana bir necha etnonimlarga duch kelamiz. Bular: *yue-ban*, *gao-che* / *gao-gyuy* (uyg'ur), *u-xuan* (avar), *i-da* (eftalit), *gyan-gun* / *xa-gyas* (qirg'iz). Ushbu proto-turk elatlar orasida yana bir qancha elat va urug'lar tilga olingan bo'lib, ular orasida eftalitlar va ularning tili masalasi alohida ajralib turadi. Yozma manbalarda bosh unvonlari "yabg'u", "tegin" singari eski turkcha, boshqaruvchilarining ismi esa Kunxan, To'raman, Mihragula (Mitra+qul), G'atfar (G'at+avar) va yana bir qancha turkiy-eroniy negizli atoqli otlargina saqlangan [Tolstov 1948, 277; Rtveladze 2004, 106–109; Lurje 2012, 13] eftalit tili haligacha jumboq bo'lib turibdi.

Yaqin yillarda Kashmir o'lkasi (Pokiston)dan topilib, Aman ur-Rahonning kolleksiyalari orasida saqlanayotgan eftalitlarga tegishli, Samarqandda yasalgan muhrda baqtriy yozuvida

..][ρ?)ζ[...] βαγο ολαργο υονανο ραο ο(α)ζαρκο κορανο ραο  
σαμαρκ(α)ο (αφ)ρ(ιγ)ανο - ...][r?)z[••]o *bago olargo uonano šao*  
*o(a)zarko (k)ošanošao samark(a•)o (af)r(ig)ano...*

— “Hukmdor Ularg — xunlar qiroli, buyuk kushon-shoh samarqandlik, Afrigon (Avarigon?) xonadonidan” iborasi uchrab, ayrim tadqiqotchilar undagi *Oglargo* (Ularg / O'larg) ismini turkiycha (ko'proq ogur / o'g'ur turkchasi)dagi o'gul-lar > o'g'lar “o'g'ullar; shahzodalar” va eroniycha qo'shimcha (adj. suffix) — gdan yasalgan so'z deb qaramoqdalar [Rahman va boshqalar 2006, 125–131].

Turli tillardagi yozma manbalarda xunlarning bir tarmog'i sifatida eslatilgan eftalit elatining tili to'g'risida xitoy yilnomalarida “*Ye-da* (eftal)larni ayrimlar *yue-ban* (*gao-gyuy*/uyg'ur)lar bilan bog'lashsa, ayrimlar ularni *yue-chji* (to'xor)lardan kelib chiqqan deb biladilar”, “ularning tili na turli *xu* (sug'diylar va boshqa o'troq eroniy elatlar), *gao-gyuy* (uyg'ur) va na *juan-juan*lar (proto-mo'g'il)lar tiliga o'xshaydi”, “ularning tili qo'shni elatlar tiliga o'xshamaydi, biroq *tu-yu-xun* tarjimonlari orqali boshqalar bilan o'zaro anglashadilar” [Vaissière 2003, 119–132] kabi ma'lumotlarga tayangan ayrim tadqiqotchilar eftalitlarni boshlang'ichda Oltoy tog'larining janubi va Tibetning shimolidagi Sin-xay o'lkasida yashab, keyinchalik Badaxshon va Amudaryoning yuqori oqimlariga ko'chib kelgan elat

sifatida qaraydilar. Ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu ma'lumotdan kelib chiqib "eftalitlarning tili turkiycha bo'lmagan, buni ularning tili *gao-gyuy (uyg'ur) tiliga o'xshamaydi* degan ma'lumot ko'rsatib turibdi" deb yozishadi-yu, ushbu ma'lumotning *eftalitlar tili xu (sug'diy va boshqa o'troq eroniyalar) tiliga va na juan-juan (proto-mo'g'il) tiliga o'xshaydi* degan joyiga e'tibor qaratishmaydi? Bunday biryoqlama yondashuvni sobiq sovet sharqshunoslari va o'zimizning bir qator arxeolog va tarixchilarimiz allaqachon eftalitlarni sharqiy eroniy tilli elatlar qatoriga qo'shib, "buni ularga tegishli baqtriy tilli yozma yodgorliklar va tanga-pullar ko'rsatadi" deb yozishlarining o'ziyoq ko'rsatib turibdi [Ilyasov 1999, 32–41; Isomatov 2009; Pilipchuk 2016, 423–448].

Biroq masalaga bunday yondashuv o'zini oqlamasligini aytib o'tish kerak. Chunki eftalitlarni deyarli barcha tillardagi manbalar: xitoy, yunon, pahlaviy, hind, tibetcha yozma yodgorliklar xunlar bilan bog'lamoqda, arab va fors manbalarida esa ular "turklar" o'laroq ko'rsatilgan bo'lsa, eftalitlarning o'zlari tomonidan bostirilgan tangalarda *αλχοβο* "ol-xo'n" (qizil xun) atamasi o'rin olgan. Bir-biridan bir necha chaqirim uzoqlikda yashagan yunon bilan tibetlik, arab bilan xitoylik eftalitlarni "xunlarning bir tarmog'i" deb atashi o'z-o'zidan bo'lmasa kerak.

Bizningcha, eftalit tilining xitoy yilnomalarida "gao-gyuy (uyg'ur) va juan-juan tillaridan boshqacha" deb tilga olinishi uning "O'rxun-Enasoy bitiktoshlarining tili" (ya'ni o'g'uz — qarluq — qipchoq — Janubiy Sibir turkiy tillari tarmog'i)ga emas, turkiy tilning "ogur (o'g'ur)" (G'arbiy xun, savir, xazar, bulg'or, chuvash) turkumiga yaqin bir til bo'lgani yotadi. Eftalitlar bilan bog'liq ma'lumotlarning ko'pchiligi ularni o'g'urlar bilan bog'lashga undaydi. Birinchidan, xitoy yilnomalarida eftalitlar bilan bog'liq etnik atamalar "avar", "abdal" ko'rinishlarida uchraydi, shu bilan birga baqtriy va hind yozuvli eftalit tanga va muhrlarida "xingil" ("xanjar" > qing'ir "egri pichoq) va b. so'zlar saqlangan, ikkinchidan, arab tarixchi va geograflari barcha turkiy elat va urug'larni emas, ular orasidan "xalach", "kanjina turklari"ni eftalitlarning izdoshlari o'laroq tanishtirib, *Hyatila — To'xoristonni boshqargan qudratli kishilar guruhi, Xalaj va Kanjina turklari ularning avlodidir* deb yozishgan [Bosworth 1965, 6—7; Bahodirov 2014, 214].

Bundan tashqari, eftalitlar boshlang'ichda "xun" deb, aniqrog'i, ularning g'arbiy bir tarmog'i bo'lmish "Oq-xun" deb yuritilgani, "eftal" atamasi esa ularning boshqaruvchisi (yoki boshqaruvchi urug'i) nomidan kelib chiqqanini unutmash kerak. Shu o'rinda qadimgi

turklarda “oq — g'arb, kunbotar tomon ma'nosida yuritilganini ham ko'zda tutish kerak bo'ladi. Ustiga-ustak, xitoy yilnomalarida ular bilan bog'liq keltirilgan *Xu-a* (\*Avar”) va yunon manbalaridagi *varxonit* (\*avar+xun)lar efitalitlarni “G'arbiy xun dunyosi”ga, ya'ni *avar* — *xazar* — *savir* / *suvar* — *chuvash* dunyosiga yetaklaydi. Bu qarashni biroz quyida ko'rib o'tiladigan *tabg'ach* > *chuvash* va *syambi* / *sarbi* = *savir* / *suvar* birligi ham anchagina kuchaytiradi. Demak, efitalitlar turkiy tillar “Sharqiy xun tarmog'i” (O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili) emas, “G'arbiy xun tarmog'i”ga borib taqalib, ularning tili Turk va Uyg'ur xoqonliklari, shuningdek, Qoraxoniylar va ko'plab keyingi turkiy davlat uyushmalari tilidan ayri bo'lib, bugungi chuvashchaga yaqin edi. Bu esa xitoy yilnomalarida “*ularning tili gao-gyuy (uyg'ur) tiliga o'xshamaydi*” degan ma'lumot o'rin olishiga olib kelgan.

VII-VIII asrlarda Kavkazda to'g'ridan-to'g'ri xazarlar bilan to'qnash kelgan arablar xazarlarni “turk” deb atagani, shu bilan birga ularni qandaydir bir ma'noda boshqa turklardan ajratib ko'rsatganliklari ko'zga tashlanadi. Holbuki, Shimoli-Sharqiy Kaspiy, Volgabo'yi va Shimoliy Qoradengizda o'z ustunligini o'rnatgan Xazar xoqonligi (630–955) to'g'risida yozgan xitoyliklar ularni “*Tu-kyue Ko-sa*” (Xazar turklari) deb ko'rsatadilar [Chavannes 1903, 145, 170, 256; Shiota 2005, 231–261]. Xazarlarni boshqa turkiylardan, ya'ni “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili”da so'zlashuvchi turkiylardan ajratib turgan belgi – ularning turkiy tillarning “Ogur (O'g'ur)” (boshqa bir atalishi “G'arbiy xun”) tarmog'idan bo'lganliklaridir. To'g'rirog'i, turkiylarning o'g'uz — qarluq — qipchoq — Janubiy Sibir tarmog'i toshni “dash/tash/tas” deb atasa-yu, bu tarmoqdagilar “chul” deb yuritsa, birinchi turkumdagilar “besh” sonini “besh/bes” desayu, qolganlari “pilek” (~ *bilak* “panja”) deb yuritsa, kelib chiqishi qadimda bir bo'lgan elatlar o'zaro bir-birini tushunmasligi aniq. Demak, efitalit, xazar va yana shunga o'xshash turkiylar (aniqrog'i, proto-turk yoki yon tarmoq tili “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari”ni yaratuvchilarning tilidan ancha ajralib turgan va ushbu tillarga ilk bor duch kelgan boshqa elat vakillari “ularning tili o'zaro o'xshamaydi” deb yozganlarida birmuncha haqli edilar.

Keltirilgan ushbu ulgi so'zlar ilk o'rta asrlar bilan bog'liq. Xo'sh, undan oldin, aniqrog'i, Xun saltanati va undan keyingi siyosiy uyushmalar davri — Turk xoqonligigacha bo'lgan deyarli mingyillik davr ichida turkiy elatlarning ota-bobolari turkiy tillarning qaysi lahjalarida so'zlashishgan? Ko'pchilik tilshunoslar boshlang'ichda bitta “Xun tili” bo'lib, Xun saltanati parchalangach — milodiy II-III asrlarda ushbu “bobo til” ikkiga — “Sharqiy xun” (o'g'uz – qarluq–

qipchoq — Janubiy Sibir) va “G'arbiy xun” / O'g'ur (avar — savir — xazar — bulg'or — chuvash) tarmoqlariga ajralib ketgan. Chamasi, bungacha bu til ko'proq mo'g'il va ozroq oltoy til oilasining boshqa til guruhlariga bilan ancha yaqinlikka ega bo'lgan. Buning aniq ulgilari “tosh” chuvashchada “chul”, mo'g'ilchada “chil(ag'un)” ekanligida ko'rinsa, Yevropa Avar davlatning boshqaruvchilaridan biri — Bayan “Sharqiy xun” tarmog'ida “Bay” (boy “boylik egasi”), mo'g'ilchada “Bayan” ko'rinishida bugungacha yetib kelgan [Golden 2002, 89; Yilmaz 2018, 2]. Kezi kelganda aytib o'tish kerak, “tosh” so'zining koreyschasi “tol”dir [Golden 2002, 14]. Shuningdek, Toshkent toponimining eng eski shakli “Choch” so'zining negizida proto-turkcha \*čalč ~ čäč “tosh” yotib, ushbu so'z miloddan oldingi bir mingyillikning so'nggi asrlarida xunlarning bir bo'lagi Sirdaryoning o'rta oqimlariga ko'chib kelishlari bilan bog'lanadi [Maksudov va Babayarov 2009, 199-105].

### Turkiy tillarning o'g'ur tarmog'i

Yuqorida keltirib o'tilganidek, ko'pchilik turkologlar bugungi chuvash tili, o'rta asrlar Volga bulg'orchasi va ilk o'rta o'rta asrlardagi *ogur* (o'g'ur) / *onogur* (o'n-o'g'ur “o'n o'g'uz”), *qutrigur* (to'qurg'ur “to'qqiz o'g'uz”), *savir*, *avar*, *bulg'or* va *xazar* tillarini turkiy tillarning “Ogur” (O'g'ur) yoki “proto-bulg'or” tarmog'iga kiritadilar. Turlicha qarashlar o'rta tashlangan bo'lsa-da, bu tarmoq “proto-turkcha”dan milodning boshlarida ajralib chiqqan, deb sanaladi [Tekin 2008, 26]. “O'g'ur” va “o'g'uz” etnik atamalarining negizi bir bo'lib (r ~ z almashinuvi), ular milodning IV–V asrlariga kelib, turli tarmoqlarga bo'linib ketgan, degan tushunchalar bor [Golden 2002, 75–56].

“O'g'ur tarmog'i”ning “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari” tili — “Umumiyturkcha”dan ajralib turadigan bosh belgilari quyidagichadir:

1) r ~ z almashinuvi: chuvash. *xir* “qiz bola” ~ O'rxun-Enasoy. *qiz* “qz bola”; *sekir* “sakkiz” ~ *sekiz* “sakkiz” *toqur* “to'qqiz” ~ *to'quz* “to'qqiz”, *o'tur* “o'ttiz” ~ o'tuz “o'ttiz”.

2) l ~ sh almashinuvi: chuvash. *pilek* “besh” ~ O'rxun-Enasoy. *bash* “besh”; *chal* > *chul* “tosh” ~ *tash* “tosh”.

3) d ~ y almashinuvi: Bolqon bulg'or. *dilom* “ilon” ~ O'rxun-Enasoy. *yilan* “ilon”; *Dayix* “Yoyiq (Urol daryosi)” ~ Yayiq.

Bundan tashqari, “oq (tus)” so'zi o'g'ur tillaridagi *shara* (chuvash. *shura*) ~ O'rxun-Enasoy *saryg'* (o'g'uz, qipchoq *sari*) ~ mo'g'il. *shira* “oq” ekanligiga tayanib, bir qator tilshunoslar O'g'ur tarmog'ini mo'g'ilcha bilan qarindoshlikni eng ko'p saqlagan til

o'laroq bilishadi. Qizig'i shundaki, O'rxun o'lkasi (Mo'g'iliston)da VII–VIII asrlarda bitiktoshlar tilida so'zlashuvchilar keng yoyilgan bir pallada Sharqiy Yevropada o'g'ur turklari (G'arbiy xun, o'g'ur, savir, avar, bulg'or, xazar) o'z ustunligini o'rnatgan bo'lib, ulardan bugungacha o'nlab so'zlar (ayniqa, venger tilidagi o'zlashmalar) — atoqli ot va unvonlar yetib kelgan [Dibo 2007, 29–31, 36–37]. Vizantiya (yunon) yozma manbalarida ular bilan bog'liq quyidagicha kishi ismlar saqlanib qolgan bo'lib, ulardan ayrimlarini keltiramiz:

Διγγελίζιχ “dengizchi”, Χαράτων “Qora-to'n”, Βασιχ “Bars, bars kabi”, Κουρσίχ “kurashchan, jasur”, Ηρέκαν “Arig'qan”, Βαλαχ / Μαλαχ “Biror hayvonning kenja bolasi”, Βαλμάχ “Bashmoq/Barmoq (?)”, Βαρηζ “Bars”, Έλιγερ “Elig (hukmdor)-er”, Κούτιλζις “Qut-elchi”, Χαγάνος “xoqon”, Βαϊανός “Bay / Bayan”, Βοοκολαβράς “Bo'g'-qlonuz”, Κοχ “ko'k”, Σόλαχος “so'loq (chapaqay), Ταργιτης (mo'g'il. *tergechi(n)* “aravachi”, eski turk. \**tegräkchi*), Κοσένζις “ko'zanchi” (turk. *ko'zan* “olako'zan”), Μουχλώ, Τουγά va Βουγά (keyingi ikkalasi xotin-qizlar ismi) va b.

Lotincha yozma manbalarda esa Attila “Idilli”, Ellak “Elik” (hukmdor), Mundzukus “Bunchuq/Munchoq, *tudunus* “tudun” (noib), *iugurrus* “yug'rush” (vazir), *canuzauci/camzauci* “qam-savchi” (shomon-tergovchi) kabi atoqli ot va unvonlari uchrab, ular turkiy til negizidadir [Golden 2002, 70, 72, 85, 89]. Shuningdek, Sharqiy yevropa (Dunay, Qora dengizning shimoli, Shimoliy Kavkaz, Volga — Urolbo'yi)dan topilgan ilk o'rta asrlarga tegishli turli buyumlar sirtidagi bitiklarning sezilarli bir qismi bulg'or, xazar kabi “O'g'ur turklari”ga tegishlidir [Bensing 1986, 11–28; Tekin 1987, 43–44, 54; Mudrak 2005, 83–106].

O'g'ur tarmog'idagilar milodiy IV–V asrlarda Sharqiy Yevropaga kelishlaridan oldin, Urol va G'arbiy Sibir kengliklarida, shuningdek, Qozog'ston dashtlari, Jung'oriya pasttekisligi va Oltoy tog'larining g'arbiy etaklarida yashab, keyinchalik olis kunbotardagi o'lkalarga ko'chishgan [Otkan 1991, 773–780, 784]. Sanab o'tilgan o'lkalarda yashovchilar va ularning qo'shni elatlari Xitoydan shimol va shimoli-g'arbda yashab, yilnomalarda *hsiung-nu* (xun), *yue-ban*, *gao-che* (lug'. “yuksak aravalilar”), *te-le* (\*tegrek “arava”), *xu-a* “avar”, *i-da* (eftalit), *syau-bi* “savir”, *mu-jung* (mojor) kabi turli etnonimlar bilan atalsalar-da, ularning ko'pchiligi tili o'xshash elatlar o'laroq eslatib o'tilgan. Ushbu el-uluslarning Sharqiy yevropaga ko'chishini milodiy III–IV asrlarda xunlar boshlab bergan bo'lib, qolganlari birin-ketin ularning izidan borishgan. Ushbu ko'chmanchi elatlar to'g'risida chuqur izlanishlar olib borgan ayrim g'arblik tilshunolar

yevropa xunlari tilini "turkiy va mo'g'il tillari orasidagi, chamasi birinchisiga yaqinroq oltoy tillaridan biri", deb yozishgan [Pritsak 1982, 478–476; Golden 2002, 71].

Xitoyning shimoli va shimoli-g'arbidagi kengliklarda yashagan ushbu ko'chmanchi elatlar tilining o'zaro o'xshashligi yilnomalarda keltirib o'tilsa-da, ayrim atoqi otlarni aytmaganda, ular bilan to'g'idan-to'g'i bog'liq so'zlar deyarli bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo'lishiga qaramay, *syau-bi* "savir"larning bir tarmog'i o'laroq xitoy yilnomalarida tilga olingan *to-ba* (tabg'ch) urug'i va ularning 386–534 yillarda Xitoyni boshqargan Shimoliy Vey sulolasiga tegishli ko'plab atoqli ot va unvonlar, shuningdek, ayrim atama va iboralar yetib kelgan. Bu borada izlanishlar yuritgan P. Budberg quyidagicha so'zlarni xitoycha ma'nolari bilan solishtirib, ularning turkiy va mo'g'il negizlarini aniqlagan:

1) *K'o-sun* "qirolicha" — turk. \**qasun* ~ *qatun* ~ *qayatun* "xotun — malika, xonning bosh xotinining unvoni";

2) *K'o-po-chên* "eshikog'si" — turk. *qapağçin* "qapug'chi, eshikog'asi";

3) *Ch'i-wan-chên* "tilmoch" — mo'g'il. *kälmärçin* "tilmoch". Shu o'rinda "til" ma'nosidagi mo'g'ilcha *käl* so'zini turkiy tillardagi "kalaka", "kalchik" (duduq so'zlari bilan bir negizdan ekanligini aytib o'tish kerak.

4) *Pi-tê-chên* "kotib" — turk. *bitäkçin* "bitikchi";

5) *Hsien-chên* "pochtachi" — turk. *yamçi* "yomchi, pochtachi";

6) *Tou-lu* "qonuniy bo'lmoq" — turk.-mo'g'il. *törü* "qonun, nizom, to'ra-tuzuk";

7) *K'u-jen-chên* (atoqli ot) — turk.-mo'g'il. *qoyinçin/qoninçin* "qo'ychi, cho'pon";

8) *A-kan* (unvon) — mo'g'il. *aqan* "aka, og'a". Shu o'rinda bu so'z eski turkchada *aqqa* "aka" o'laroq uchrashini ham aytib o'tish kerak [Babayarov, Kubatin 2016, 32-36];

9) *K'o-han* (unvon) — turk.-mo'g'il. *qağan* "xoqon";

10) *Chih-chin* (shahzodalar unvoni) — turk. *tegin* > mo'g'il. *čigin* "shahzoda";

11) *Chih-chên* (ichki amaldorlar unvoni) — turk. *iç* "ichki";

12) *Ho-la-chên* "otliq jangchi" — turk. *atlaçin* "otliq";

13) *To-po-chên* "piyoda jangchi, tug'i" — turk.-mo'g'il. \**tabağçin* "piyoda qo'shin, tovonchi". Bizningcha, bu so'zni eski turkcha *tapuğçi* "xizmatchi" so'zi bilan tenglashtirsa bo'ladi;

14) *Hu-lo-chên* "kamarlarni saqlovchi harbiy amaldor" — turk. \**qurağçi / qorçi* "qo'rchi, kamarchi", mo'g'il. *xorçi*;



15) *So-tu-chên* (unvon) — turk.-mo'g'il. *sağdaqçin* “o'q-yoy saqlovchi”;

16) *P'u-ta-chên* “hukmdor kiyimlarini qo'riqlovchi amaldor” (unvon) — turk.-mo'g'il. *boğdaqçin* “bo'g'chachi”;

17) *Chê-hui-chên* (unvon) — turk.-mo'g'il. *jarğuçi* “tergovchi”;

18) *A-chên* “oshpaz” — turk. *aščin* “oshchi, oshpaz” va b. [Boodberg 1936, 169–179; Clauson 1960, 114–118].

Qisqasi, *to-ba* (tabg'ach)lar tilidan yetib kelgan so'zlarning ko'pchiligi turkcha va mo'g'ilcha so'zlar bilan uyg'unlikka egaligiga urg'u bergan P. Budberg ularning tili, o'z navbatida *syân-bi* tili “mo'g'ilcha atamalar ancha-muncha uchraydigan, biroq negizi turkiy bir til” bo'lganini yozadi [Boodberg 1936, 185; Çakmak 2003, 6]. Budbergning bu qarashi tadqiqotchilar orasida anchagina keng yoyilishi bilan birga unga qarshi chiqqanlar ham talaygina [Vovin 2007, 191–206]. Shunga qaramay, ko'pchilik tilshunoslar bu borada bir to'xtamga kelgan bo'lib, *syân-bilar* va ularning izdoshi yoki bir tarmog'i bo'lmish *to-ba* (tabg'ach) tarkibida ko'plab xun (proto-turk) va proto-mo'g'il urug'lari o'rin olganligi, ular orasida xunlarning salmog'i yuqori bo'lganini yozadilar [Bazin 1950, 323; Clauson 1960, 105–123; Çakmak 2003, 6; Yıldırım 2012, 2713-2714]. Ayniqsa, keyingi yillarda xitoy tilshunosi Sanping Chen tomonidan tabg'achlarning turkiy tilli bo'lganligi to'g'risidagi yangicha qarashlari ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqatini tortdi [Chen Sanping 2012, 183–191]. Shu o'rinda Shimoli-G'arbiy Xitoyda yashagan *syân-bi* (savir) va *to-ba* (tabg'ach) elatlari bilan bog'liq etnonimlardan bir qanchasining keyinchalik Sharqiy Yevropaga ko'chgan bir qator turkiy elatlarning nomiga uyqash kelishini aytib o'tish kerak: *Hsien-pi* “savir” (*särbi*. Bu yerda undoshlar o'rin almashinuvi yuz bergan: *särbi* > *säbir/savir*), *Mu-lu-hui/Pu-lu-ken* “bulg'or” (turk. *bulğa*—“aralastirmoq, bulamoq”, *Mu-jung / Mu-yü-kên* “mojor”, *Wu-huan/Hu-a* “avar”, *T'o-pa/Tabğaç* “chuvash” (*t ~ ch*; *ch ~ sh* almashinuvi, so'z o'rtasida *ğ* undoshining tushib qolishi) [Boodberg 1936, 301–302; Clauson 1960, 105–123; Golden 2002, 84].

Demak, ham milodiy ilk mingyillik o'rtalarida Oltoy tog'lari tevaragida yashagan elatlar, ham ilk o'rta asrlarda Sharqiy Yevropada tarqalgan el-uluslarning ko'pchiligi “O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tili”da so'zlashuvchi boshqa turkiy elatlardan birmuncha ajralib turuvchi lahjada so'zlashgan bo'lib, bu tilni “O'g'ur turkchasi” deb atash keng yoyilgan. Xo'sh, unda har ikkala tarmoq — turkiy tillarning “Sharqiy xun” va “G'arbiy xun” tarmoqlari bitta ona tarmoqdan ajralib chiqqanini ko'rsatadigan dalillar bormi, Osiyo

Xun saltanati boshqaruvchilarining tili ulardan qay biriga yaqinroq bo'lgan, degan savollarga qanday javob topsa bo'ladi? 648-yili kitob holiga keltirilgan xitoycha "Szin shu" ("Szin sulolasi tarixi") yilnomasida milodiy 329-yilgi voqeliklar bilan bog'liq *Hsiung-nu* (xun) tiliga tegishli bir jumla o'rin olgan bo'lib, xitoycha ag'darmasi ham saqlanib qolgan ushbu parchani tilshunoslarning ko'pchiligi turkiy til neozida quyidagicha o'giradilar:

秀支 替 剛 ( Xiùzhī tiligāng ) – 僕谷 秃 劬當 ( Púgǔ qútūdāng )

A. Diboga ko'ra:

*Sü-ge talî-t-kan* – "Qo'shinni tashing (tashqariga undang),

*Bökö-g göt-ök-ta-η* – Bo'kuni tuting" [Dibo 2007, 77; Kisamov 2017, 78-79].

Bu yerda birinchi jumladagi *sü* – O'rxun bitiklarida "qo'shin" ma'nosidagi *sü* so'zi, *ge* — qadimgi turkcha jo'nalish kelishigi, *talî-t-kan* "tashing, tashqariga chiqaring" so'zlaridan iborat bo'lib, "qo'shinni tashqariga undang", ya'ni "urushga chorlang" ma'nosidadir. Ikkinchi jumlada esa *Bökö-g* "Bo'ku" "qahramon, pahlavon" ma'nosidagi kishi ismi yoki unvoni, *-g*, *\*gö-* qadimgi turkcha tushum kelishigi, *t-ök-ta-η* esa "tuting" so'zlari bilan ochiq lanadi. Bundan ko'rinadiki, Xun boshqaruvchilaridan biri o'z qo'shiniga, urushga o'tlanib, Bo'ku ismli yog'iyni tutib kelish uchun buyruq bergan va bunga guvoh bo'lgan xitoyliklar uning og'zidan chiqqan so'zlarni shu tariqa yozuvga ko'chirishgan. Ieroglif yozuvda berilgan bo'lishiga qaramay, xun tili xususiyatlarini o'zida aks ettirgan ushbu til bilan qadimgi turkiy til — O'rxun-Enasoy bitiktoshlarining tili leksik va morfologik tomondan unchalik ko'p farqlanmagan. Shu bilan birga, *talî-t-kan* "tashing, tashqariga chiqaring" so'zi bitiktoshlardagidan ko'ra ko'proq "G'arbiy xun" ("O'g'ur turkchasi")ga yaqinroq kelishini aytib o'tish kerak. Bu yerda bitiktoshlardagi *taşiq-* "chiqmoq, tashqariga chiqmoq" fe'lining *talî-* ko'rinishida kelishi uning ancha eski, arxaik ekanligini ko'rsatib turibdi. Shu ham borki, ushbu parchaning faqatgina leksik va morfologik tomonlarigina emas, balki tuzilishi va uslubiy tomoni qadimgi turkiy she'riyatga uyg'un keladi. Shu o'rinda bitiktoshlarda "qo'shin urushga bordi" ma'nosida *sü taşiqdi* iborasiga ko'p bor duch kelinishini [User, 2009: 376] ham aytib o'tish kerak. Demak, bir-biridan ancha uzoq davrlarda yozilganiga qaramay (birinchisi — mil. III asr, ikkinchisi — VIII asr) deyarli bir iboraning o'rin olishini qadimgi turkiy jamiyatning o'ziga xosligi, ya'ni turkiy elatlarning hayot tarzida harbiylik ustuvor ekanligi bilan bog'lashga undaydi.

## **Xulosa**

Yuqorida qisqacha ko'rib chiqilgan ma'lumotlar negizida quyidagicha to'xtamlarga kelindi:

— xoh genetik qarindosh bo'lsin, xoh o'zaro qo'shniçilikdan o'xshashlik yuzaga kelgan bo'lsin, bugungi kunda "Oltoy til oilasi" deb atalayotgan turk, mo'g'il, tungus-manjur, koreys va yapon tillari orasida bundan qariyb 5–6 ming yil oldin ajralib ketishlar boshlanadi. Ular orasida turk va mo'g'il tillari o'rtasidagi birdamlik yana bir necha ming yillarga cho'zilsa-da, miloddan oldingi so'nggi mingyillikda bu birlik bir-biridan uzoqlasha boshlaydi. Shu mingyillikdan to milodiy bir mingyillikning o'rtalarigacha o'z holicha rivojlangan ilk turkcha — "proto-turk tili" bir qator tovushlarga ko'ra bugungi turkiy tillardan ayriçha bo'lib, ushbu til milodning VII-VIII asrlarida yaratilgan "O'rxun-Enasoy bitiktoshlari" tilidan ançha o'zgachalikka ega edi;

— shu negizdagi "O'g'ur turkçasi" (turkiy tilning "G'arbiy xun tarmog'i", "Bulg'or turkçasi") turkiy tillarning tarixiy ildizlarini o'rganishda o'ziga xos o'rin tutib, turkiy tilli elatlarning geografik o'rni, ilk yurti, ko'chish bosqichlari, urug'-qabilaviy bo'linishi, boshqa tillar bilan qarindoshlik darajasi kabi bir necha masalalarning o'z yechimini topishida yordam beradi. Shu o'rinda "O'g'ur turklari" bilan u yoki bu darajada bog'lanuvchi el-uluslar, ayniqsa, ularning Sharqiy Yevropaga ko'çganlari "turkiy tilli", Shimoli-Sharqiy Xitoy va Oltoy tog'lari orasida yashaganlari esa "mo'g'il tilli" deb yuritilishi kabi chigalliklar kelajakda o'z yechimini topishi kerak bo'ladi;

— turkiy tilning "O'g'ur tarmog'i"ga kiruvchi G'arbiy xun, o'g'ur, savir, avar, bulg'or, xazar tillari bugungi kunda "o'lik tillar" sanalsa-da, ularning kenja avlodi — chuvashçha proto-turk tili bo'yicha tushunchalarimizni boyitadi. Ayniqsa, qadimgi turkiylar jamiyatida o'ziga xos o'rin egallagan diniy tushunchalar bilan bog'liq "Tangri", "qut", siyosiy uyushuv, boshqaruv va davlatchilikka tegishli "el", "o'rda", "yabg'u", "xoqon", "xotun", "tegin", "erkin", "su" (qo'shin) kabi so'zlar Turk xoqonligi o'rtaga chiqishidan oldin ham turkiy negizli siyosiy uyushmalarda keng qo'llanilganini ko'rsatadi;

— "O'g'ur tarmog'i"dagi el-uluslar miloddan oldingi mingyillikning o'rtalaridagi proto-turkçha xususiyatlarni birmuncha saqlagan bo'lib, ularning tili oltoy tillari orasida turkiy til turkumiga eng yaqin guruh sanaluvchi mo'g'ilçha bilan birmuncha umumiylikka ega. Bu nafaqat har ikkala guruh tillaridagi so'z va so'z birikmalarida emas, balki so'z yasovchi qo'shimçalarda o'xshashlik borligida

ko'zga tashlanadi;

— boshlang'ichda Oltoy tog'lari tevaragida, aniqrog'i, ushbu tog' tizmalarining janubiy va g'arbiy etaklarida yashagan, keyinchalik — milodiy mingyillikning ilk asrlarida G'arbiy Sibir (Shimoliy Qozog'iston — Uralbo'ylari)da keng yoyila boshlagan "O'g'ur turklari" ilk o'rta asrlarda kunbotarga — Sharqiy Yevropa (Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Qoradengiz shimoli, Karpat tog'lari, Bolqon yarim oroli)ga ko'chib, bu yerlardan o'zidan bir qator etnografik va lingvistik izlar qoldiradilar. Ulardan biri — bulg'orlar slavyanlashgan bo'lsa, o'n-o'g'ur va mojarlar, bugungi venger xalqining etnik shakllanishida qatnashib, fin-ugorlashib ketadilar;

— bugungi kundagi eng ko'p sonli turkiy xalqlar so'zlashadigan til — "O'rxun-Enasoy turkchasi" esa ushbu tarmoqdan anchagina farqli bo'lib, o'g'uz, qarluq, qipchoq, xalaj, Janubiy Sibir turkiy lahjalarining ota-bobolari ushbu tilda so'zlashishgan. O'z o'rnida u xun tilining "Sharqiy tarmog'i" sifatida "G'arbiy tarmoq bilan bitta negizdan o'sib chiqqan. Turk xoqonligi (552-744)dan ancha oldin — milodiy III-IV asrlarida yuz bergan bu jarayon nafaqat har ikkala tarmoqning til xususiyatlarida, balki etnik atamalarida ham o'zaro uyg'unlik borligida ko'zga tashlanadi (*ogur/o'g'ur ~ o'g'uz; to'qurg'ur/qutrig'ur ~ to'g'uzg'uz "to'qquz o'g'uz"; on-ogur/o'n-o'g'ur ~ \*o'n-o'g'uz*).

Xullas, birmuncha yaqin deb sanaladigan turk, mo'g'il, tungus-manchjur va ularga o'ta uzoq qarindosh deb bilinadigan koreys va yapon tillarini o'z ichiga oluvchi "Oltoy til oilasi" nazariyasi to'laqonli o'z yechimini topmagan bo'lsa-da, uzoq va yaqin o'tmishidan yuzlab, minglab so'zlar yetib kelgan turkiy tilga tegishli ilk so'zlarni aniqlabgina qolmay, uning qanday bosqichlarni bosib o'tganini kuzata olamiz. Qizig'i shundaki, ular deyarli ikki yarim ming yildan beri unchalik o'zgarishga uchramasdan bugungacha saqlanib qolgan.

### **Adabiyotlar**

- Babayar, G. 2011. "Köktürk tarihi için bir kaynak olarak Oğuz-name: destanda Köktürk-Selçuklu tarihinin karıştırılması üzerine". Kitobda *Özkan İzgi Armağanı*, 121-134. Ankara.
- Бабаяров, Г., Кубатин, А. 2010. "Некоторые аспекты взаимоотношений между кушанами и древними тюрками в свете нумизматических данных". Kitobda *Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик, "Академик Карим Шониёзов ўқишлари" туркумида этнологларнинг V Республика илмий конференцияси материаллари*, 64 – 74. Тошкент.

- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. "Old Turkic titles used before the Turkic Qaghanate". *Kitobda Yalim Kaya Bitigi. Osman Fikri Sertkaya Armağanı*. Ed. Hatice Şirin User, 153-165. Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü.
- Бабаяров, Г., Кубатин, А. 2016. "К вопросу о новом прочтении и интерпретации некоторых слов и фраз в Енисейских памятниках Е-144, Е-48, Е-37, Ю-10". *Эпиграфика Востока. Вып. 32, 3* – 36. Москва: Институт востоковедение.
- Баходиров, Р. 2009. "История Востока в "Ключах наук". *Шарқшунослик* 14, 108-117.
- Бенцинг, Н. 1986. "Языки гуннов, дунайских и волжских булгар". *Зарубежная тюркология. Вып. I. Древние тюркские языки и литературы*, 11-28. Москва: Наука.
- Бичурин, Н. Я. 1950. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. Том I*. Москва – Ленинград: Изд. АН СССР.
- Boodberg, P. A. 1936. "The Language of the T'o-Pa Wei". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 1, No. 2: 167-185.
- Boodberg, P. A. 1936. "Two notes on The History of Chinese Frontier". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 1, No. ¾: 283-307.
- Boodberg, P. A. 1939. "Marginalia to The Histories of The Northern Dynasties". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 4, No. ¾: 230-283.
- Bosworth, C. E., Clauson, G. 1965. "Al-Xwārazmī on the Peoples of Central Asia". *JRAS* No. ½: 2-12.
- Demir, N., Yılmaz, E. 2002. "Ural-Altay Dilleri ve Altay Dilleri Teorisi". *Türkler*, c. I: 394-402.
- Dibo, A., Starostin, G. 2008. "In Defense of the Comparative Method or The End of the Vovin Controversy". *Aspects of Comparative Linguistics* 3: 119-258.
- Дыбо, А.В. 2007. *Лингвистические контакты ранних тюрков. Лексический фонд. Пратюркский период*. Москва: Вост. лит.
- Doerfer, G. 1973. "Zur Sprache der Hunnen". *CAJ* 17/1: 1-51.
- Дёрфер, Г. 1986. "О языке гуннов". *Зарубежная тюркология. Вып. I. Древние тюркские языки и литературы*, 71-134. Москва: Наука.
- Grenet, F., de la Vaissière, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and Archaeology*, 155-196. Kamakura.
- Gömeç, S. 2004. "Oğuz Kağan'ın kimliği, Oğuzlar ve Oğuz Kağan Destanları üzerine bir-iki söz". *AÜ DTCTF Tarih Araştırmaları Dergisi* 35: 113-121.
- Ильясов, Дж. Я. 1999. "Эфталиты – алхоны в Чаганиане". *Нумизматика Центральной Азии* 04: 32-41.
- Исоматов, М. М. 2009. *Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии*. Автореф. дисс. на соискание ученой степени д.и.н. Душанбе: ТГПУ им. С. Айни.
- Кисамов, Н. 2017. "Хуннское пророчество". В книге *Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Вып. 2. Древность. Средние века. Новое время*, 59 – 82. Ташкент: LAP LAMBERT Academic Publishing.
- Konukçu, E. 2002. "Akhunlar". *TÜRKLER, Cilt I*. 827-830.

- Кошғарий, Махмуд. 1960–1963. *Девону-луғот ит-турк (Туркий сўзлар девони)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. Тошкент: Фан.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2. Mitteliranische Personennamen 8*. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Maenchen-Helfen, O. *The World of the Huns. Studies in Their History and Culture*. Berkeley: University of California Press.
- Максудов, Ф., Бабаяров, Г. 2009. “К этимологии топонима Чач”. В книге *Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет, 199-205*. Тошкент.
- Menges, K.H. 1968. *The Turkic Languages and Peoples: An Introduction to Turkic Studies*. Wiesbaden.
- Miller, R. A. 1971. *Japanese and Other Altaic Languages*. Chicago-London.
- Мудрак, О. А. 2005. “Заметки о языке и культуре дунайских булгар”. *Orientalia et Classica VI. Аспекты компаративистики 1*: 83-106.
- Немет, Ю. 1976. “К вопросу об аварях” (перевод с немецкого И. Г. Добродомова). В книге *Turcologica. К 75-летию академика А. Н. Кононова*, 298-305. Ленинград: Наука.
- Otkan, P. 1991. “IV. yüzyılda Kuzey Çin'deki Yabancı Halkların Yerleşim Alanları ve Nüfusu”. *Erdem*, C. 5/15, S. 15: 773-790.
- Pelliot, P. 1920-1921 “Note sur les Tou-yu-houen et les Sou-p'i”. *T'oung Pao*, Second Series, Vol. 20, No. 5: 323-331.
- Пилипчук, Я. В. 2016. “Этничность и историческая география владений эфталитов”. *Иран-наме. Вып. 1-2 (37-38)*: 423-448.
- Рорре, Н. 1957. *Introduction to Altaic Linguistics*. Wiesbaden.
- Рорре, Н. 1960. “Vergleichende Grammatik der altaischen Sprachen”. *Kitobda I. Vergleichende Lautlehre*, 57 - 68. Wiesbaden.
- Рорре, Н. 1972. “A New Symposium on the Altaic Theory”. *CAJ* 16: 37-58.
- Потапов, Л .П. 1969. *Этнический состав и происхождение алтайцев (Историко-этнографический очерк)*. Ленинград: Наука.
- Pulleyblank, E. G. “The Constantal System of Old Chinese”. *Asia Major* 9: 58-144, 206-265.
- Пуллиблэнк, Э. Дж. 1986. “Язык сюнну”. *Зарубежная тюркология. Вып. I. Древние тюркские языки и литературы*, 29-70. Москва: Наука.
- Pritsak, O. 1982. “The Language of the Attila Clan”. *HUS*, 428-476.
- Қўчқортюев, И., Исабеков, Б. 1984. *Туркий филология кириш*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Rahman, A., Grenet, F., Sims-Williams, N. 2006. “A Hunnish Kushan-shah”. *Journal of Inner Asian Art and Archaeology* 1: 125-131.
- Ramstedt, G. 1924. “A Comparison of the Altaic Languages with Japanese”. *Transactions of the Asiatic Society of Japan* 2nd ser. 1: 41-54.
- Ramstedt, G. 1957. “Einführung in die altaische Sprachwissenschaft”. *I. Lautlehre MSFOu, CIV*.
- Róna-Tas, A. 1986. *Language and History. Contributions to Comparative Altaistics*, Szeged.
- Ртвеладзе, Э. В. 2004. “Монеты Катфара / Гатфара – предводителя гуннов”. *Нумизматика Центральной Азии VII*: 106-109.
- Clauson, G. 1956. “The Case Against the Altaic Theory”. *CAJ* II: 181-187.

- Clauson, G. 1960. Turk, Mongol, Tungus. *Asia Major* VIII/1: 105-123.
- Starostin, S., Dybo, A., Mudrak, O. 2003. *Etymological Dictionary of the Altaic Languages*. Boston-Leiden: Brill.
- Tekin, T. 1976. "Altay Dilleri Teorisi". *Türk Dünyası El Kitabı*, 118-130. Ankara.
- Tekin, T. 1987. *Tuna Bulgarları ve dilleri*. Ankara: TDK.
- Tekin, T. 1993. *Hunların Dili*. Yenişehir: Anlara.
- Tekin, T. 2008. "Türkçenin yakın ve uzak akrabaları". *TDA 18. Talat Tekin Armağanı*, 18-27. Ankara.
- Толстов, С. П. 1948. *Древний Хорезм*. Москва.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları. Söz Varlığı İncelemesi*. 1. Baskı. Konya: Kömen Yayınları.
- Vaissière, E. de la. 2003. Is There a "Nationality of the Hephtalites?". *Bulleten of the Asia Institute*. New Series. Vol. 17: 119-132.
- Vaissière, E. de la. 2005. "Huns et Xiongnu". *Central Asiatic Journal* 49/1: 3-26.
- Вессьер, Э. де ла. 2014. "Хунны и сюнну". *Археология и история Центральной Азии в трудах французских ученых. Том II*, 117-133. Самарканд: МИЦАИ.
- Владимирцов, Б. Я. 1929. *Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхасского наречия. Введения и фонетика*. Ленинград.
- Vovin, A. 2005. "The End of the Altaic Controversy". *CAJ* 49/1: 71-132.
- Vovin, A. 2007. "Once Again on the Tabgač Language". *Mongolian Studies* XXIX: 191-206.
- Vovin, A. 2007. "Once again on the etymology of the title *qaγan*". *Studia Ethnologica Cracoviensia* vol. 12: 177-187.
- Voynikov, Zh. 2018. *Who are the ancient Bulgarians or protobulgars?* Sofia.
- Хўжаев, А. 1995. "Тунгонлар, солор, хитой, туролар". *Шарқшуослик* 6: 135-148.
- Yıldırım, K. 2012. "Erken Tabgaç (T'o-pa) Tarihinin Ana Hatları (Wei Shu'nun İlk Bölümüne Göre)". *Turkish Studies. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic* Vol. 7/3: 2711-2738.
- Yılmaz, E. 2018. "İki Binli Yılların Başında Altay Dilleri Araştırmaları: Çalışmalar, Yöntemler, Eğilimler". *Turkic Linguistics and Philology* 1/1: 1-15.
- Щербак, А. М. 1959. "О алтайской гипотезе в языкознании". *Вопросы языкознания* 2: 31-45.
- Shirota, Sh. 2005. "The Chinese Chroniclers of the Khazars: Notes on Khazaria in Tang Period Texts". *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 14: 231-261.
- Çakmak, T. 2003. "Hsiung-nu (Hun) kişi ad ve unvanlarının Eski Çince yazı çevirimi". *A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Entitüsü Dergisi* 21: 1-17.
- Chavannes, E. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux". *Sbornik trudov Orxonskoy ekspeditsii*, Vip. 6. SPb: 1903.
- Chen, Sanping. 2012. *Multicultural China in the Early Medieval Ages*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

**G' Boboyorov**  
(Tashkent, Uzbekistan)  
boboyorov\_g@navoiy-uni.uz

## **The Proto-Turkic Epoch Of The Turkic Language: The Branches Of Xun And Ogur-Bulgar**

### **Abstarct**

Today Turkic languages are divided into 3 main large dialects like Oghuz, Qarluq, Qipchaq and relatively small dialects such as Halač, Southern Siberian Turkic, Chuvash, and Yakut (Saha). Each or most of these dialects are the followers of the language of the ancient Turkic – “the language of the Orkhon-Yenisey inscriptions”, i.e. according to some Turkologists, they are the directly follower of the Common Turkic, and some of them different from these languages. Especially, this is very obvious in languages of Chuvash and in language of Volga Bulgarians of the Middle ages, for them the terms of “the followers of proto-Turkic language” or “a branch of the Hun language” are widely accepted. In this article, the terms “proto-Turkic” or “Hun language” the author try to analyze the questions what lies the behind these terms and why Altaic scholars or Turkologists came to conclusion that the aforementioned dialects are considered to be Proto-Turkic.

**Keywords:** *Old Turkic language, Common Turkic language, Hun, Ogur/Bulgar Turks, Mongols, Orkhon-Yenisey inscriptions.*

**About the author:** Gaybulla Boboyorov – Doctor of Sciences in History, Tashkent State university of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**Recommended citation:** Boboyorov, G'aybulla. 2019. “Turkiy tilning proto-turk davri: xun va o'g'ur-bulg'or tarmoqlari”. *Oltin bitiglar* 3: 81—106.



**References**

- Babayar, G. 2011. "Köktürk tarihi için bir kaynak olarak Oğuz-name: destanda Köktürk-Selçuklu tarihinin karıştırılması üzerine". Kitobda *Özkan İzgi Armağanı*, 121-134. Ankara.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2010. "Nekotorie aspekti vzaimootnosheniy mejdu kushanami i drevnimi tyurkami v svete numizmaticheskix dannix". Kitobda *Etnos va madaniyat: an'anaviylik va zamonaviylik*, "Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari" turkumida etnologlarning V Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari, 64 – 74. Toshkent.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. "Old Turcic titles used before the Turcic Qaghanate". Kitobda *Yalın Kaya Bitigi. Osman Fikri Sertkaya Armağanı*. Ed. Hatice Şirin User, 153-165. Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2016. "K voprosu o novom prochtenii i interpretatsii nekotorix slov i fraz v Yeniseyskix pamyatnikax Ye-144, Ye-48, Ye-37, Yu-10". *Epigrafika Vostoka. Vip. 32*, 3 – 36. Moskva: Institut vostokovedenie.
- Baxodirov, R. 2009. "Istoriya Vostoka v "Klyuchax nauk". *Sharqshunoslik* 14, 108-117.
- Bensing, N. 1986. "Yaziki gunnov, dunayskix i voljskix bulgar". *Zarubejnaya tyurkologiya. Vip. I. Drevnie tyurkskie yaziki i literaturi*, 11-28. Moskva: Nauka.
- Bichurin, N. Ya. 1950. *Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. V 3-x tomax. Tom I*. Moskva – Leningrad: Izd. AN SSSR.
- Boodberg, P. A. 1936. "The Language of the T'o-Pa Wei". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 1, No. 2: 167-185.
- Boodberg, P. A. 1936. "Two notes on The History of Chinese Frontier". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 1, No. ¾: 283-307.
- Boodberg, P. A. 1939. "Marginalia to The Histories of The Northern Dynasties". *Harvard Journal of Asiatic Studies* Vol. 4, No. ¾: 230-283.
- Bosworth, C. E., Clauson, G. 1965. "Al-Xwārazmī on the Peoples of Central Asia". *JRAS* No. ½: 2-12.
- Demir, N., Yılmaz, E. 2002. "Ural-Altay Dilleri ve Altay Dilleri Teorisi". *Türkler*, c. I: 394-402.
- Dibo, A., Starostin, G. 2008. "In Defense of the Comparative Method or The End of the Vovin Controversy". *Aspects of Comparative Linguistics* 3: 119-258.
- Dibo, A.V. 2007. *Lingvisticheskie kontakti rannix tyurkov. Leksicheskiy fond. Pratyurkskiy period*. Moskva: Vost. lit.
- Doerfer, G. 1973. "Zur Sprache der Hunnen". *CAJ* 17/1: 1-51.
- Dyorfer, G. 1986. "O yazike gunnov". *Zarubejnaya tyurkologiya. Vip. I. Drevnie tyurkskie yaziki i literaturi*, 71–134. Moskva: Nauka.
- Grenet, F., de la Vaissière, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and Archaeology*, 155-196. Kamakura.
- Gömeç, S. 2004. "Oğuz Kağan'ın kimliği, Oğuzlar ve Oğuz Kağan Destanları üzerine bir-iki söz". *AÜ DTCF Tarih Araştırmaları Dergisi* 35: 113-121.
- Ilyasov, Dj. Ya. 1999. "Eftaliti – alxonii v Chaganiane". *Numizmatika sentralnoy Azii* 04: 32–41.
- Isomatov, M. M. 2009. *Eftalitskoe gosudarstvo i yego rol v istorii sentralnoy Azii*. Avtoref. diss. na soiskanie uchenoy stepeni d.i.n. Dushanbe: TGPU im.

- S. Ayni.
- Kisamov, N. 2017. "Xunnskoe prorochestvo". V knige *Voprosi etnogeneza i etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii. Vip. 2. Drevnost. Srednie veka. Novoe vremya*, 59 – 82. Tashkent: LAP LAMBERT Academic Publishing.
- Konukçu, E. 2002. "Akhunlar". *TÜRKLER, Cilt 1*. 827-830.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960–1963. *Devonu-lug'ot it-turk (Turkiy so'zlar devoni)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. Toshkent: Fan.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2. Mitteliranische Personennamen 8*. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Maenchen-Helfen, O. *The World of the Huns. Studies in Their History and Culture*. Berkeley: University of California Press.
- Maksudov, F., Babayarov, G. 2009. "K etimologii toponima Chach". V knige *Stolitse Uzbekistana Tashkentu 2200 let*, 199-205. Toshkent.
- Menges, K.H. 1968. *The Turkic Languages and Peoples: An Introduction to Turkic Studies*. Wiesbaden.
- Miller, R. A. 1971. *Japanese and Other Altaic Languages*. Chicago-London.
- Mudrak, O. A. 2005. "Zametki o yazike i kulture dunayskix bulgar". *Orientalia et Classica VI. Aspekti komparativistiki 1*: 83-106.
- Nemet, Yu. 1976. "K voprosu ob avarax" (perevod s nemeskogo I. G. Dobrodomova). V knige *Turcologica. K 75-letiyu akademika A. N. Kononova*, 298-305. Leningrad: Nauka.
- Otkan, P. 1991. "IV. yüzyilda Kuzey Çin'deki Yabancı Halkların Yerleşim Alanları ve Nüfusu". *Erdem*, C. 5/15, S. 15: 773-790.
- Pelliot, P. 1920-1921 "Note sur les Tou-yu-houen et les Sou-p'i". T'oung Pao, Second Series, Vol. 20, No. 5: 323-331.
- Pilipchuk, Ya. V. 2016. "Etnichnost i istoricheskaya geografiya vladeniy eftalitov". *Iran-name. Vip. 1-2 (37-38)*: 423-448.
- Poppe, N. 1957. *Introduction to Altaic Linguistics*. Wiesbaden.
- Poppe, N. 1960. "Vergleichende Grammatik der altaischen Sprachen". Kitobda *I. Vergleichende Lautlehre*, 57 - 68. Wiesbaden.
- Poppe, N. 1972. "A New Symposium on the Altaic Theory". *CAJ* 16: 37-58.
- Potapov, L. P. 1969. *Etnicheskiy sostav i proisxojdenie altaysev (Istoriko-etnograficheskiy ocherk)*. Leningrad: Nauka.
- Pulleyblank, E. G. "The Constantal System of Old Chinese". *Asia Major* 9: 58-144, 206-265.
- Pulliblenk, E. Dj. 1986. "Yazik syunnu". *Zarubejnaya tyurkologiya. Vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i literaturi*, 29-70. Moskva: Nauka.
- Pritsak, O. 1982. "The Language of the Attila Clan". *HUS*, 428-476.
- Qo'chqorto'ev, I., Isabekov, B. 1984. *Turkiy filologiya kirish*. Toshkent: O'qituvchi.
- Rahman, A., Grenet, F., Sims-Williams, N. 2006. "A Hunnish Kushan-shah". *Journal of Inner Asian Art and Archaeology* 1: 125-131.
- Ramstedt, G. 1924. "A Comparison of the Altaic Languages with Japanese". *Transactions of the Asiatic Society of Japan* 2nd ser. 1: 41-54.
- Ramstedt, G. 1957. "Einführung in die altaische Sprachwissenschaft". *I. Lautlehre MSFOu, CIV*.
- Róna-Tas, A. 1986. *Language and History*. Contributions to Comparative Altaistics, Szeged.
- Rtveladze, E. V. 2004. "Moneti Katfara / Gatfara – predvoditelya gunnov".

*Numizmatika sentralnoy Azii* VII: 106-109.

- Clauson, G. 1956. "The Case Against the Altaic Theory". *CAJ* II: 181-187.
- Clauson, G. 1960. Turk, Mongol, Tungus. *Asia Major* VIII/1: 105-123.
- Starostin, S., Dybo, A., Mudrak, O. 2003. *Etymological Dictionary of the Altaic Languages*. Boston-Leiden: Brill.
- Tekin, T. 1976. "Altay Dilleri Teorisi". *Türk Dünyası El Kitabı*, 118-130. Ankara.
- Tekin, T. 1987. *Tuna Bulgarları ve dilleri*. Ankara: TDK.
- Tekin, T. 1993. *Hunların Dili*. Yenişehir: Anlara.
- Tekin, T. 2008. "Türkçenin yakın ve uzak akrabaları". *TDA 18. Talat Tekin Armağanı*, 18-27. Ankara.
- Tolstov, S. P. 1948. *Drevniy Xorezm*. Moskva.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları. Söz Varlığı İncelemesi*. 1. Baskı. Konya: Kömen Yayınları.
- Vaissière, E. de la. 2003. Is There a "Nationality of the Hephtalites?". *Bulleten of the Asia Institute*. New Series. Vol. 17: 119-132.
- Vaissière, E. de la. 2005. "Huns et Xiongnu". *Central Asiatic Journal* 49/1: 3-26.
- Vesser, E. de la. 2014. "Xunni i syunnu". *Arxeologiya i istoriya sentralnoy Azii v trudax fransuzskix uchenix. Tom II*, 117-133. Samarkand: MITSAL.
- Vladimirsov, B. Ya. 1929. *Sravnitel'naya grammatika mongolskogo pismennogo yazika i xalxasskogo narechiya. Vvedeniya i fonetika*. Leningrad.
- Vovin, A. 2005. "The End of the Altaic Controversy". *CAJ* 49/1: 71-132.
- Vovin, A. 2007. "Once Again on the Tabgač Language". *Mongolian Studies* XXIX: 191-206.
- Vovin, A. 2007. "Once again on the etymology of the title *qayan*". *Studia Etnologica Cracoviensia* vol. 12: 177-187.
- Voynikov, Zh. 2018. *Who are the ancient Bulgarians or protobulgars?* Sofia.
- Xo'jaev, A. 1995. "Tungonlar, solor, xitoy, turolar". *Sharqshuoslik* 6: 135148.
- Yıldırım, K. 2012. "Erken Tabgaç (T'o-pa) Tarihinin Ana Hatları (Wei Shu'nun İlk Bölümüne Göre)". *Turkish Studies. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic* Vol. 7/3: 2711-2738.
- Yılmaz, E. 2018. "İki Binli Yılların Başında Altay Dilleri Araştırmaları: Çalışmalar, Yöntemler, Eğilimler". *Turkic Linguistics and Philology* 1/1: 1-15.
- Щербак, А. М. 1959. "O altayskoy gipoteze v yazikoznaniy". *Voprosi yazikoznaniya* 2: 31-45.
- Shirota, Sh. 2005. "The Chinese Chroniclers of the Khazars: Notes on Khazaria in Tang Period Texts". *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 14: 231-261.
- Çakmak, T. 2003. "Hsiung-nu (Hun) kişi ad ve unvanlarının Eski Çince yazı çevirimi". *A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Entitüsü Dergisi* 21: 1-17.
- Chavannes, E. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux". *Sbornik trudov Orxonskoy ekspeditsii*, Vip. 6. SPb: 1903.
- Chen, Sanping. 2012. *Multicultural China in the Early Medieval Ages*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

**T. Tog'ayev***(Toshkent, O'zbekiston)*

togaev@navoiy-uni.uz

## Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek shevalarida qo'llanishi

### Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek shevashunosligi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari, erishilgan ilmiy yutuqlar, sheva leksikasiga oid chop etilgan lug'atlar qayd etildi. O'zbek xalq shevalari bo'yicha o'z vaqtida muayyan tadqiqot ishlari bajarilgan va materiallar to'plangan bo'lsa-da, maqolada ularning ba'zilari hamon yetarli darajada o'rganilmagan, ayrimlari esa hali tadqiq etilmagan.

Taqdim etilayotgan mazkur ishda Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota tumanlari, shuningdek, Samarqand viloyatining g'arbiy tumanlari: Qo'shrabot, Narpay, Ishtixon shevalaridagi o'zbek adabiy tilida uchramaydigan ayrim so'z va atamalar to'g'risida bahs yuritildi. Ularning etimologiyasi, tarixi, eski turkiy yodgorliklarda, hozirgi o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tilida, shuningdek, qardosh tillarda mavjudligi masalalariga e'tibor qaratildi. Xususan, «to'rkunlamoq», «tevana», «min», «to'ramoq» so'zlari ma'nosiga izoh berildi, etimologiyasi tekshirildi. Bu so'zlar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», o'zbek mumtoz adabiyoti asarlaridagi, shuningdek, bugungi uyg'ur, qirg'iz va boshqa turkiy tillar dialektlaridagi shakllari bilan qiyoslab tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** *til tarixi, turkiy yodgorliklar, adabiy til, shevalar, dialektologiya, to'rkun, tevana, mun/min, to'ramoq, sin, etimologiya, lug'at.*

**Muallif haqida:** *To'lqin Tog'ayev* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Tavsiya etiladigan havola:** Tog'ayev, To'lqin. 2019. "Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek shevalarida qo'llanishi". *Oltin bitiglar* 3: 107—127.

## Kirish

O'zbek xalq shevalari turkiy xalqlar shevalari orasida g'oyat boy va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning bir qanchasi o'z vaqtida fonetik, grammatik va leksik jihatdan tadqiq etilgan. Ayniqsa, o'tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab o'zbek dialekt va shevalarini aniq rejalar asosida o'rganishga kirishildi. 1954-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida Dialektologiya bo'limi tashkil etilgach, "o'zbek tilshunosligining haqiqiy ma'nodagi shevashuno'slik (dialektologiya) sohasi yuzaga keldi va ish boshladi. Bu so'haning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi bevosita G. O. Yunusov, Y. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, S. Ibrohimov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurahmonov, M. Mirzayev kabi olimlarning nomlari bilan bog'liq" [Hojiyev 1993, 42].

Bu o'rinda V. V. Reshetovning "Кураминские говоры Ташкентской области" (1952), S. Ibrohimovning ikki jilddan iborat "O'zbek tilining kasb-hunarleksikasi" (1956, 1961), F. Abdullayevning "Xorazm shevalari fonetikasi" (1967), "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi" (1973), Sh. Shoabdurahmonovning "O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari" (1962), A. Ishayevning "Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari" (1977) nomli asarlarini, shuningdek, B. Jo'rayevning "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" (1969), M. Mirzayevning "Buxoro grupp shevalari" (1969), A. Aliyevning "Namangan grupp shevalari" (1976). X. Doniyorovning "O'zbek tilining qipchoq shevalari" (1976), A. Shermatovning "Quyi Qashqadaryo shevalari" (1978), O. Madrahimovning "Xorazm shevalari leksikasi"ni (1979) o'rganishga bag'ishlangan ishlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

O'zbek dialekt va shevalarini o'rganish sohasida o'z vaqtida juda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu sohada nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi sifatida muvaffaqiyatli yoqlangan o'ttizdan ortiq ishlarning o'ziyoq fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, O'zbekiston FA Til va adabiyot institutining dialektologiya bo'limi xodimlari tomonidan yaratilgan ikki jildli "O'zbek dialektologiyasidan materiallar" (1957, 1961), "O'zbek shevalari leksikasi" (1966), "Toshkent oblasti o'zbek shevalari", "O'zbek xalq shevalari lug'ati" (1971) kabi asarlar ham o'zbek shevashunosligi qo'lga kiritgan ulkan yutuqlardan hisoblanadi.

Afsuski, o'zbek shevashunosligi sohasida erishilgan yutuqlar o'tmishda qoldi. Bu sohaning hozirgi rivoji mutlaqo qoniqarli ahvolda emas. Uni tezda o'nglash kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

### Asosiy qism

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida (2016-yil 13-may) koʻplab vazifalar sirasida oʻzbek shevashunosligi sohasidagi ishlarni har tomonlama kuchaytirish belgilangan. Umid qilamizki, butkul zamonaviy, har tomonlama toʻkis sharoitda faoliyat boshlagan universitetimiz soha mutaxassislarini tayyorlashda va oʻzbek shevashunosligi tadqiqotlarini ona tilimiz rivojiga xizmat qildirishda ilgorigidek natijalarga erishadi. Zero, bu boʻyliklar xalqimizning bebaho xazinasidir. Ularni oʻrganar ekanmiz, oʻzbek xalqi tarixini boyitamiz, adabiy tilimizni rivojlantiramiz, badiiy adabiyotimizning goʻzal va rang-barang boʻlishiga erishamiz. Chunki “tildagi xususiyat ichki taraqqiyot yoʻlining eng muhim qirralarini tashkil etadi. Shu maʼnoda oʻzbek xalq shevalarining leksik qatlami alohida ahamiyat kasb etadi. Shevalardagi leksik xususiyatlarga qarab ulardagi soʻzlar va atamalar hisobidan adabiy tilimizning leksik boyligini oshirish uchun foydalanish birinchi darajali vazifadir” [Rajabov 1996, 27].

Darhaqiqat, oʻzbek xalq shevalarini oʻrganish borasida oʻz vaqtida koʻpgina ishlar bajarilgan va materiallar toʻplangan boʻlsa-da, ularning baʼzilari yetarli darajada oʻrganilmagan, ayrimlari esa hali tadqiq etilmagan. Biz ushbu maqolamizda Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota tumanlari, shuningdek, Samarqand viloyatining gʻarbiy tumanlari: Qoʻshrabot, Narpay, Ishtixon shevalaridagi oʻzbek adabiy tilida uchramaydigan ayrim soʻz va atamalar toʻgʻrisida bahs yuritamiz. Ularning etimologiyasi, tarixi, eski turkiy yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi oʻzbek shevalari va oʻzbek adabiy tilidagi shakllari, qardosh tillarda mavjudligi masalalariga eʼtiborni qaratamiz.

Tadqiq etilayotgan shevaga xos soʻzlaridan biri oʻ **tørkūnləmaq/toʻrkunlamoq/toʻrkullamoq/turkunlamoq/turkullamoq.**

**Toʻrkunlamoq** soʻzi Samarqandning janubiy tumanlarida (Qoʻshrabot, Ishtixon, Narpay, Kattaqoʻrgʻon) va unga tutash Navoiy viloyati tumanlarida (Xatirchi) hozir ham katta avlod tomonidan qoʻllanadi. Qiz turmushga chiqqach, toʻydan soʻng ota-onasinikiga ilk chaqirilganda, yaʼni qizlik uyiga kelganda **qizni toʻrkunlatib kelishdi, qiz toʻrkunlab keldi** deyiladi (**toʻrkullab** talaffuzi ham bor — T.T.). Bu Toshkentdagi kabi “charlar” (asli *chorlar, chorlamoq* soʻzidan) marosimining oʻzidir. Oʻzbekistonning baʼzi joylarida “chaqiriq”, “qiz chaqirdi” deyiladi. Demak, **toʻrkunlamoq** — qizning ota-onasinikiga

qidirib, mehmon bo'lib kelishi.

**To'rkun** so'zidan **to'rkunlamoq** fe'li yasalgan. Bu so'z juda qadimiy bo'lib, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" (DLT) asarida ikki joyda uchraydi. Devonda unga shunday izoh berilgan:

**“түркүн** — qavm, qabila, ota-onaning uyi. Kiz түркүнига келди — qiz otasining uyiga keldi. She'rda shunday kelgan:

— *Калсә абәң тәркәнім, Жазілмағи тәркәнім,  
Әтилкәмәт түркүнім, Амди чәрик јәркәшүр*

Xoqonni yaboqu urushiga yordamga chaqirib, qiziqtirib aytadi: Xoqon kelsa, to'dam tuzaladi, *qabilam uylari* buzulmaydi. Hozir urush safi tekis bo'ldi, e, xoqon, mening oldimga yetib kel" [Mahmud Koshg'ariy 1960, 414].

Ulkan tilshunos olim Solih Mutalibov nashrida *қиз түркүңә кәлди* tarzida berilgan. Lekin arabcha yozuvdagi matn buning *қиз түркүнигә кәлди* ekanligini ko'rsatmoqda. DLTning qozoq tilida tayyorlangan 1997-yilgi Almati nashrida ham *qыз төркүнига келди* shaklida o'qilgan [Maxmұt Qashqari 1997, 501]. Aytish joizki, DLTning 2010-yilgi Moskva [Maxmud al-Kāshgarū 2010] hamda Almati nashrlarida so'zning birinchi bo'g'indagi unli old qator, yumshoq *ö* bilan *törkünim* shaklida qayd etilgan [Maxmұt Qashqari 1997, 501].

DLTning 2013-yilda chop etilgan ikkinchi nashrida birinчисidan farqli o'laroq **түркүн** — *qavm, qabila yig'ini joyi, ota-onaning uyi* tarzida izohlanganini ko'ramiz [Mahmud ibn Husayn Koshg'ariy 2013, 289].

Solih Mutalibov nashrining ikkinchi jildida ham bu so'z ishtirokidagi yana bir misol va izohga duch kelamiz: **түркүнләнди**: *ол бу әwnи түркүнләнди* — *u bu uyni o'z uyi qatorida hisobladi va unga tushdi* [Mahmud Koshg'ariy 1963, 323].

O'zbek tilining XVI asr boshlariga oid yozma manbalarida, xususan, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida bu so'z uchraydi. Tilshunos olim Z. Xolmonovanning qayd etishicha, "qipchoq shevalariga oid bo'lgan shunday so'zlar borki, ular faqat «Shayboniixon» dostoni leksikasida uchraydi. Masalan, **turkullat** — yangi tushgan kelinni ota-onasinikiga sarmo bilan yuborish; charlar" [Xolmonova 1998, 12].

**törkün** so'zi hozirgi uyg'ur tili shevalarida, qirg'iz tilida ham ayni ma'noda saqlangan. "Uyg'ur shevalari so'zligi" nomli kitobda bu so'z "*o'z makoni, o'z eli, o'z jamiyati*" deb izohlangan:

“**törkün** = öz makani, öz li, öz yemeti (yatliq qilingan qiz üçün öz ata-anisining öyi “törkün” bolidu [Uygur şiveleri... 2006, 96]. Anlashediki, uzatilgan qiz uchun ota-onaning uyi **toʻrkun** sanaladi.

K. Yudaxin tomonidan tuzilgan “Qirgʻizcha-ruscha lugʻat”da bu soʻz va undan yasalgan boshqa soʻzlarning maʼnolari misollar bilan ancha keng izohlangan: **törkyn** — xotinning ota-onasi va qarindoshlari. **törkynle** — (turmushga chiqqan xotin haqida) oʻz ota-onasining uyiga yoki ularning qarindoshlarinikiga mehmon sifatida tashrif buyurish (bunday tashriflar chogʻida odatda bir-birini sovgʻalar bilan siylashadi); **törkynmө** **törkylөp bargam, alar ushul ulaktuu echkini berdi** (tarjimasi: toʻrkunimga toʻrkunlab borsam, ular menga uloqli echkini berdi) [Yudaxin 1985, 260].

**Toʻrkun** soʻzi oʻzbek va qirgʻiz xalq maqollarida ham uchraydi: “*Toʻrkuni yaqinning toʻshagi yigʻilmas*”. Maqoldan anglashediki, toʻrkuni — ota-ona uyi yaqin boʻlgan xonadonning toʻshagi yigʻilmaydi, chunki bu yerga qarindosh-urugʻlar bot-bot kelib turadilar. “*Kızdın sırın törkynü bilet*” *Qizning (kelinning) sirini toʻrkuni biladi*.

Taniqli shoir Faxriyor (Faxriddin Nizom) bu sheva soʻzini bir sheʼrida “*yurtimga bahor keldi toʻrkunlab*” mazmunida yaxshi qoʻllagan.

Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi *toʻrkun* va undan yasagan *toʻrkunlamoq*, *turkullat*, *toʻrkunlanmoq* kabi feʼl va feʼl shakllarining qadim tarixiy taraqqiyot izlarini, zamonamizgacha yetib, hozirgi oʻzbek shevalari leksikasida yashab kelayotganini, ammo asta-sekin unutishga yuz tutayotganini koʻrsatadi.

**Tevana** leksemasi hozirda ham Xatirchi tumanida faol ishlatiladi. Tevana deb *koʻrpa qaviydigan katta ignani* aytadilar. Bu soʻz Pasdargʻom tumani shevasida *tebana* deb yuritiladi va yuqoridagi maʼnoda qoʻllanadi.

Qayd etish kerakki, ushbu leksema oʻzbek tilining uchala lahjasi — qarluq, qipchoq va oʻgʻiz lahjalariga kiruvchi shevalarda ham mavjud. Xususan, Buxoro viloyatining Qorakoʻl tumani (qarluq-oʻgʻiz) shevasida u **tevona/tavana** shaklida ishlatilib, “bigiz igna” maʼnosiga ega [Gʻaybullayev 2017, 121].

Turli sheva vakillari buni asosan “koʻrpa qaviydigan katta igna” ekanligini tasdiqlaydilar.

Lugʻatlarda bunga oid maʼlumotlar koʻp: Masalan: “**tөvana // tyvənə // tebənə** //toʻvana // tuvana // tebana (Beshkent, Qarshi, Qovchin) // **tegənə // tevənə** // tegana // tevana (Qashqadaryo) katta igna: **tegənə**ᄃzdᄃ berəykənsᄃz, yenəm kərpə qavymᄃsh (Yuqori Qashqadaryo)” [Oʻzbek xalq shevalari lugʻati 1971, 255].



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ham bu borada e‘tiborga molik: **TEGANA** 2 Charm va sh.k. qalin-qattiq narsalarni tikishda ishlatiladigan katta yo‘g‘on igna.

**TEVANA(K) q. tegana.** /Mahsido‘zning/ boshqorong‘i bo‘lgan xotini «Anor olib keling», deb unga sira tinchlik bermaydi... tantiqlik va noz bilan bir uning qo‘lidan **tevanaini** tortib oladi, bir ipini uzadi. M.Qodirov, O‘zbek xalq og‘zaki dramasi [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2007, 46].

Mahmud Koshg‘ariyning DLT asaridayoq bu leksema so‘z birikmasi shaklida qayd etilgan:

**тэмән жіңһә** — katta nina, igna — juvaldiz [Mahmud Koshg‘ariy 1960, 381]; **жіңһә** — nina. Katta nina — juvaldizni **тэмән жіңһә** deyiladi [Mahmud Koshg‘ariy 1963, 42].

DLTning indeks-lug‘atida bu haqda shunday ma‘lumot keltirilgan: “**тэмән жіңһә (жіңһә)** — juvoldiz — игла рогожная, стрекало [Mahmud Koshg‘ariy 1967, 260]. Ruscha tarjimadagi рогожная so‘zini “*chipta qop nina*” deb o‘zbekchalashtirish mumkin.

DLTning Qozog‘iston nashri I jildida **teben ine** shakli qayd etilgan [Maxmұt Qashqari 1997, 461]. Solih Mutalibov **тэмән жіңһә** izohida *katta nina, igna* yonida ularga sinonim sifatida forscha *juvaldiz* atamasini ham keltirgan. Bu so‘z hozirgi asosiy lug‘atimizda shunday izohlanadi:

**JUVOLDIZ [f.-xalta, qop tikadigan igna]** Qop tikish uchun ishlatiladigan yo‘g‘on, egik igna. *So‘ngra lattaga o‘ralgan ikkita juvoldizni yerdan olib, ikkalasini terakka sanchdi. M. Osim, Karvon yo‘llarida* [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2006, 110].

O‘zbekcha-ruscha lug‘atda **juvoldiz** “большая изогнутая игла для сшивания мешков” deb tarjima qilingan.

Ayniqsa, Xorazm shevalarida bu so‘z DLTda keltirilgan shakllarda uchrashini alohida ta‘kidlash lozim: “**тэмән** taman (Urganch, Xiva, Shovot, Gurlan) **juvoldiz** — “большая изогнутая игла для сшивания мешков” [O‘zbek xalq shevalari lug‘ati 1971, 250].

Ko‘rinadiki, qoplarni tikishga mo‘ljallangan uchi egik, bukilgan **katta nina** Xorazm shevalarida **tэмән** deyiladi. Xususan: **taman** — qopning og‘zini tikadigan iyna (Xonqa tumani, o‘g‘iz); **taban iyna** — qop va shunga o‘xshash qalin matolarni tikishda ishlatiladigan yirik iyna (Yangibozor tumani, qipchoq). Yangibozor shevasida **taban iyna** gapdagi o‘xshatishlarga ham ko‘chgan. Misol: **Azizaning gaplari taban iynaday** (*salbiy baho me‘yori*) — *Azizaning tili o‘tkir ma‘nosida.*

So'zlarning fonetik xususiyatlarini o'rganish, fonetik hodisalar, grammatik shakllar taraqqiyotini o'rganishda ahamiyatlidir.

Demak, o'zbek tili tarixi va hozirgi o'zbek shevalaridagi ayrim fonetik o'zgalikka ega **temän jıñnä / tēmən / taban/ tevana / tevona/ tavana/ tevanak/ tegena/, taban iyna /tövana / tıvənə / tebənə** leksemasi quyidagi ma'nolarga ega tikish qurolini bildiradi:

1) qoplarni tikishga mo'ljallangan uchi egik katta nina;

2) ko'rpa qavishda ishlatiladigan katta nina;

3) charm va shunga o'xshash qalin-qattiq narsalarni tikishda ishlatiladigan katta yo'g'on igna.

Bu so'z biroz fonetik o'zgargan shakllarda qozoq, qirg'iz, turkman shevalarida ham shu ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: **temen** — bul so'z tyshtyk dialektide *juvaldıız* degen so'zge tuura kelet (bu so'z tushtuk dialektida juvoldiz degan so'zga to'g'ri keladi — T.T. ) [Japarov, Sıdıkova 2013, 45]. Toshkent viloyatining Kumushkonida yashaydigan qirg'iz millatiga mansub aholi tilida hozirda *temen* o'rnida *juvoldiz* ishlatiladi.

Eski turkiy, eski o'zbek tilida va hozirgi shevalarimizda mavjud bo'lgan o'z qatlamga oid ushbu leksema o'rnida hozirgi o'zbek adabiy tiliga forschadan o'zlashgan **juvoldiz** termini qabul qilingan.

“Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'atit turk” va boshqa turkiy yozma yodgorliklarda uchraydigan **“mun”** so'zi ham jiddiy tadqiqotga muhtoj. Negaki, bu so'z o'zbek tilining ayrim dialektlarida hanuzgacha kam bo'lsa-da ishlatilib kelinmoqda. Turkiy tillarning bir qanchasida mavjud bo'lgan bu leksema o'z vaqtida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida bir muncha faol qo'llangan. Afsuski, minglab yillar tilimizda yangragan bu so'z ham unut bo'lib bormoqda.

**“Mun”** so'zi “Qutadg'u bilig”da quyidagicha uchraydi:

*Айур ул қадашым ириг сөзләмиш*

*Муны йоқ бу сөзләр көни сөзләмиш*

[Yusuf Xos Hojib 1971, 584].

“Qutadg'u bilig”ni nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov “mun” so'zini hozirgi o'zbek tilida “nuqson” deb bergan:

*Aytdi: u qarindoshing keskin so'zlabdi,*

*Bu so'zlar nuqsoni yo'q, to'g'ri so'zlabdi*

[Yusuf Xos Hojib 1971, 585].

O'zbek tili tarixiy sintaksisining yirik tadqiqotchisi

G'. Abdurahmonov ishlarida ham turkiy yodgorliklar tilida qo'llangan shu so'z **kamchilik** ma'nosida ko'rsatilgan:

**Munum** bu *манъи янғлуқ а̀рсал тә̀й* — **Kamchiligim** shu — odamlar meni beqaror deyishadi [Abdurahmonov 1974, 21].

*Bu Ay Toldu aydu: maᅇa yas qilur, Munum yoq va lekin kishilar ayur* — *Bu Oy Toldi aytdi: menga og'ir, kamchiligim yo'q va lekin kishilar (kamchiligim) haqida gapirishadi* [Abdurahmonov 1974, 59].

O'zbek xalq dostonlari, o'lanlarida **min** so'zi 'kamchilik', 'nuqson' ma'nolarida bir qadar faol qo'llangan bo'lib, u **mun** so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir.

"Alpomish" dostonida bunga doir shunday misol uchraydi:

*Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti,  
Asil tulpor ekan o'zbekning oti.  
O'zi shunday kelgan ekan chovkar ko'k,  
Quyrug'idan berisida kiri yo'q,  
Qanday bo'lsa minganlarga ko'ngil to'q,  
Men bilaman ildamlikda **mini yo'q***

[Alpomish 2010, 117].

Alomishning Boychiborini tekshirib, baholagan qalmoqning Ko'sa sinchisi "Men bilaman ildamlikda **mini yo'q**" — **kamchiligi, nuqsoni yo'q** deya ta'riflamoqda. "Mini yo'q" birikmasi 2007-yili nashr etilgan "Alpomish dostonining izohli lug'ati"da "aybi, kamchiligi yo'q" deb to'g'ri izohlangan [Mirzayev 2007, 60].

O'zbek xalq o'lanlarida ham bu holni kuzatishimiz mumkin:

*Chiqib tursang, yaxshi ekan esgan yilga,  
Po'ta belbog' yarashadi xipcha belga.  
Tol chiviqday bo'yingda bir **mining yo'q**,  
Kelin bo'lib borsang-chi bizning elga*

[O'zbek xalq ijodi 1972, 174].

Yana:

*Toqqa chiqqan ko'radi tog' kiyigin,  
Chekmasin hech bir kishi yor kuyigin.  
Qamishday dol bo'yingda bir **mining yo'q**,  
Otang moli kamaymas bir o'payin.*

Yana:

*Chilim qildim yilqining tezagidan,  
Sumba qildim irg'ayning o'zagidan.*

*Bo'yingdan tol chiviqday bir **mining yo'q,***

*Sochingning chekkangdagi gajagingdan*

[O'zbek xalq ijodi 1972, 166].

“Oq olma, qizil olma” kitobini nashrga tayyorlovchisi o'lanlar qismidagi havolada **mining** so'zini **o'xshashing** deb noto'g'ri izohlagan. Bu o'rinda **min** so'zi **kamchilik, nuqson** ma'nolariga ega.

**Mun** so'zi Samarqand regionini, Xatirchi, G'allaorol, Koson tumanlari aholisi (katta avlod) so'zlashuv tilida uchraydi, faqat talaffuzda **u** tovushi qisqa **i** tarzida aytiladi: **min**. Bu so'z ham shevalarda *kamchilik, nuqson* kabi ma'nolarga ega.

Masalan, kishi biror yangi kiyim kiygan bo'lsa, boshqalarga ko'rsatib – **Qanday?** deb so'rasa, — **Mini yo'q,** deb javob berishadi. Shuningdek, **Min taqmoq, Min topmoq** (birovning kamchiligini, nuqsonini topmoq) birikmalari ham uchraydi. Masalan:

*Hadeb **min taqib** yotibdi* (Xatirchi).

*Hamma narsadan **min topivurma*** (G'allaorol).

Yoshlar oyna qarshisida uzoq turib qolganda, kattalarning “Muncha **miningga** qarading, bor ishingni qil” deb koyiganini qayd etganmiz (Koson).

**Min** so'zi asosida yangi so'z yasalishi hodisasi ham kuzatiladi: **minchi** — ayb topuvchi (Samarqand regionini).

DLTda **mun** — **kasallik, kamchilik** deb izohlangan. Ammo negadir bunga mos tushmagan misol keltirilgan: **mun kishi — toza yurak odam**. Shu o'rinda Solih Mutalibovning qaydi bor: “Bu so'zning o'zi kasallik, kamchilik deb izohlangani holda, misolda shu so'z toza yurak deb tarjima qilingan. Bunday qarama-qarshilikka qaramay, biz o'zicha berdik” [Mahmud Koshg'ariy 1963, 154].

Mahmud Koshg'ariy **mun** so'zi lug'at maqolasi uchun yana misol keltiradi: “Maqolda shunday kelgan: **јаліңуқ оғлі мунсуз болмас** (yalinguq o'g'li munsuz bo'lmas)” — odam bolasi kasallik va kamchiliksiz bo'lmaydi.

-siz sifat yasovchisi bilan hosil qilingan **munsuz** tarkibidagi o'zak so'z endi o'z ma'nosida anglashilmoqda.

Shuni qayd etish kerakki, DLTning 1963- va 2016-, “Qutadg'u bilig”ning 1971-yildagi o'zbekcha nashrida bu so'z **mun** shaklida orqa qator **u** unlisi bilan yozilgan. “Древнетюркский словарь” (DTS) da esa bu so'z old qator yumshoq **ü** unlisi bilan berilgan. E. V. Sevortyaning “Этимологический словарь тюркских

языков” (ESTY) kitobida ham bu so'z ko'pchilik ishlarda **myn** shaklida yozilayotgani va bunday o'qilishga asos borligi qayd etilgan [Sevortyan 2003, 94].

DTSda MÜN III порок, недостаток, изъян (nuqson, kamchilik, ziyon – T.T.) deb izohlangan va “Qutadg'u bilig”dan bunga misol keltirilgan: **münüm joq** — у меня нет пороков; **münüm erdämim barça ajdım atı** — я рассказал, что представляют собой все мои надостатки и достоинства.

DTSda **mün** so'zi nutqda juft so'zlar bilan qo'llanishiga misollar mavjud: **mün`ajb** грехи, прегрешения и пороки: *odyurmış dünyanıñ münin`ajıbların ayur (QBK) (Udg'urmish dunyoning kamchilik va ayblarini so'zlab beradi — T.T.)*.

**mün beča** порок и порча: *mün beča meñin sinimda söjökümdä... bulmadı ersär* если порок и порча не будет обнаружены... в моем теле и костях (Man);

**mün qaday** парн. грехи и прегрешения; греховность; пороки и недостатки: *bu mutay ertöz iş işläsär meñ uluy mün qaday qılyaj* если я исполню эти безнравственные дела, я совершу великий грех (Uig) (agar men bu axloqsiz ishlarni qilsam, men ulkan gunoh qilgan bo'laman — T.T.). [Drevnetyurkskiy... 1969, 352–353].

ESTYda **mun** so'zi va uning izohiga anchagina o'rin ajratilgan. Bu so'z turkman tilida **mıyn**, qirg'izchada **mı:n/mıyn**, qozoq tilida **mın** va qo'miq tilida **min**, oltoy dialektida **мың/ муң** shakllariga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Ushbu kitobda **mun** so'zining ko'rsatilgan ma'nolari asosan narsa-buyumlar (predmetlar)dagi biron-bir kamchilik, nuqson, ayb yoki illat borligini ko'rsatish bilan bog'liq. Bu so'z insonlarga nisbatan qo'llanganda, xuddi oltoy tilidagi kabi kishining tashqi nuqsonini, jismoniy kamchiligini (mayib, majruh, xunuk) ifoda etadi.

ESTYda turkiy tillarda **mun** so'zining quyidagi ma'nolari ko'rsatilgan:

1) nuqson, illat, ayb, kamchilik, qusur (изъян, дефект) — qo'miq, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, no'g'ay, oltoy dialektlarida;

2) xunuklik, badbasharalik, beo'xshovlik; xunuk, badbashara, mayib-majruh — oltoy dialektlarida;

3) yomonlash, qoralash, koyish g'iybat, haqorat, ta'na, gina-kudurat — qirg'iz, qoraqalpoq, no'g'ay dialektlarida;

4) zarar, shikast, ziyon — qirg'iz, qozoq dialektlarida;

5) jur'atsizlik, qo'rqqoqlik; tortinchoqlik; hadiksirash — turkmanchada;

6) notekislik, gʻadir-budurlik, past-balandlik — qirgʻiz, qozoq dialektlarida;

7) yaroqsizlik, yaramaslik—oltoychada.

ESTYda **mun/min** soʻzining oʻzbek dialektlarida mavjudligi koʻrsatilmagan. Lugʻat tuzuvchisi bu haqda kerakli maʼlumotga ega boʻlmagan koʻrinadi. Eʼtibor berilsa, bu soʻz qipchoq guruhiga kiruvchi hozirgi turkiy tillar dialektlariga xosligi anglashiladi.

Kitobda ayrim turkiyshunos olimlarning (M. Resenen) oʻz ishlarida **mun** va turkcha **bən** (tentak) soʻzlarini **mung** (qaygʻu) soʻzi bilan qiyoslaganliklari, tadqiqotchi A.T.Kaydarov **min** soʻzi qozoq tilida **kamchilik**, **nuqson** maʼnosini bildirishini koʻrsatgani qayd etilgan [Sevortyan 2003, 95].

Hozirda **toʻramoq** soʻzining qoʻllanish doirasi oʻzbek tilida gʻoyat qisqarib ketgan. Shevalar tilida bu bir soʻkish iboralari tarkibida uchraydi, xolos: *ʻoʻynashdan toʻraganʻ*.

DLTda bu soʻzga misol va izohlar uchraydi: **ẗÿr̈ÿtti** — paydo qildi, yaratdi. **T̈ñ̈ri jal̈ñ̈uq ẗÿr̈ÿtti** — xudo odamni yaratdi. Boshqa maxluqlar haqida ham bu soʻz qoʻllanadi (ẗÿr̈ÿẗÿr, ẗÿr̈ÿtm̈äk).

Bundan soʻng sheʼriy parchada ham misol keltirilgan: **T̈ñ̈ri ajun ẗÿr̈ÿtti** — Xudo olamni yaratdi [Mahmud Koshgʻariy 1963, 350].

DTSda ham bu soʻz qayd etilgan: TÖRÄT - создавать, творить: qamuγ señ törätñij — все сотворил Ты. [Drevnetyurkskiy... 1969, 580].

Soʻzning singormonizm qoidasiga muvofiq shakli ham berilgan: TÖRÜT — побуд. (понудительный залог глагола — ТТ) от törüt — создават, творить: ẗñ̈ri jal̈ñ̈uq törüẗti — Бог сотворил человека [Drevnetyurkskiy... 1969, 582].

DTSda yana shu joyda feʼlning oʻzlik nisbati shakllari TÖRÜTIL, TÖRÜTÜL uchun izoh va misollar ham berilgan.

Taʼkidlash joizki, DLTning S. Mutalibov tayyorlagan nashrida **törü-** asosining birinchi boʻgʻinidagi unli old qator **ÿ (ü)** bilan **ẗÿr̈ÿtti** shaklida berilgan, ammo turkiy soʻzlarga oid koʻplab lugʻatlarda, ilmiy tadqiqotlarda **törü-** soʻzidagi birinchi unli old qator **ö** bilan yozilgan va buni toʻgʻri deb hisoblaymiz.

**Toʻramoq** va undan hosil qilingan feʼlning boshqa shakllari juda qadimiy boʻlib Oʻrxun-Enasoy yozma yodgorliklarida, undan keyingi turkiy bitiklarda qoʻllangani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Yirik turkiyshunos olim E. Nadjipning “Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века” nomli fundamental turkologik tadqiqotida bunga oid koʻp maʼlumotlarni uchratamiz.

Masalan, turkiy runik yodgorliklarida **törü** — ‘tugʻilmoq,

yaralmoq, paydo bo'lmoq, "Qutadg'u bilig"da **törüt** — yaratmoq, **törütül** — yaratilmoq, "Oltin yorug'"da **törü** — tug'moq, DLTDa **törüt** — 'yaratmoq', **törümäk** — yaralmoq' (**yalınuq törüdi** 'inson yaratildi') ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, "Hibbat ul-haqoyiq"da **törüt** — 'paydo qilmoq, yaratmoq' (Bilig birlä bilinür törütgän izi), "Muhabbatnoma"da 'o'stirmoq, yetishtirmoq' (gül törätti), Lutfiy asarlarida **törüdi** 'u tug'ildi', 'u o'sdi' (*Anıñ tug'qan-törägän yeri Kāshmir U Kashmirda tug'ildi va o'sdi*), manbalarda Törütgän – Yaratgan, Xudo ma'nosida qo'llangani bitilgan [Nadjip 2017, 208-209].

E. Nadjip qadimdan ko'plab turkiy yozma manbalarda *odat, qonun, qoida* ma'nolarida ishlatilgan **törü (törä)** mana shu törümäk fe'lining asosi bo'lganligini taxmin qiladi. Shuningdek, maqolamiz avvalida qayd etilgan **to'rkun, to'rkunlamoq** so'zlari ham bunga aloqadorligi to'g'risida ilmiy faraz uchraydi. Olim bugungi turkiy tillarda, ularning lahja va shevalarida **törü** asosli so'zlar bo'yicha kuzatishlarini taqdim qilgan.

Masalan, hozirgi xakas tilida *töri-*, dialektlarida esa *töre-* 'tug'ilmoq': *naa aytöreen* 'yangi oy tug'ildi'. Orttirma nisbat shaklidagi *törit-* 'tug'dirmoq'. *Törgin* 'kelinning o'z sepidan ulushini olish uchun kelishi' umumiy asosga borib taqaladi [Nadjip 2017, 209]. Buni o'zbek va uyg'ur tillaridagi *törkün*, qirg'izcha *törkyn*, qozoqcha *törkin* bilan qiyoslash mumkin.

Oltoy tilida *törö-* 'tug'moq', *törögön-* 'qarindosh', *töröl-* 'urug'-aymoq', 'qarindoshlik', 'yurt'. Orttirma nisbatda: *töröt* [Nadjip 2017, 209]. Hozirgi oltoy tilida uchraydigan *töröl jer* — 'tug'ilgan yer' (родная земля) birikmasi ham fikrimizga dalil bo'la oladi [Altay kep... 2010, 261].

E. Nadjip tuva tilida *törel* 'qarindosh', 'urug', *kiji törelgeten* 'insoniyat', *töry-* 'tug'moq' va 'tug'ilmoq', *töreen* 'tug'ishgan'; xalxamo'g'ul tilda *törel* 'qarindoshlik', 'urug'-aymoqlar', 'urug', 'hayot', bu tilda *töröx* 'tug'moq' va 'tug'ilmoq', ko'chma ma'noda esa 'paydo bo'lmoq', 'sodir bo'lmoq', 'tug'ilmoq'; hozirgi turk tilida *türemek* 'tug'ilmoq', 'paydo bo'lmoq', *türetmek* bo'lsa 'tug'dirmoq', 'yaratmoq' ma'nolariga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Qirg'iz tilidagi *tөрө-* 'tug'moq (ayol to'g'risida)' izohi uchun maqol va o'xshatishlardan misollar keltirgan: *er төрөгөн el өlbөyt* 'mard er tuqqan el o'lmaydi'; *katını erkek төрөгөндөй* 'xotini xuddi o'g'il tuqqanday, o'zida yo'q xursand'; *tөрөл* — 'tug'ilmoq', *tөрөлүш* — 'tug'ilish' [Nadjip 2017, 209].

Tadqiqotchi G.Qobuljonova "Qutadg'u bilig"dagi sinonim

soʻzlarga bagʻishlangan maqolasida ‘**torutti**’ va ‘**yaratti**’ soʻzlari ishtirokidagi quyidagi baytlarni keltirib, toʻgʻri tahlil qilgan:

*“Yoʻq erdim **torutti** igidi meni,  
Kichig oʻgʻlan erdim bedutti meni.  
(Yoʻq edim, meni **yaratti**, oʻstirdi,  
Kichik oʻgʻlon edim, meni ulgʻaytirdi — T.T.).*

*Yashil koʻk **yaratti** uza yulduzi  
Qara tun **torutti** yaruq kunduzi.  
(Yashil koʻk uzra yulduz yaratdi,  
Qora tun, yorugʻ kun toʻratdi — T.T.).*

Yuqoridagi misralarda qoʻllangan *yaratti*, *torutti* feʼllari “yaratmoq”, “bunyod etmoq” maʼnolarini ifodalovchi sinonimlardir. Ulardan birinchisi hozir ham ushbu maʼnoda qoʻllanadi, “torutmoq” feʼli esa oʻzbek tilida isteʼmoldan chiqqan. Shu bilan birga, turkiy tillarning qipchoq guruhiga kiruvchi qirgʻiz va qozoq tillarida “toʻramoq” leksemasi ayrim fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda “tugʻmoq” maʼnosida qoʻllanadi” [Qobuljonova 2016].

Oʻzbek tilini bor goʻzalligi, turfa shakl-shamoyillari, inja maʼno tovlanishlari bilan tom maʼnoda asrab va yashnatib kelgan yozuvchi va shoirlarimiz talay. Ular oʻz bitiklarida qadim soʻzlarimiz sadosini saqlashga tutindilar. Oʻzbekning zoʻr bir shoiri, millat kuychisi, millatni oʻzligini angalashga, erkka, jasoratga, kurashga chorlab oʻtgan marhum Shavkat Rahmon bir sheʼrida *ajdodlarim qushdan toʻralgan* deb yozgan edi:

*Nega men uchaman,  
qayga uchaman,  
nega takrorlanar gʻaroyib tushlar?  
Demak, qachonlardir qanotim boʻlgan,  
demak, ajdodlarim **toʻralgan** qushdan...*

Qachonlardir ozod qush boʻlgan, oʻtlar bilan oʻynashib, balki kurashib qanotlarini kuydirgan va yerga qulagan... keyin esa zaminga moslashib, qullikka, tuzumga rozi boʻlgan, oqibatda hur bir qushligini unutmagan millatdoshlarining xotiralarini uygʻotmoqqa chorlaydi shoir:

*...Qayga uchish kerak, bilmayman, ammo  
bilarsiz bemalol uxlayotganlar —*



*qushdan to'ralgansiz desam, ustimdan  
silkinib-silkinib kulayotganlar?!*

[Shavkat Rahmon 1986, 178].

Shoir qo'llagan **to'ralgan, to'ralgansiz** so'zlari **yaralgan, yaralgansiz** so'zlarining ma'nodoshi ekani kundek ravshan. Faqat bu kabi so'zlar o'zbek adiblari tomonidan ortiq ishlatilmayotgani, adabiy tilimizga o'tmagani, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga (2006–2007), hatto "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ga (1971) kirmay qolgani tufayli, afsuski, ularni aksariyat keyingi avlod tushunmaydi, bilmaydi. To'rabek, To'raqul degan ismlarimizning tubi aslida **törü (törä)** ekanligi ko'pincha o'ylab ham ko'rilmaydi.

Bugungi kunda o'zbek shevalarida uchraydigan **SIN** so'zi ham qadim tarixga ega. Bu so'z burungi turkiy yozma manbalarda qayd etilgan bo'lib, hozirgidek *'qad', 'qomat'* degan ma'nolarni anglatgan. Shuningdek, uning bugunga kelib yo'qolib *go'r* ma'nosi ham mavjud bo'lgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida u quyidagicha uchraydi:

*Бу бод сын йурығлы киши эрса барча  
Фаришта-му эрди улар не биләйин*

[Yusuf Xos Hojib 1971, 496].

*Ushbu bo'y ko'tarib yurganlar barchasi odam bo'lsa,  
Ular (ya'ni oldingi o'tganlar) farishta ekanlarmi, qayerdan  
bilayin*

[Yusuf Xos Hojib 1971, 497].

Bu adabiy yodgorlikni o'zbekchalashtirgan Q. Karimov nashrida asliyatdagi **сын (sin)** so'zi hozirgi tilga o'girilmagan, faqat **bo'y (böd)** qayd etilgan.

Turkiy yozma manbalarda **böd sin, bo'zlug' sinlig'** kabi juft so'z shaklida qo'llangan holatlar uchrashi DTSda bir necha o'rinda ko'rsatilgan [Drevnetyurkskiy... 1969, 107, 503].

DLTda: سن **sın** — **qomat, gavda**. Bu so'zdan olib **bo'zlug' sinlig' kishi** — **bo'yi uzun odam** deyiladi. Go'rni سن **sın** deyish ham go'rning bo'yi, uzunligi — odam bo'yiga tengligidandir.

سن **sın** — **go'r** [Mahmud Koshg'ariy 1963, 152].

Bizningcha, bu o'rinda arab tilidan to'kis tarjima qilinmagan: **bo'zlug' sinlig' kishi – bo'yi uzun odam. Bo'zlig' – bo'yi uzunga** to'g'ri keladi. Bu hozirda ham tilimizda ishlatiladi. Masalan: *bo'ylikkina ekan. Sinlig' – g'avdali, qomatdor* tarjima qilinmay qolgan.

Qozoq tilida nashrga tayyorlangan DLTda Asqar Yegeubay qavs ichida bo'lsa-da bunga tegishli izoh berib ketgan:

سنن СЫН — бой, тұрық. (Сын-сымбат — А.Е.).

“Возлуғ сынлығ кіші: Бодзлуғ сынлығ кіші – Ұзын бойлы кісі; Бой-тұрқы ұзын кісі” (Бойшаң сындырлы кісі – А.Е.). Көрді сын” дейді. Өйткені, көрдің ұзындығы адамның бойымен бірдей шығады.

نن سЫН: көр [Махмұт Қашқари 1997, 195].

DTSda SİN — I tana, qad-qomat, gavda; II go'r deb tarjima qilingan va DLTga havola ko'rsatilgan [Drevnetyurkskiy... 1969, 503].

Sevortyaning ESTYda SIN so'zi 1) barcha manbalarda 'go'r'; 2) turk va yoqut tillarida 'o'ra, chuqur'; 3) yoqut tilida 'in' ma'nolarga ega ekanligi ko'rsatilgan. Olim DLTda SİN I **qomat, gavda** deb qayd etilganidan bexabar ko'rinadi, chunki bu manbaga havola berilmagan. Sevortyan yozadi: “Ehtimol, **sin** — ‘qabr’, **sin** — ‘qabr toshi’ bilan genetik jihatdan bog'liq bo'lsa kerak. Bu ma'no **sintash** ‘qabr toshi’/‘go'r ustiga qo'yiladigan tosh’ tarkibida shakllangan... Bir qator tillarda bu **sin**ni (qabr toshini) **sin** (bo'y, qomat, gavda) bilan aralastirib yuborish uchraydi” [Sevortyan 2003, 280]. Sevortyan M. Resenen va J. Kloson **сын** ‘qabr’ni **сын** ‘gavda, bo'y, tashqi ko'rinish’dan ajratganliklarini, ayni paytda Kloson **сын** ‘haykal’ni **сын** ‘gavda’ bilan genetik jihatdan bog'liq deb hisoblashini, K. Manges esa bu leksemalarni bir-biridan ajratganligini e'tiborga loyiq deb topadi. Boshqa lug'atlarda ham masalaga doir yaxshi ma'lumotlar qayd qilingan [Teneshev 2001, 266].

SIN hozirgi o'zbek shevalarida quyidagi ma'nolarda va vazifalarda ishlatiladi. Masalan:

1. 'Gavda', 'qomat' ma'nosida: *Siningni ko'rsa, ot hurkadi* (Xatirchi) yoki *Siningga qarasa, sigir o'ladi* (Uzun).

2. 'Parvo qilmadi', tarzini o'zgartirmadi', 'pinagini buzmasi' kabi ko'chma ma'nolarda: *Xadicha xonaga kiruvdi, yangasi sinini buzmasi* (Koson).

3. Yangi so'z yasalishiga asos bo'ladi yoki unda ishtirok etadi: *sinchi* < sin+chi; *sindor* < sin+dor; *sinli* < sin+li; *sumbat* < sinbat < sin+bat.

Qashqadaryo vohasida (Chiroqchi) Sindor ismli kishilar ko'p uchraydi. Gavdali, jussali tug'ilgan chaqaloqlarga polvon bo'lsin deb shu ismni qo'yishadi.

Toshkent shevasida: **sumbat** sumbat — gavda “туловище”: **sumbati kelishkan** [O'zbek xalq... 1971, 242].

Urganch, Xiva Xonqa shevalarida **si:n**: ~ salmaq || etmæk —

sinchiklab qaramoq [Abdullayev 1961, 81].

O'zbek bolalar folklorida ham bu so'z uchraydi:

**Sinli, sinli, sinbatlim,**

*Na'ra she'rday haybatlim,*

*Qushday shunqor kelbatlim,*

*Ulug' shohday savlatlim.*

*Alla, bolam, alla-yay,*

*Jonim bolam, alla-yay* [Boychechak... 1984, 5].

Bu o'rinda **sumbat**, aslida, **sinbat** ekanligi yaqqol ayon bo'lmoqda.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida, xususan, Usmon Azimning "Bir daraxtning so'nggi qo'shig'i" she'rida '**sumbat**' so'ziga murojaat qilingani e'tiborga loyiq:

*Men shunday yaraldim:*

***Sumbatim egri,***

*Gullarim qalblarga solmas hayajon* [Azimov 1995, 8].

O'zbek sheva va xalq dostonlarida bu so'zning juft shaklda uchrashi lug'atlarda qayd qilinib, to'g'ri izohlangan: **Sin-simbat, sini-sumbat shv.** Tashqi qiyofa, bo'y-bast, qad-qomat. Bo'ri polvon Abray polvonning sin-simbatiga sinchiklab tikildi" (T. Murod, Qo'shiq). Xo'b yigit ekan. Balli otangga, sini-sumbatingga. "Ravshan" [O'zbek tilining... 3-jild, 2007, 517].

"Alpomish" dostonida otlarni tekshiradigan, baholaydigan kishi '**sinchi**' deb atalgan. Boychiborni maqtangani uchun qalmoq zo'rlari uning ko'zini o'yib olishadi.

"O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga shunday izoh berilgan:

**SINCHI folk.** Otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam. Otning tilini Yo'ldosh novchaday biladigan **sinchi** yo'qligiga iqrор bo'lsa-da, biror marta nomini og'ziga olmagan edi. S. Anorboyev, Oqsoy. Sinchi, otning ta'rifini qilib, «chini shul» deb, bir so'z aytib turgan ekan. "Alpomish" [O'zbek tilining... 3-jild, 2007, 517].

Qozoq tilida ham '**сынshi**' so'zi yuqoridagi ma'noni anglatadi. Shu bilan birga '**сынshi**' deb hozirda adabiy tanqidchini aytadilar. DLTni qozoq tilida nashrga tayyorlagan Asqar Yegeubay shunday tanishtirgan.

O'zbekchadagi 'sinchkov', 'sinchiklamoq', 'sinchiklab qaradi' kabi so'z va so'z birikmalaridagi 'sin' o'zagi ham genetik jihatdan 'sin' (gavda, qomat)ga borib taqaladi.

### **Xulosa**

Eski turkiy til davrida iste'molda bo'lgan, eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan so'zlarning muayyan qismi hozirgi shevalarimizda yashab kelmoqda. Biz tahlilga tortgan so'zlarning "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", Muhammad Solih va boshqa ijodkorlar asarlarida, folklor materiallarida, shuningdek, qardosh tillarda uchrashi ularning o'tmish davr turkiylar tilida faol qo'llanganini ko'rsatadi.

**To'rkun, tevana, min, sin, to'ramoq** kabi qadimiy o'z so'zlarimiz vaqt kechgan sayin, buni tashuvchi til egalari, yoshi ulug' kishilarimiz o'tgan sari shevalarimizdan ham asta-sekin yo'qolishga yuz tutmoqda. Ularni asrab qolish, tilimizning faol bo'lmasa-da, bir lug'atiga aylanishini ta'minlashimiz zarur. Bu ish birinchi navbatda filolog mutaxassislar, yozuvchi-shoirilar, jurnalistlarimizning ishi. O'zbek shevalariga doir jiddiy lug'atlar nashr qilinganiga qariyb yarim asr bo'lmoqda. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar noyob bo'lib qoldi. O'zbek tilshunosligining shevashunoslik (dialektologiya) sohasini qayta rivojlantirish, tilimizdagi sheva so'zlarni to'plash, tadqiq etish, o'zbek xalq shevalari lug'atlarini yangidan nashr etish, xalq shevalari leksikasi hisobiga adabiy tilimizni boyitib borish oldimizdagi g'oyat muhim vazifalardan bo'lmog'i zarur.

*Kamchilik, nuqson, qusur, zarar* yonida *min (mun)* ishlatilsa, qizning ota uyi, mahallasi ma'nosida uning o'rnini bosolmaydigan so'zlar bo'lmagan mahalda *to'rkunni* qo'llasak, burunga taqiladigan *sirg'a* — *lotiba, jo'b* (mos, muvofiq), *sin* (gavda), *saldam* (inersiya), *to'ramoq* (yaralmoq), *mondimoq* (yolchimoq, rivoj topmoq) singari so'zlarimizni o'rinli ishlatsak, tilimiz jozibasi, chiroyi, boyligi yanada oshar edi.

O'zbek tilining alohida fan sifatida o'rganilayotgan o'zbek adabiy tili, o'zbek tili tarixi va o'zbek shevashunosligi aslida o'zaro bog'langan holda o'qitilishi, tadqiq etilishi lozim, chunki ular bir-birini boyitish, to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek shevalari materiallari o'zbek tili tarixi uchun ham, o'zbek adabiy tili uchun ham til tarixining taraqqiyot yo'llarini belgilash, aniqlashda muhim o'rin tutadi.

**Adabiyotlar**

- Абдуллаев, Ф. 1961. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти.
- Абдурахмонов, Ғ. 1974. *Тарихий синтаксис*. Тошкент: Фан.
- Ал-Кāшгарӣ, Махмуд. 2010. *Дивāн лугāt ат-турк. В 3-х томах. Том 1*. Москва: Восточная литература.
- Alpomish* 2010. *O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zarifov*. Toshkent: Sharq.
- Алтай кеп ле укаа сōстōр (Алтайский пословици и поговорки)*. 2010. Составитель Ойноткинова Надежда Романовна. Новосибирск.
- Азимов, У. 1995. *Бир дарахтнинг сўнги қўшиғи. Сайланма. Шеърлар*. Тошкент: Шарқ.
- Бойчечак (Болалар фольклори). Меҳнат қўшиқлари*. 1984. Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Древнетюркский словарь*. 1969. Ленинград: Наука.
- Ҳожиб, Юсуф Хос. 1971. *Қутадғу билиг*. Нашрга тайёрловчи: Қ.Каримов. Тошкент: Фан.
- Ҳожиев, А. 1993. *“Ўзбек тилшунослигининг ривожланиши ва унинг долзарб муаммолари”*. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 8: 37 - 45.
- Жапаров, Ш., Сыдыкова Т. 2013. *Кыргыз тилинин диалектологиясы*. Бишкек: Окуу китеби.
- Кошғарий, Маҳмуд ибн Ҳусайн. 2013. *Туркий сўзлар девони / Девону луғотит турк*. 3 жилдик. 1-жилд. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Туркий сўзлар девони / Девону луғотит турк*. Уч томлик. I том. Тошкент: Ўз ФА нашриёти.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Туркий сўзлар девони / Девону луғотит турк*. Уч томлик. II том. Тошкент: Ўз ФА нашриёти.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Туркий сўзлар девони / Девону луғотит турк*. Уч томлик. III том. Тошкент: Ўз ФА нашриёти.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1967. *Девону луғотит турк. Индекс-луғат*. Тошкент: ЎзФА нашриёти.
- Мирзаев, Тўра, Жаббор, Эшонкул, Селами, Фидокор. 2007. *Алпомиш дostonининг изоҳли луғати*. Тошкент: Elmus-Press-media.
- Наджип, Э. Н. 2017. *Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века. На материале “Хосрау и Ширин” Кутба, Книга II*. Астана: «Ғылым» баспасы.
- Оқ олма, қизил олма*. 1972. Тўпловчи Музаёна Алавия. Тошкент: ЎзФА А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти.
- Қашқари, Махмуд. 1997. *Түрік сөздігі*. 1 Т. Алматы қаласы: Хан.
- Қобулжонова, Г. 2016. *“Қутадғу билиг” асарида қўлланган лексик синонимлар*. АДУ Илмий хабарномаси 1: 56 - 63.
- Ражабов, Н. 1996. *Ўзбек шевашунослиги*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Севортян, Э. В. 2003. *Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы «Л», «М», «Н», «П», «С»*. Москва: Восточная литература РАН.
- Тенешев, Э., Благова, Г. и др. 2001. *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика*. Москва: Наука.
- Уйгур шивелери сۆзлйғй*. 2006. Ҳазирлаян Өзлем Өзтунер. Ҷанаккале.

- Холмонова, З. 1998. *“Шайбонийхон” достони лексикаси*. Филол. фан. номз...  
дисс. авто-ти. Тошкент.
- Юдахин, К. 1985. Кыргызча-орусча сөздүк. 2-китоб. Москва: Наука.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд*. 2006. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд*. 2007. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд*. 2007. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.
- Ўзбек халқ шевалари луғати*. 1971. Шоабдурахмонов Ш. муҳаррирлигида. Тошкент: Фан.
- Шавкат, Раҳмон. 1986. *Уйғоқ тоғлар: шеърлар*. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Ғайбуллаев, С. 2017. *Қорақўл шевасининг таровати*. Тошкент: Ниҳол.

**T. Tog'ayev**

*(Tashkent, Uzbekistan)*

togaev@navoiy-uni.uz

## **The Usage Of The Words Used In Turkic Manuscripts In The Uzbek Dialects**

### **Abstract**

In this article the research works through the learning the Uzbek dialect and its contents, the successful results are noted, and the published research works and the dictionaries about the dialect lexics are defined.

Some of the Uzbek dialects are not learned enough, some of them does not researched till today. In this research work some words and terms where used in Khatirchi, Nurota in Navoi regions, as well as, the northern parts of the Samarkand region: Kushrabot, Narpay, Ishtihan are discussed which belongs to Uzbek literal language.

The words of 'torkunlamoq', 'tevana' are commented to the meaning, and etymology. These words' forms are analyzed through the 'Devonu lugotit turk' written by M.Koshgariy, 'Shaybaniyname' written by M.Salih and today's standart language and dialects. It is also attended to find the same form other relative languages.

**Keywords:** *the history of language, the Turkic memorials, literary*

language, dialects, dialectology, torkun, tevana, mun/min, toramoq, sin, etymology, dictionary.

**About the author:** *Tulkin Togaev* – Doctor of Philosophy in Philology, Tashkent State university of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

**Recommended citation:** Tog'ayev, To'lqin. 2019. "Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek shevalarida qo'llanishi". *Oltin bitiglar* 3: 107—127.

### References

- Abdullaev, F. 1961. *O'zbek tilining Xorazm shevalari*. Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Abdurahmonov, G'. 1974. *Tarixiy sintaksis*. Toshkent: Fan.
- Al-Kāshgarū, Maxmud. 2010. *Dūvān lugāt at-turk. V 3-x tomax. Tom 1*. Moskva: Vostochnaya literatura.
- Alpomish* 2010. O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zarifov. Toshkent: Sharq.
- Altay kep le ukaa söstör (Altayskiy poslovitsi i pogovorki)*. 2010. Sostavitel Oynotkinova Nadejda Romanovna. Novosibirsk.
- Azimov, U. 1995. *Bir daraxtning so'nggi qo'shig'i. Saylanma. She'rlar*. Toshkent: Sharq.
- Boychechak (Bolalar folklori). Mehnat qo'shiqlari*. 1984. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Drevnetyurkskiy slovar. 1969. Leningrad: Nauka.
- Hojib, Yusuf Xos. 1971. *Qutadg'u bilig*. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. Toshkent: Fan.
- Hojiev, A. 1993. "O'zbek tilshunosligining rivojlanishi va uning dolzarb muammolari". O'zbekistonda ijtimoiy fanlar 8: 37 - 45.
- Japarov, Sh., Sidikova T. 2013. *Kirgiz tilinin dialektologiyasi*. Bishkek: Okuu kitebi.
- Koshg'ariy, Mahmud ibn Husayn. 2013. *Turkiy so'zlar devoni / Devonu lug'otit turk*. 3 jildik. 1-jild. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960. *Turkiy so'zlar devoni / Devonu lug'otit turk*. Uch tomlik. I tom. Toshkent: O'z FA nashriyoti.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Turkiy so'zlar devoni / Devonu lug'otit turk*. Uch tomlik. II tom. Toshkent: O'z FA nashriyoti.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Turkiy so'zlar devoni / Devonu lug'otit turk*. Uch tomlik. III tom. Toshkent: O'z FA nashriyoti.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1967. *Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at*. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
- Mirzaev, To'ra, Jabbor, Eshonqul, Selami, Fidokor. 2007. *Alpomish dostonining*

- izohli lug'ati*. Toshkent: Elmus-Press-media.
- Nadjip, E. N. 2017. *Istoriko-sravnitelnyy slovar tyurkskix yazikov XIV veka. Na materiale "Xosrau i Shirin" Kutba, Kniga II*. Astana: «G'ilim» baspasi.
- Oq olma, qizil olma*. 1972. To'plovchi Muzayana Alaviya. Toshkent: O'zFA A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti.
- Qashqari, Maxmyt. 1997. *Tyrik sozdingi*. 1 T. Almati qalasi: Xan.
- Qobuljonova, G. 2016. "*Qutadg'u bilig*" asarida qo'llangan leksik sinonimlar". ADU Ilmiy xabarnomasi 1: 56 - 63.
- Rajabov, N. 1996. *O'zbek shevashunosligi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Sevortyan, E. V. 2003. *Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov. Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovi na bukvi "L", "M", "N", "P", "S"*. Moskva: Vostochnaya literatura RAN.
- Teneshev, E., Blagova, G. i dr. 2001. *Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. Leksika*. Moskva: Nauka.
- Uygur shiveleri sozlug'u*. 2006. Hazirlayan Ozlem Oztuner. Chanakkale.
- Xolmonova, Z. 1998. "*Shayboniyxon*" dostoni leksikasi. Filol. fan. nomz... diss. avto. Toshkent.
- Yudaxin, K. 1985. Кыргызча-oruscha sozdyk. 2-kitob. Moskva: Nauka.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild*. 2006. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild*. 2007. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild*. 2007. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Shoabdurahmonov Sh. muharrirligida. Toshkent: Fan.
- Shavkat, Rahmon. 1986. *Uyg'oq tog'lar: she'rlar*. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- G'aybullaev, S. 2017. *Qorako'l shevasining tarovati*. Toshkent: Nihol.



**Sh. Sirojiddinov**  
(Toshkent, O'zbekiston)  
rector@navoiy-uni.uz

**S. Sotiboldiyeva**  
(Toshkent, O'zbekiston)  
s.ruzievna@navoiy-uni.uz

## **Rahmonxo'ja Inomxo'jayevning "Afg'oniston dariyzabon adabiyoti" monografiyasiga taqriz**

Barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyotning ham rivojiga tarixiy vaziyat va ijtimoiy-siyosiy muhit jiddiy ta'sir o'tkazishi haqiqat. Iсталgan bir millat adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda turli tarixiy vaziyatlar tufayli milliy adabiyotning taraqqiyoti turlicha kechganiga guvoh bo'lamiz. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti ham millat tarixi bilan hamnafas yashab kelayotgan adabiyotlardan biridir.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar rivojida so'nggi ikki yil o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. 2017-yilda Afg'oniston prezidentining mamlakatimizga besh bor tashrif buyurgani bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarda yangi sahifa ochilganidan dalolat. Bu hol, o'z navbatida, ziyoliylar oldiga afg'on madaniyati, san'ati, tili va adabiyotini o'rganish, ilmiy tadqiq etishda yangi vazifalar qo'ymoqda. Filologiya fanlari doktori, professor Rahmonxo'ja Inomxo'jayevning ikki jildlik "Afg'oniston dariyzabon adabiyoti" monografiyasi bu boradagi ilk jiddiy qadam bo'ldi.

Monografiyada Afg'oniston dariyzabon adabiyoti besh bosqichga bo'lib tadqiq etilgan. Kitobning birinchi jildi afg'on dariyzabon adabiyotining ilk tarixidan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davrini qamrab oladi.

Turli ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra zamonaviy Afg'oniston hududidagi adabiyot XVIII asrning o'rtalariga qadar umumiy

forsiyazon adabiy jarayonlar kesimida rivojlandi. Muallif shunday bir murakkab jarayonlar o'zanida Afg'oniston adabiyotining ildizlari haqida mufassal ma'lumot beradi. Ta'kidlash joizki, XVI -XVIII asr rivojlanishi nuqtayi nazaridan nafaqat Afg'oniston, balki O'rta Osiyo va Eron uchun ham bir tekis kechmadi. XVI asrda uch davlat Boburiylar (Hindiston), Safaviylar (Eron) va Shayboniylar (O'rta Osiyo) davlatining barpo etilishi bu mamlakatlarning, shuningdek, afg'on madaniy hayoti va adabiyotining rivojiga birdek jiddiy ta'sir ko'rsatdi deya olmamiz. Masalan, xuddi shu davrlardagi Eron adabiyotiga nisbatan "sukunatning uch asri" degan tashbeh qo'llanadi. Ammo Hindiston va Afg'oniston adabiy muhiti birmuncha jonli va qizg'in jarayonlarni boshidan kechirdi. R. Inomxo'jayev o'z ishida mohir yozuvchilar va shoirlar faoliyatining bu ikki o'lka adabiyotiga sezilarli ijobiy ta'sirini to'g'ri ta'kidlaydi. Darhaqiqat, O'rta Osiyodan Hindistonga panoz izlab ketgan ko'pchilik ijodkorlar, rassomlar, dastlab, Afg'onistonga yoki aksincha Hindistonga borib, keyin ikkinchisiga o'tishgan. Ayniqsa, Boburiylar davri Hindistonda rivoj topgan "hind uslubi" bu ikki o'lka ijod ahlini yanada yaqinlashtirgan. Monografiyada XVIII asrning birinchi yarmiga kelib Afg'onistonda sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ro'y berganligi, xususan, Qandahorda mutsaqil xonlikning tashkil etilishi va shu munosabat bilan adabiy jarayonlarda jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgani, milliy adabiyotga e'tiborning kuchayganligi masalasiga urg'u beriladi. Bu davrda yashab ijod etgan shoirlar Muhammad Arshad, Mirzo Abu Tolib Moyil, Ollohverda Hayrat, Muhammad Ali Hazin, Qosim Kohiylarning hayoti va ijodi haqidama'lumotlar beriladi. Muallif millat adabiyotida sodir bo'layotgan har bir o'zgarishning tarixiy sabablarini asosli faktlar bilan dalillashga harakat qiladi. Jumladan, Durroniylar davri (XVIII asrning 40-90- yillari), Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik davri (XIX asrning birinchi yarmi) va XIX asrning 40-yillaridan keyingi davr dariyazon adabiyotining rivojlanish xususiyatlari shu tamoyilga asoslangan holda yoritiladi. Ayniqsa, jangnomanavislik, lirik she'riyat, tarixnavislik, tazkirachilikning rivojlanishi, bu janrlarda ijod qilgan yozuvchi va shoirlar faoliyatiga oid muhim ma'lumotlar, ularning asarlaridan olingan namunalar va ularning tahlilining berilishi monografiyadan o'quv mashg'ulotlarida unumli foydalanish imkonini beradi.

Monografiyaning II jildi Afg'oniston adabiyotining yangi davriga bag'ishlangan. Bu jildda Afg'onistonda zamonaviy matbuotning rivoj topishi, ma'rifatparvarlik davri adabiyoti xususiyatlari (1911-1929 yillar), zamonaviy nasrning vujudga

kelish omillari va shakllanish jarayoni, taraqqiyot bosqichlari, realistik yo'nalishining rivojlanishi, nasrda mavzular ko'lami, mustaqillik davri she'riyati kabi masalalar tadqiq etilgan. XX asrga kelib Afg'oniston adabiyoti bir tomondan klassik davr adabiyotining an'analari, ikkinchi tomondan jahon adabiyotining tajribalarini uyg'unlashtirgan holda yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu davr adabiyotining taqdiriga mamlakatda XIX asrning so'nggi choragida sodir bo'lgan tarixiy voqealar: inglizlarning davlat siyosatiga aralashuvi, Do'stmuhammadxon siyosati, Sheralixonning ijtimoiy-madaniy sohalarida o'tkazgan islohotlari, mamlakatga litografiya uskunalarining olib kirilishi hamda matbuotning yo'lga qo'yilishi (1873), ingliz-afg'on urushi (1878) va uning oqibatlari jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Monografiyaning mazkur jildida zamonaviy dariyazon nasrning vujudga kelishi omillari va shakllanish jarayonini yoritishga salmoqli o'rin ajratilgan. Muallif Afg'onistonda an'anaviy yozma adabiyot ko'proq she'riy janrlar doirasida rivojlangani, nasr rivoji sustligini zamonaviy adabiy aloqalar mamlakatdagi siyosiy vaziyatlar tufayli ancha qiyin kechgani, dunyo adabiy olamida ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangliklar juda kech kirib kelgani va boshqa omillar bilan izohlaydi. R. Inomxo'jayev zamonaviy fors nasrining shakllanishida, bir tomondan, folklor asarlari, ikkinchi tomondan, forsiy tilda yozilgan hikoyaviy adabiyot, safarnomalar, uchinchi tomondan, G'arb badiiy adabiyotidan qilingan tarjimalar manbaviy asos bo'lib xizmat qilganligiga alohida urg'u beradi.

Muallif tomonidan zamonaviy dariyazon adabiyotining davrlashtirilgan holda bayon etilishi mutaxassislar va talabalar uchun ancha qulaylik tug'diradi. Olim har bir bosqichning o'zidan oldingi bosqichdan farqli va o'xshash jihatlarini qiyosiy tadqiq etadi. Keltirilgan ilmiy-nazariy farazlar davr yozuvchilarining asarlaridan olingan misollar, ularning tarjima va tahlili bilan dalillanadi. Mahmud Tarziy, Azizurrahmon Fathiy, G'ulom Husayn Fa'ol, G'ulom G'avs Xaybariy, Sulton Muhammad Ramziy, Muhammad Shafi' Rahguzar, Muhammad Amon Orasta, Asadullo Habib va boshqa o'nlab o'zbek o'quvchilariga unchalik tanish bo'lmagan yozuvchilar ijodining tahlilga tortilishi monografiyaning ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatini oshirgan.

## MAQOLA TAQDIM QILUVCHILAR UCHUN QO'LLANMA

“Oltin bitiklar – Golden Scripts” jurnali – milliy merosimiz, umumturkiy adabiyot va madaniyat, o'zbek adabiyoti va madaniyati, umuman, Sharq adabiyoti va madaniyati namunalari, ular mualliflari hayoti va ijodining hali o'rganilmagan qirralarini manbahunoslik, matnshunoslik va matnchilik hamda adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik mezonlari, xalq og'zaki ijodi namunalari to'plash va o'rganish, o'zbek adabiy tili taraqqiyotida badiiy matn va matbuotning o'rni va ahamiyati asosida tadqiq etgan mualliflar ilmiy xulosalarini chop etishga qabul qiladi.

### 1. Umumiy ma'lumotlar

- Qo'lyozmalarga qo'yiladigan talablar

- 1) Qo'lyozmalar yil davomida istalgan vaqtda topshirilishi mumkin. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma nashrdan kamida besh oy oldin taqdim etilishi kerak.
- 2) Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitik@gmail.com) elektron pochtaga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va ishoratlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.
- 3) Barcha qo'lyozmalar elektron pochta manzili, pochta adresi hamda muallif(lar) haqida qisqacha ma'lumot beruvchi ilova xat bilan yuboriladi.

### 2. Qo'lyozma formati

- 1) Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 12 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.
- 2) Maqolalar *The Chicago Manual of Style*, 16<sup>th</sup> Edition formatida shakllantirilishi lozim.
- 3) Iqtiboslar matnda katta qavs ichida beriladi.
- 4) Maqola odatda 9000 so'zdan oshmasligi kerak. Bundan tashqari,
  - 150-200 so'zdan iborat 3 (ingliz, o'zbek, rus) tilda abstrakt va 7-10 kalit so'z;
  - adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak;
  - jadvallar, chizmalar, agar mavjud bo'lsa.
- 5) Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi kerak. Taqrizning formati:
  - sarlavha: Kitob nomi, muallif(lar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi. Narhi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova).
  - taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.Sh., ish joyi, pochta manzili
- 6) Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish 4 darajadan ortmasligi kerak:
  - 1-daraja. Maqola nomi – katta harflarda, quyuq, 14 hajm.
  - 2-daraja. Maqola bo'limlari – yotiq, 14 hajm.
  - 3-daraja. Maqola bo'limlari fasllari – normal, 12 hajm.
  - 4-daraja. Maqola bo'limlari fasllarining fasllari – normal, 11 hajm.

### 3. Maqolada boshqa maqolalardan foydalanish uslubi

1) Tarjima

- boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalardan qilingan tarjima kim tomonidan tarjima qilinganligi aniq ko'rsatilish kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda “o'z tarjima” shaklida beriladi;
- maqola muallifi tarjima qilingan matnda asosiy kalit so'zlarni saqlab qolishi kerak;
- rasmiy nashr qilingan tarjimadan ko'chirma yoki parcha tahrir qilinmaydi. Biroq, tahririyat muallif taqdim qilgan tarjimadagi kalit so'z yoki iboralarni o'zgartirishi mumkin.
- zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakrtik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin;
- tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha (qaysi tilda bo'lsa) beriladi. Zarur deb topilsa uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

## 2) Ismlar va atamalar

- joy nomlari (xorijiy):

Biror mintaqaga tegishli joy nomlari tarjima qilinish kerak.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

3) Biror davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

## 4. Ko'chirma yoki havola berish

1) Ko'chirma:

- manbadan olingan ko'chirma parcha satr oralig'i 2, chap tomondan satr boshidan yoziladi.

Ko'chirmaning ikkinchi abzatsi ham satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrif, 10 hajm, normal shaklda beriladi.

## 5. Boshqa ma'lumotlar

1) Jumla tugagandan keyin doim 1 oraliq tashlanadi.

2) Jumla oxiridagi qavs, qo'shtirnoq va havola raqamlari nuqtadan keyin qo'yiladi.

3) Qavs ichidagi qavs uchun katta qavs qo'llaniladi ([ ]).

## 6. Havola berish

Matnda katta qavs ichida beriladi.

### KITOBLAR UCHUN

#### **Kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Pollan, Michael. 2006. *Dilemma Omnivore: Oziq-ovqatning qanday rivojlanishining tabiiy tarixi*. Nyu York: Pengvin.

#### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Pollan 2006, 99-100]

#### **Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, Ism, Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitobning nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Vard, Geofferey va Ken Burn. 2007. *Urush: Yaqin Tarix 1941-1945*. New York: Knopf.

#### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Ward va Burns 2007, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Barnes va boshqalar 2010, 847]

#### **Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» Kitobda *Kitob yoki to'plam nomi*, Familiya Ism, Familiya Ism muharrirligida, maqola sahifa raqamlari. Shahar: Nashriyot nomi.

Kelli, Jon. 2010. "Nablyudat krasniy svet: Mao-feteshizm, Paks-Amerikano i ix moralnaya ekonomika." V knige *Antropology*, red. John Kelly, John Marshall, Abigial

Adamas, i Mickey Spillane, 67-83. Chikago: Izdanie Chikagskogo universiteta.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Kelly 2010, 77]

**Original kitobning qayta nashrini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, ism. Nashr yili. «Original matn nomi.» Kitobda *Kitob yoki to'plam nomi*, Familiya Ism, Familiya Ism muharrirligida. Jild raqami, matn sahifalari raqami. Shahar: Nashriyot nomi. Original nashr: Ism Familiya. *Kitob nomi*, jild raqami (Shahar: Nashriyot nomi, nashr yili).

Cicero, Quintus Tullius. 1986. "Konsullik uchun ovoz berish yo'riqnomalari". Kitobda *Rim: Kech Respublika va Boshqaruv*, Walter Emil Kaegi Jr. va Peter White muharrirligida. 2-jild, 33-46. Chikago: Chikago universiteti nashri. Original matn sifatida nashr qilingan: Evelyn Shuckburgh. *The Letters of Cicero*, 1-jild (London: George Bell and Sons, 1908).

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Cicero 1986, 35]

### ELEKTRON SHAKLDA NASHR QILINGAN KITOBLAR UCHUN

Agar elektron shaklda nashr qilingan kitobning bir necha formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Online kitoblar uchun internet adres (URL) hamda manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

**Elektron kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, Ism. nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi. Elektron nashriyot nomi. Austen, Jane. 2007. *Gordost i predubejdenie*. Nyu York: Pengvin Klassiks. Izdanie Kindel.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Austen 2007, 101]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, Ism, Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitobning nomi*, Shahar: Nashriyot nomi. Kitob olingan sana, internet adres (URL)

Kurland, Philip va Ralph Lerner. 1987. *Osnovateli Konstitutsii*. Chikago: Izdanie Chikagskogo universiteta. Kitob olingan sana 28.02.2010, <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Kurland va Lerner, 10 Bob, 19 hujjat]

### JURNAL MAQOLASI UCHUN

#### Nashr qilingan jurnal maqolasi uchun

**Jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzatsdan yoziladi):**

Familiya, Ism. nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. Weinstein, Joshua. 2009. "Rinok Platonskoy respubliki." *Classical Philology* 104:439-58.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Weinstein 2009, 440]

### **Online jurnal uchun**

Online jurnal uchun uning DOI adresi ko'rsatiladi. Agar DOI adres bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> adres.

### **Online jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):**

Familiya, Ism. nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi* jurnal soni:maqola sahifalari. DOI adres.

Kossinets, Gueorgi. 2009. "Rivojlanayotgan ijtimoiy tarmoqdagi gomofilyaning kelib chiqishi" *Amerika sotsiologiya jurnali* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Kossinets 2009, 411]

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Sherl Stolberg i Roberta Pearnig 27.02.2010 yildagi "New York Times" dagi maqolasida aytilganidek ...); odatda bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi.

Agar online maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet adresi (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak. Maqolaning muallifi noma'lum bo'lsa, maqolaning sarlavhasi havolada keltiriladi.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):**

Familiya, Ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Mendelsohn, Daniel. 2010. "Men haqimda yetarlicha." *New Yorker*, January 25.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mendelsohn 2010, 68]

### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):**

Familiya, Ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres Stolberg, Sheryl Gay i Robert Pear. 2010. "Ostorojno, politiki ...". *New York Times*, 27.02.

<http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Stolberg i Pear 2010, 68]

### **Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar lotin yozuviga transkripsiya qilinishi lozim:**

Баранов, Харлампий. 1958. *Арабско – русский словарь*. Москва: Наука.

Baranov, Kharlampiy. 1958. *Arabsko – russkiy slovar*. Moskva: Nauka.

Ushbu son "Oltin bitiklar" tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.  
e-mail: oltinbitiklar@inbox.ru  
Tel.: +99891 166-31-38  
Bosishga 00. 00 2019-yilda ruxsat etildi  
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog'i: 8  
Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894  
659 94 62





